

ISSN 0207-9135

YOSHLIK

O'zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnali
3/2025



MARG'ILONGA BORSANGIZ,

Jahon Otin Uvaysiyning uy-muzeyi kirib o'ting!



Marg'ilon shahrida joylashgan bu uy-muzeyda Jahonbibi, Uvasiy, Vaysiy yoki Uvaysa nomi bilan mashhur bo'lgan Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodiga haqida keng taassurot beradi. Muzeyda shoir hayoti va ijodiga oid qimmatli eksponatlar mavjud. Shuningdek, Markaziy Osiyo madaniyati va tarixiga taalluqli buyumlar va anjomlar, eng asosiysi, Uvaysiy va unga zamondosh bo'lgan boshqa shoirlarning asarlari qo'lyozmalari, kitoblar va noyob fotosuratlarini ko'rish mumkin.

№ 3 (401) 2025

OYINA

Muassislar:

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi.
1982-yildan chiqa boshlagan.

Tahrir hay'ati:

Sirojiddin SAYYID
Erkin A'ZAM
Iqbol MIRZO
Nodir JONUZOQ
G'afur SHERMUHAMMAD
G'ayrat MAJID
Abdusaid KO'CHIMOV
Shuhrat SIROJIDDINOV

Jamoatchilik kengashi:

Qahramon QURONBOYEV
Alisher SA'DULLAYEV
Farida AFRO'Z
Bahodir KARIMOV
Farrux JABBOROV

Bosh muharrir:

Nurilla CHORI

Bosh muharrir o'rinbosari:

Saidjalol SAIDMURODOV

Mas'ul kotib:

G'iyosiddin O'NAROV

Muharrirlar:

Xolmuhammad KARIMIY
Shohsanam NISHONOVA
Rohilabonu G'O'CHCHIYEVA

Rassom:

Asliddin KALONOV

Manzilimiz:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi binosi.
Indeks 100066

E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz

Web sayt: www.yoshlikjurnali.uz

Tel.: (71) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: S. Saidmurodov

Har bir millatning kelajagi,
istaymizmi-yo'qmi, o'quvchilar
saviyasiga bog'liq. Bu
haqiqatni hech qachon esdan
chiqazmasligimiz lozim.

Erkin VOHIDOV,

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

YOSHLIK
SAHIFALARIDA

4

Nodir jonuzoq
Birinci bosh
muharrir saboqlari



8

**Qutlibeka
Rahimboyeva**
Har bir shoir
alohida hodisa



14

Raimqul Suyarov
Bo'ynoq



18

Otabek Rahim
Onamga maktub




20

**Shohista
Ergasheva**
Mening qovurg'amdan
qalam yaraldi...



22

Ibrohim G'afurov
Ehtiroslar olovi
ichra arzi hol



29

**Sirojiddin
Sayyid**
Qadimiy Baqtriya
tuproq'ida



YOSHLIK

32

**Oygul
Suyundiqova**
Umrin soatlari
jaranglar tiniq



40

Nilufar Ergasheva
Qo'limda bobomdan tug',
Qiz boshimga mardona...



42

**Alisher
Fayzullayev**
Ulkan qanotli qiz



44

**Mohira
Eshpo'latova**
Qaytish



49

O'ktam Hakimov
Bellashuv



52

Mehrixon Ortiqova
Ilon mojarosi



56

**Marjona
Mamatova**
Jilvalanar
yetti rang...



57

**Mahfuza
Begaliyeva**
Tabiri teskari
tushlar uyg'onsin...



58

Umar Sayfiddin
Naqorat





BIRINCHI BOSH MUHARRIR saboglari

("Yoshlik" xazinasidan)

Nurafshon sayyora
Erkin Vohidov...

Bu nomni ilk bor qachon eshitganman – yodimda yo'q. Balki, muallimimiz tilidan, ehtimol, televizor yo radiodan – bilmayman. Muhimi, bu nom men uchun nihoyatda qadrlil, undan taralguvchi nur, ziyo ruhiyatimning bir qismiga aylanib ketgan. O'zi shunday bo'ladi: quyosh, oy, yulduzlarga qo'ling yetmaydi, ularga borib ko'rmagansan, lekin doimiy ravishda tun-kuningga yorug'lik, taft bag'ishlab turgani bois qaysidir darajada senga yaqin, hayotingga daxldor tuyiladi, umringning bir qismiga aylanib ketadi. Bu haqiqatni ustozning o'zi ham sezgan holda shunday yozgan edi:

*Odamlar, siz mening hayotim,
Har biringiz umrim parchasi...*

Erkin Vohidov nurafshon sayyoralar kabi mendan juda olisda va ayni paytda menga juda yaqin edi.

Esimda, fan olimpiadasining tuman bosqichida ona tili va adabiyot bo'yicha g'olib bo'lganim uchun maktab direktorimiz qalin muqovali, ustida yolqinli alanga tasvirlangan kitob bilan taqdirlagandi. Bu O'zbekiston xalq

shoiri Erkin Vohidovning "Kuy avjida uzilmasin tor" kitobi bo'lib, menga – o'zicha she'r mashq qilib yurgan o'smiringa tengi yo'q tuhfa edi. To'plamga kirgan lirik she'rlarni yutoqib o'qiganlarim, Matmusaning beg'ubor sarguzashtlaridan qah-qah otib kulganlarim, ijtimoiy ruh bilan yo'g'rilgan misralar ta'sirida uzoq vaqtgacha o'ychan yurganlarim – butun taassurotlarim yodimda.

Uyg'oq nigoh

O'ylab qarasam, Erkin Vohidov o'zidan keyingi ijodkorlarning nafaqat shoir, balki shaxs sifatida shakllanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan ekan. U kishining yonida yurgan yoshlar-ku, mayli, lekin poytaxtdan yuzlab chaqirim olisdagi qishloqda o'z orzulari og'ushida yashagan menday xayolparastning dunyoqarashi qotishida, muayyan hayotiy maslakka ega bo'lishida ham bu ulkan adibning o'rni katta edi.

O'tgan asrning 80-yillari oxirida dadamning yoniga o'tirilib, "Vremya", "Axborot" singari siyosiy-ijtimoiy teledasturlarni kuzatar va yosh shuurim bilan sobiq ittifoq hududida ulkan tarixiy jarayonlar yuz berayotganini ilg'ardim. Ammo bu chigal voqea-hodisalarni qanday talqin etish kerak, ularga qay tarzda munosa-

batda bo'lish lozim – tajribasiz ongim qamrab olishga, tahlil etishga ojizlik qilardi. Ayni shu pallada jonkuyar adiblarimiz, xususan, Erkin Vohidovning televideniyaedagi chiqishlari, gazeta-jumallardagi maqolalari ko'plab yoshlar qatori mening ham aql ko'zimni ochgan, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Iztirob-u kuyunchaklik bilan yozilgan dilo'rtar misralar dunyoga shoirona uyg'oq nigoh bilan qarash lozimligidan saboq bergan.

Qishlog'imizga haftada ikki marta pochta-chi kelardi. Uzoqdan velosiped mingan odam qorasi ko'rinsa, eshikka qarab chopardim. U tashlab ketgan o'ndan ziyod gazeta-jurnal orasida "Yoshlik" ham bo'lardi! Albatta, men o'sha paytlari bu adabiy nashrning ilk bosh muharriri Erkin Vohidov bo'lgani-yu, jurnal shu darajaga yetguncha qancha ter to'kilib, zahmat chekilganini bilmasdim. Hali qaysi kasbning boshini tutishim aniq emasligi bois tahririyat nima, jurnalistika qanday kasb – o'ylab ham ko'rmagandim, butun fikr-u zikrim jurnalda chop etilgan bir-biridan qiziqarli asarlar-u maqolalarda edi. Xususan, o'zbekning atoqli va ardoqli shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub she'rlar, maqolalarni kesib olib (albatta, dadam o'qib chiqqanidan so'ng), yig'ib borardim.

Shoirning o'sha paytlari e'lon qilingan, "qayta qurish" otlig' davrning mohiyati yaqqol ochib berilgan she'rini bir o'qishda yodlab olganim, o'zimcha xirgoyi qilib yurganim ham esimda.

*Bizlar arra tortmoqdamiz,
Arramizning tishi yo'q.
Nega arrang tishi yo'q, deb
So'raydigan kishi yo'q.*

*Chunki bizlar anoyimas,
Pishib ketgan ko'zimiz.
Arra tushgan o'sha shoxda
O'tiribmiz o'zimiz.*

O'sha davrga xos ko'zbo'yamachilik, xo'ja-ko'rsinchilikning o'ta ustalik bilan chizilgan

surati bu. Ustoz shoir ijodida bunday istehzoli she'rlar ko'p edi. O'sha, menga sovg'a qilingan to'plamdan joy olgan "Majlis qiling", "Eski ham-mom, eski tos", "Uyatchanlik", "Orol o'layotir...", "Iztirob" singari she'rlarda ham zulmning, loqaydlikning, nosog'lom siyosatning avra-as-tari ag'darib ko'rsatilgandi. Eng muhimi, qizg'in ijtimoiy ruh she'r san'atining nozik vositalari, badiiyat talablari bilan omuxtalashgan holda o'quvchi qalbiga yo'l topar edi.

Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari shoirlar eng qaltis paytlarda adolattalab, haqiqatga tashna xalqning ovozig'a aylangan ekan, endi bilsak.

O'zi va so'zi bir shoir

Ko'p ijodkorlar kabi talabalik, dunyo va yangi o'zbek she'riyati bilan tanishuv, adabiyotdagi turli "izm"larga mahliyolik bosqichlarini boshdan o'tkazdik. Murakkab uslublarga qiziqib, sodda va samimiy she'riyatga biroz bepisand qaraganimiz ham bor gap. Nihoyat, ustoz Erkin Vohidov mahorat bilan tarjima qilgan nemis mutafakkir shoiri Gyote ilgari surgan shoirming shakllanishi haqidagi "Avval soddalik, keyin murakkablik va yana soddalik..." degan purma'no hikmat mag'zini chaqdik. Jumladan, Erkin Vohidov she'riyatidagi tiniqlik va tabiiylik, soddalik va teranlik, musiqiylik va ravonlik, fikr va tuyg'u muvozanati ulkan iste'dod, hayotiy tajriba va toblangan mahorat mahsuli ekanini, bu maqomga ko'tarilish hammaga ham nasib qilavermasligini anglab yetdik. Yana bir narsani tushundik: shoirming yoniq she'rlari muayyan qatlarga emas, butun xalqimizga ma'naviy oziq, ruhiy quvvat bo'lgan, ya'ni ustoz chin ma'noda xalq shoiriga aylanib ketgan ekan.

Afsuslanadigan joyimiz – Toshkentda ish-lay boshlaganimizdan so'ng ham adabiyotimiz faxri bo'lgan ko'p ustozlarga yaqinlashmab-miz. To'g'risi, bunga haddimiz sig'magan. "Ular kim-u, biz kimmiz? Huzuriga borsak, qanday kutib olarkin?" qabilidagi andishali savollar

to'sig'idan oshishga jur'atimiz yetmagan. Holbuki, asarlari orqali doimo muloqotda edik, televideniye va matbuotdagi chiqishlarini muntazam kuzatardik. "Falon gazetada Erkin Vohidovning yangi she'rlari berilibdi. Piston suhbatda shunday fikr bildiribdi..." deb o'zimizcha tahlil qilardik.

Bir gal Erkin Vohidov el suygan shoir va jamoat arbobi sifatida televideniye kelgani, u kishiga peshvoz chiqqanimiz yodimda. Qisqa suhbat asnosida bir-biriga ziddiyat tuyuluvchi ikki xislat – kamtarlik va salobatning bir shaxsda jamuljam bo'lganidan hayratga tushganman.

O'zbek she'riyati tarixida bir-biriga o'xshamaydigan ulkan iste'dod egalari ko'p. Har biri alohida dunyo. Erkin Vohidov deyilganda ko'z oldimizda tug'ma iste'dod va yuksak sharqona madaniyatni o'zida uyg'unlashtirgan, intellekti baland, shaxsiyati va ijodi muvofiq keladigan zabardast shoir qiyofasi gavdalanadi. Shunday ulug' insonga goh olis, goh yaqindan hamnafas bo'lganimiz, uning ko'ngil va ruhiyat bulog'idan suv ichganimiz kishiga cheksiz faxr, mamnuniat bag'ishlaydi.

"Emas oson bu maydon ichra turmoq..."

"Yoshlik" jurnalida ish boshlaganimda xayolimga dastlab "Bu tahririyatga qanday ulug' insonlar rahbarlik qilgan-al!" degan o'y keldi. Birinchi galda ko'z o'ngimda Erkin Vohidov siymosi purviqor qoyaday namoyon bo'ldi. Ham adabiyotda, ham jamiyatda beqiyos obro', nufuzga ega shunday shon-shavkatli bosh muharrirga izdosh bo'lish... kishiga xursandlik va ayni paytda katta mas'uliyat ham yuklaydi.

Jurnalning o'ttiz-o'ttiz besh yil oldingi taxlamlarini varaqlash, ustozlar tajribasini o'rganish asnosida yana bolalikka qaytganday, o'sha paytdagi qadrdon do'stimni qayta topganday bo'ldim. Erkin Vohidovning ism-sharifi "Bosh redaktor" degan yozuv ostida qo'r to'kib, jurnal-

ga bezakday turibdi. Birmuncha mayda harflarda bosilgan, lekin ko'p yirik, salmoqli asarlarni chop etgan jurnal... Adadi ham hozir xayolga sig'maydigan darajada ko'p. O'sha paytda tahririyatda ishlagan yosh ijodkorlarning aksariyati bugun adabiyotimizda o'z o'rniga ega ustoz adiblarga aylangan.

Eski taxlamlarni varaqlarkanman, jurnalga mehnati singgan barcha ustozlarga, birinchi galda tahririyatning birinchi bosh muharriri Erkin Vohidovga g'oyibona minnatdorlik bildiraman. "Sizlarning tengsiz iste'dodingiz, fidoyiligingiz, jonkuyarligingiz tufayli "Yoshlik" jurnali shunday nom qozondi. Hali ham sizlar taratgan do'ruq soyasida yuribmiz. Tashakkur!" deyman ularga xayolan.


"Erkin Vohidov falon yili qiyin vaziyatga tushib qolganimda menga shunday yo'l-yo'riq ko'rsatgan..."

"Erkin Vohidov falon yili meni adolatsizlikdan himoya qilgan..."

"Erkin Vohidov falon yili katta xato qilganimda dakki berish o'rniga, jilmayib ko'nglimni ko'targan..."

"Erkin Vohidov falon yili hech esimdan chiqmaydigan yaxshilik qilgan..."

Ustoz bilan birga ishlagan hamkasblari, shogirdlarining bunday samimiy, minnatdo-



rona dilso'zlarini eshitib, ko'nglimdan bir o'y o'tadi: Erkin Vohidovday shoir bo'lish qanchalar qiyin bo'lsa, u kishiday bosh muharrir bo'lish ham shunday mushkul ekan!

Mardona ruh

2015

-yilning 28-dekabri.

Ustoz bir kam

sakson yoshni

qarshi olayotgan kuni O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo: "Erkin akani tabriklab kelaylik. Shu bahonada jurnalning birinchi bosh muharriri duosini olasiz", deb qoldi. Taklifdan ko'nglim yorishdi va birgalikda yo'lga tushdik.

Erkin Vohidov necha ming marta goh xursand, goh xafa, goh o'ychan holda hatlab o'tgan darvoza oldida turibmiz. "Mana, men maqolamda yozgan qo'ng'iroq!" dedi Iqbol aka eshik yonidagi tugmani bosarkan. Chindan ham, shogirdlarni saboqqa chorlovchi qo'ng'iroq ovozi jaranglaganday bo'ldi.

Ichkari kirib, ustoz bilan yuzma-yuz kelganimizda, u kishining xastalikdan jisman toliqqanini, o'zini sal oldirib qo'rganini sezdik. Katta shoirimizni teleekranlarda doimo o'ktam qiyofada ko'rib odatlanganimiz bois ko'nglimizda xijillik uyg'ondi. Ustozning ruhini ko'tarishga, dalda berishga intildik. Iqbol aka: "Yaqinda Samarqandda ijodiy safarda bo'ldik, she'riyat muxlislari Sizni eslab, qayta-qayta so'rashdi", dedi. Men ham o'zimcha nimalardir deganday bo'ldim. Ustoz minnatdorlik bildirdi. Sog'lom paytlari ham ohista, so'zlarni avaylab-erkalab gapiradigan shoiming ovozi shikasta chiqardi. Erkin aka asta-sekin hayotidagi ko'p kulgili, yorug' xotiralarni so'zlay boshladi. Hajviy she'rlarini eslab, ba'zi parchalarni yoddan o'qidi. Birpasda ko'nglimizdagi ezginlik tarqalib, xushchaqchaq kayfiyat, erkin muhit paydo bo'ldi. Samimiy gurung qildik. Qizig'i, biz ustozning emas, u kishi bizning ko'nglimizni ko'tardi, qalbimizga yorug'lik ulashdi. Shunda, yana bir bor, xastaligi keksalikdan zaiflashgan vujud qanday ulug'vor, mardona ruh borligini tuydik.

Suhbat so'ngida ustozga "Yoshlik" jurnalining yangi sonlarini taqdim qildik. Ustoz bir paytlar o'zi yo'lga qo'ygan jurnalni o'zgacha mehr, sog'in bilan varaqladi. Tahririyat ishiga rivoj tilab, duoga qo'l ochdi. "Kitob-jurnal o'qiydigan odamlar ko'paysin!" degan tilak, ayniqsa, bizni mutaassir etdi.

Qutlug' xonadondan chiqarkanmiz, ustoz Erkin Vohidov bilan kechgan lahzalarimiz yillarga tatigulik saboq bo'lganini his qildik.

Yuksak e'tibor

O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti etib saylangandan keyin chiqargan ilk qarorlardan biri O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida bo'ldi. Yangi saylangan Prezidentimizning ulug' shoir merosi va xotirasini e'zozlashga qaratilgan bu qarori butun xalqimizni xursand qildi. Chunki Erkin Vohidov, sal avvalroq ta'kidlaganimizdek, chinakam xalq shoiri edi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, Erkin Vohidov o'z salaflari qatori o'tli, isyonkor she'rlari bilan elimizni ishtiqlolga ruhan tayyorlashda faol ishtirok etdi. Mustaqillik yillarida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bilan yelkama-yelka turib, iste'dod-u bilimni, kuch-u g'ayratini ozod va obod mamlakat bunyod etishga sarfladi. Borlig'ini jonajon xalqimizga baxshida qildi. Haqli ravishda O'zbekiston Qahramoni deb e'tirof etildi.

Bugun O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning 80 yilligi tantanalarida ishtirok etarkanmiz, barcha yoshlar, shogirdlarning ko'nglidan bitta o'y o'tyapti: "Ustoz! Siz kuylagan yurt, siz alqagan el borki, porloq yodingiz, yoniq so'zingiz hech qachon o'chmagay! Ilohim, bizga ham sizning sharaflari, nurli yo'lingizdan yurish nasib etsin!"

Nodir JONUZOQ

HAR BIR SHOIR ALOHIDA HODISA

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoira Qutlibeka RAHIMBOYEVA bilan suhbat

– Qutlibeka Rahimboyevani ko'p qirrali ijodkor, ya'ni shoira, adiba, tarjimon
va jurnalist sifatida bilamiz. Bir qancha she'riy to'plamlar, bir qator hikoyalar,
dramatik asarlar hamda publitsistik maqolalar muallifisiz. Lesya Ukrainka, Ma-

rina Svetayeva, Anna Barkova, Alfonsina Storni
kabi shoiralarning asarlarini o'zbek tiliga tar-
jima qilgansiz. Ayting-chi, bu sohalarning qay
biriga o'zingizni ko'proq daxldor deb bilasiz?

– **Y**oshim yetmishdan o'tdi. Im-
konimda bor ijodni qildim.
Bu yog'iga umr qancha vafo
qiladi-yu, qalamim yana qancha qimirlab tu-
rishga yaraydi, yolg'iz Tangrim biladi. Menga
xuddi shunday savol bilan murojaat qilish-
ganlarida doim: "Men she'rimda rostroqman",
deb javob beraman. Chunki maqolalarning
ba'zilari xizmat burchi yuzasidan yoziladi.
Istaymanmi-istamaymanmi, yolg'on yozma-
sam-da, o'zimdan sal uzoqlashgan paytlarim
bo'ladi. Tarjimalarni esa o'zim yaxshi ko'rib
tanlaganman. Hikoyalarni o'g'lim oliygohda
o'qiyotganda shartnoma pulini to'lash uchun
ma'lum bir maqsadda yozganman. Bu hi-
koyalar sariq matbuotning andazalari ruhida
yozilgan. Hatto qizim bir paytlar bu hikoyalar-
ga "Tirikchilik janrida yozilgan asarlar" deb
ajoyib nom ham qo'yib bergan edi. Lekin bu
hikoyalarning ba'zilarini o'qiganda Xurshid
Do'stmuhammaddek zabardast yozuvchi ham
"Siz yaxshi yozuvchi ekansiz-ku", degan edi.
Vaqtlar o'tib, avval yozganlarimni o'qisam, "Er-
kin A'zamov emasman-u, har holda, yaxshigina
nasriy ta'bim ham bor ekan", deb qo'yaman.
Drama bobida bunday deymayman. Radioda
berilgan drama shunchaki bir tajriba edi. Umu-
man olganda, aytmoqchi bo'lgan fikrimda jon
bor-u, ifodasi u qadar muvaffaqiyatli chiqqan,
deymayman. Anglaganingizday, menga
she'riyat yaqinroq ekan.

– Bilishimcha, ijodingizni aynan she'r
yozishdan boshlagansiz. Har qaysi ijodkor
faoliyatining dastlabki yillari haqida gap ket-
ganda, adabiy ta'sir masalasiga to'xtalmasak
bo'lmaydi. Sababi, qo'lga qalam olgan yoshlar
borki, o'zidan oldingi yuksak iste'dod egalaridan
ta'sirlanib, havas bilan ularga ergashib ijod
maydoniga kirib keladi. Shu ma'noda, yigirman-

chi asrning yetmishinchi-saksoninchi yillaridagi
adabiy jarayon haqida suhbatlashsak. Siz qaysi
ijodkorlarni ustoz deb bilgansiz? Kimlarning ijo-
didan ko'proq ta'sirlangansiz?

– **K**itob, kitobxonlik ijodimning
asosiy poydevori bo'lgan.
Adabiyotimizda tug'ma
iste'dodlilar bor. Ularning tanglayi baxshiyona
aytimlar bilan, ertaklar bilan ko'tarilgan. Oydin
Xojiyeva, Zulfiya Mo'minova... Bu sanoqni uzoq
davom ettirish mumkin. Ularning she'rilarida
so'zlar raqsga tushib kelayotgandek bo'ladi.
Satrlari ravon, hech bir so'zi tishga tegmay-
di. Men o'qib, shoir bo'lganlardanman. G'afur
G'ulom ijodidagi zalvor, falsafa, Oybek dom-
ladagi his-tuyg'ularning quyuqligi kaminani
maftun etgan. Asqarali Sharopov degan dom-
lamiz Cho'lpon ijodidan namunalar o'qib ber-
gan. She'riyat haqidagi fikrlarimiz ostin-ustun
bo'lib ketgandi o'shanda. Har bir she'r qullikka
qarshi yaroq ko'tarib turgan askarga o'xshab
ko'ringan. O'sha paytlarda adabiyotimizga
"O'zbekiston – Vatanim manim"lari bilan Ab-
dulla Oripov, "O'zbekim"i bilan Erkin Vohidov
kirib kelgan. Men ularni hamisha "O'zbeklarda
erk sog'inchini uyg'otgan shoirilar" deb e'zozlay-
man. Undan so'ng Omon Matjon, Rauf Parfilar-
ga "kasal" bo'ldim. Izidan Halima Xudoyberdi-
yeva, Usmon Azim, Shavkat Rahmonlar avlodi
kirib keldi.





Hammasini yutoqib, sahroda suvga duch kelgan odamday tashnalik bilan o'qiganmiz. Usmon Azimning "Insonni tushunish" deb atalgan ilk kitobchasini boshdan oyoq yod olgandim. Telbaga o'xshab kim duch kelsa, o'qib beraverardim. Hozir ham ularning hech biridan ixlosim qaytmadi. Faqat keyingi yillarda Cho'lponga ko'proq yopishdim. To'g'risi, ularning bizdan oldinda bo'lganidan juda suyunaman. Bizning avloddan, bizdan keyingi avloddan qanday yaxshi shoir chiqqan bo'lsa, bizdan oldingi yaxshi shoirlar sharofatidan chiqqan, deb hisoblayman.

– Suhbatlarimizning birida adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov hamda Bahodir Sarimsoqov ilk mashqlaringizga ijobiy munosabat bildirganlarini aytib o'tgandingiz. Zulfiyaxonim, Gulchehra Nurullayeva kabi shoirlar, Nurboy Jabborov, Bahodir Karimov, Marhabo Qo'chqorova kabi adabiyotshunoslarning ijodingizga bag'ishlangan munosabatlari ham bizga yaxshi ma'lum. Nomlari keltirilgan adabiyotshunoslarning shoiralar qatorida yana kimlar she'rlaringiz to'g'risida munosabatlarini bayon qilgan? Bu munosabatlarda ijodingizga qay darajada yondashilgan, deb o'ylaysiz?

– Men siz yuqorida ismlarini sanagan adabiyotshunoslarning shoirlar, bir so'z bilan aytganda, barcha ustozlardan (faqat Nurboy Jabborovning fikrlaridan bexabar ekanman) juda minnatdorman. Qo'shjonov domlani ilk mashqlarimni o'qib, "Yaxshi, yaxshi", degan bir og'iz gaplaridan osmonlarga uchganman. Ehtimol, shu bir og'iz baho bo'lmaganida, men Zulfiya opadek (o'sha paytlari shuhrat cho'qqisida turgan) insonning oldiga borishga jur'at topa olarmidim... Zulfiya opamning "Oq yo'l"lari mening nafaqat ijod yo'limda, balki hayot yo'llarimda ham yashil chiroq bo'lgan. "Zulfiya opaning qizlaridan" degan yorliq bizga ko'p yaxshi yo'llarni ochib yuborganini aytmasam bo'lmaydi.

Rahmatli Gulchehra Nurullayeva "Ozodlik" nomli kitobimni shunday chiroyli tahlil qilganlarki, bag'rikengliklariga, ichidagi "men"ni men uchun yengganliklariga hali-hanuz qo'yil qolaman. Ijodim haqida kam yozishgan. Adashmasam, Hakimjon Karimov degan yoshi ulug'roq adabiyotshunos ham mustaqillik davri she'riyatini tahlil qilayotib, men haqimda bir-ikki og'iz samimiy fikrlar aytganlar. Adabiyotshunoslarning sanoqlarida yuraman, xolos. Buni o'zimning tahlilga arzimaganimdan deb bilmayman. Men uchun yozishning o'zi muhim. Hech qanday tushuntirish asliyatning o'zidan ustun bo'lolmaydi.

– "Uzun kunduzlar" nomli kitobingizda "Muhtarama Zulfiya opaga", "Qorako'zlarim" nomli kitobingizda "Halima opamga" deb yozib qo'yilgan bag'ishlov she'rlar bor. Nazarimda, bu she'rlarning yaralishi bejiz emas. Xalqimizning sevimli shoirlari Zulfiyaxonim bilan Halima Xudoyberdiyeva sizga nafaqat ustoz, balki do'st, maslakdosh ham bo'lgan. Bundan ikki yil avval "Yoshlik" jurnalida e'lon qilingan bir maqolangizda ham Zulfiyaxonim, Oydin Hojiyeva hamda Halima Xudoyberdiyeva haqida to'xtalib, ulardan ko'plab yuksak fazilatlarni, xususan, Halima Xudoyberdiyevadan bag'rikenglik, jasoratni, Oydin Hojiyevadan intizom, mehnatkashlikni o'rganganingizni alohida ta'kidlab o'tgansiz. Ulardan ijodiy bilimlar ham olganmisiz? Ularning she'riyatidagi qaysi jihatlar sizni o'ziga jalb qilgan?

– Zulfiya opamning hijron she'rlaridagi dardning chuqurligi, "Qozog'iston o'lanlari"dagi manzara berish san'ati, "Xotiram siniqlari" dostonidagi jasorat, rostgo'ylikdan ta'sirlanganman. Oydin opam xalq og'zaki ijodini juda yaxshi bilardilar. Men ularga "Shoir bo'lmaganingizda, do'mbira chalib terma aytadigan baxshi bo'ladingiz", deb hazillashardim. Xalqona ohanglar shoiraning she'rlariga alohida joziba baxsh etgan. Halima opamda fikr ulkanligi bor edi. Kengliklar, ijtimoiy ruhning baquvvatligi... Men shoirlarimiz ijodida shu jihatlarni ajratib ko'rsatishim mumkin.

– Yigirmanchi asrning yetmishinchi-saksoninchi yillarida ijod ostonasiga qadam qo'ygan barcha shoir-yozuvchilar qatorida siz ham ikki xil davrni boshidan kechirgan ijodkorsiz. She'rlaringizdagi erk sog'inchi, haqsizlikka isyon tuyg'ulari endilikda ozodlikni har narsadan asrab-avaylash, shukronalik hissiga

do'ngan. O'tish davridagi ijtimoiy holatlarda ruhiyatingizga bo'lgan evrilishlar haqida suhbatlashsak. Sizningcha, davr voqealari ijodkorning shakllanishiga ta'sir ko'rsata oladimi?

– Ijodimning dastlabki davrlarida qishloq hayoti, yashash mashaqqatlarining odamlar ruhiyatida aks etishi, mustabid tuzum boshimizga solgan "paxta qulligi"ning vatandoshlarimizni jismonan, ma'nan mahv etayotgani kabi og'riqlar badiiy ifodalangan she'rlar ko'p edi. Mustaqillikni qo'lga kiritish uchun kurashlar (bizda bu kurashlarning jangchisi, asosan, adabiyot bo'lgan) kuchaya borgach, mening ham ongim yorishib borgan. Ayniqsa, rasmiy davralarda "Ozodlik oroli" deb ataluvchi she'riyat bo'limida (G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida) ishlagan davrim mening dunyoqarashimda keskin burilishlar yasagan. Biz qanday yashayapmiz, qanday yashashimiz kerak, degan savollar o'sha paytlarda she'riyat bo'limida o'tgan bahslarni tinglab tug'ilgan. Xonamizda Omon Matjon, Miraziz A'zam, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Azim Suyun, Muhammad Rahmon kabi o'sha davrning bo'lakcha ruhdagi ijodkorlari tez-tez to'planishar, suh-



batlardan men tobora ulg'ayib borardim. Agar odamlarning ozodlikka intilgan o'sha davri bo'lmaganda, men hozirgi ruhiyatdagi shoir bo'lolmasdim. Aslida, barcha shoirlarni ham o'zi yashagan davr yaratadi.

– Hozirgi o'zbek adabiyotini mumtoz she'riyatimiz an'analarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Milliy adabiyotimizdagi ba'zi unsurlar zamonaviy she'riyatda ham o'zini namoyon qiladi. Xususan, naziranasvislik, obrazlar, she'riy shakllar bunga misoldir. Sizning ijodingizda ham naziramonand she'rlar bor. "Uyingizning osmonida hilol bo'lib porlayin" deb boshlanuvchi she'ringiz aruz tizimidagi biror vazn talabiga to'la muvofiq bo'lmasa-da, unda aruzga xos belgilar uchraydi. She'ning masnaviy shaklida qofiyalanishi ham mumtoz adabiyotimiz an'alarini yodga soladi. Ijod jarayonida aruz tizimida asarlar yaratish uchun nechog'li uringansiz? Siz uchun she'riyatda milliy an'alarining o'zni qanday?

– Mumtoz adabiyotga oshiqlik talabalik davrimdan boshlangan. Mumtoz adabiyotdan dars beradigan Akrom Ibrohimov degan domlamiz bizni klassika "qozon"ida obdan qovurgan. Har bir shoirdan o'n-o'n beshtalab g'azallar yod olishni talab qilardilar. Men o'zim Bobur hazratlari, Shoh Mashrabni yaxshi ko'rib o'qiyman. Hozir ham yuragimga bir siqindilik kirsa, yo Bobur, yo Mashrabga qo'lim cho'zila-di. Boburdagi tazarru, g'am-g'ussa, hasratning

Agar odamlarning ozodlikka intilgan o'sha davri bo'lmaganda, men hozirgi ruhiyatdagi shoir bo'lolmasdim.

turfa ranglarda tovlanishlari, Mashrabdagi olov, keskinlik, ulkan raddiya yoqadi menga. Lekin mumtoz yo'lda yozish istagim yo'q. Birinchidan, aruzda barmoqdan ko'ra ham qolip kuchli. Bu qoliplarga ko'ngildagiday fikrni singdirish uchun juda katta iste'dod va mahorat bo'lishi kerak. Buni uddalashimga ko'zim yetmaydi. Navoiy hazratlarining najjoriga o'xshab kulgili holatga tushgim kelmaydi.

– Lirik asarlaringizda Go'ro'g'li, Alpomish, Oybachin, Tohir, Zuhro, dev, yosuman kabi bir qator folklor va mifologik obrazlar mujassam. "Qishning oxirlari" nomli dostoningizda ham xalq maqol, matal va iboralari, shevaga oid so'zlar ko'p qo'llanilgan. She'rlaringizda folklor va mifologiyaga xos unsurlarning namoyon bo'lishi bolalik davrlaringizdan xalq og'zaki ijodi namunalarini ko'p o'qiganingiz yoki tinglaganingiz natijasimi? Hozir ham folklor asarlarini mutolaa qilib turasizmi? Ulardagi qaysi jihatlarni asarlaringizda ifodalashga harakat qilasiz?

– Menga onam bolaligim-danoq realistik ruhda asarlarni o'qitgan. Asosan, harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi kitoblarni o'qiganman. Hozirgacha shunday mavzudagi asarlarni sevib mutolaa qilaman. Xalq og'zaki ijodini talabaligimda imtihon topshirish uchun o'qiganman. Bolaligimda deyarli ertak o'qimaganman. Hozir zarurat tug'ilganda o'qiyman. Menga xalq qo'shiqlarining jozibasi, so'zlarning latofati yoqadi. Dostonlardagi mubolag'a, romantika...

– Ijodingizda Bobur va Cho'lponga bag'ishlangan she'rlar talaygina. Bu ikki ijodkorning ayrim she'rlaridan parcha olib, naziramonand she'rlar ham bitgansiz. Bobur va Cho'lponga muhabbatigiz, ular ijodining ruhiyatingizga bu qadar yaqinligi boisi nima?

– Yuqorida ham aytdim: Boburdagi hasratlar, sog'inch, pushaymonlik hislari menga yaqin. Cho'lpondagi "Kishan kiyima,

bo'yin egma" tarzidagi jasorat, boshi kundaga qarab ketayotganini bilsa ham, aytar so'zini aytavergani, dovyurakligi, botir she'riyati yoqadi. Mening ham dilimda ularning dilidagi og'riqlarga hamohang og'riqlar yashaydi. Shuning uchun ularning satrlarini, ismlarini she'rlarimga olib kelaman. Obro' qozonish uchun emas, ularning nomlari bilan shuhratga erishish uchun emas. Chindan ixlos, e'tiqod qo'yganman ularga.

– Shoirilar ijodi o'rganilganda, kimdir ko'proq barmoq vaznida, yana kimdir erkin vaznda samarali ijod qilganini kuzatishimiz mumkin. Siz uchun qaysi vaznda kechinmalarni ifodalash qulay? She'riyatdagi vaznsizlik masalasiga munosabatingiz qanday?

– Men ko'proq barmoq vaznida yozaman. Qo'limdan kelgani shu. Lekin barcha vazndagi she'rlarni, agar ularda soxtalik, yasalilik, zo'riqish bo'lmasa, qabul qilaveraman. Vaznsizlik masalasida ham fikrim shu: bu usulda she'r yozish, aslida, biror vaznda yozishdan ham qiyin. Chunki qofiya, ohang va boshqa unsurlar ma'lum ma'noda she'rni she'rga o'xshatib turadi. Vaznsizlikda bu vazifani ham fikr bajarishi kerak. Fikr nihoyatda quyuv, qurch, jips bo'lishi kerak. Juda aqlli shoirlargina vaznsizlikda yaxshi she'r yoza oladi. Shoirning no'noqligi, o'qimagani, didsizligi vaznsizlikda yaqqol ko'rinadi. Shu bois bu vaznda o'ylab yozish kerak.

– Adabiyotda badiiylikka san'atning bosh xususiyati deb qaraladi. Badiiyligni ma'lum kategoriyalar bilan chegaralab bo'lmaydi. Chunki u har bir iste'dodli ijodkor tomonidan o'zining yangi qirralarini namoyon qiladi. Ammo badiiyligning ham umumiy va xususiy jihatlari mavjud. Shoir sifatida zamondosh yozuvchi-shoirilar ijodini kuzatib borishingiz tabiiy. Nima deb o'ylaysiz, hozirgi o'zbek she'riyatida badiiyatni qanday omillar tashkil etadi?

– She'r, har qanday sharoitda ham, san'atning bir ko'rinishi. Unda faqat quvonchlar emas, og'riqlar ham, hasratlar ham chiroyli ifodalanishi kerak. Nima uchun Bobur hazratlarining qayg'u suviga qalam botirib yozilgan ruboiylarini o'qiganda odamning o'lgisi emas, yashagisi keladi? Chunki juda jozibali yozilgan. Bugungi she'riyatning badiiyatini bir qolipga solib baholab bo'lmaydi. Har bir shoir alohida bir hodisa. Demak, ularning she'riyatidagi badiiyat ham rang-barang. Agar biroz umumlashtirib aytadigan bo'lsak, ritorikadan ancha uzoqlashdik. O'qiganimizda "Zo'r aytib qo'yipti", deb yuboradigan she'rlarimiz ko'p. Faxriyor, Halima Ahmad, Nodira Afoqova, Oydimniso, Muhayyo Rustam qizi... Bulardan keyin Guljamol Asqarova, Gulnoz Mo'minova kabi shoirlarning chiroyli shakliy izlanishlari bor. Najmiddin Ermatov, Shahriyor Shavkat, Suhrob Ziyoy, Madina Norchayeva, Nargiza Odinayeva kabi yoshlar ijodidagi poetik topildiqlardan quvongan holda, ularning ba'zi tengdoshlaridagi shakliy yangiliklarni yaltiroq suvqog'ozga o'ralgan narsalarga qiyoslagim keladi. So'zlarini ko'rasiz-u, nimaligini anglolmaysiz. She'riyat yalang'och bo'lmasligi, lekin krossvord ham bo'lmasligi kerak. O'qigan banda loqal aytilayotgan narsani qalbi bilan his qila olishi kerak.

– Sizni ko'proq qanday voqea-hodisalar ilhomlantiradi? Yangi she'rlaringizning ilk o'quvchilari kimlar? Ijod jarayonida bir asaringiz boshqa asaringizni yaralishiga turtki bergan holatlar bo'lganmi?

– Meni ko'proq shaxs erki, yurt ozodligi mavzusidagi she'rlar o'ziga tortadi. Shoirning o'ziga nisbatan raddiyasi, o'zini o'zi qabul qilmasligi... bu mavzu ham menga begona emas. Mening Cho'lpon nomi bilan bog'liq she'rlarim bir-birining davomiga o'xshaydi. Shu kechinmalar ichida yashash o'zimga yoqadi. Ta'sir sababi ham shu bo'lsa kerak.

Suhbatdosh: E'zoza BOZOROVA

Raimqul SUYAROV

1984-yili Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetining O'zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan. "Riza", "Farzand", "Oy to'lgan kecha", "Ota", "Xayrlashuv", "Qovun pishig'ida", "Temir daftar" kabi hikoyalari chop etilgan.

Bo'ynoq

Hikoya

Ahmad ko'sa o'lguday gajir odam. Bir gapni ushlab oldimi, tamom, uncha-munchasiga ko'nmaydi. O'ziga o'xshagan bir-ikkitasini aytmasa, hech kim u bilan gap talashmaydi. "Ke, qo'y, shu bilan baravar bo'lamanmi", deya unga atay, sizniki to'g'ri, deb battar shishiradi.

Ko'sani odamlarning o'zi yomon o'rgatgan. Haqmi-nohaqmi, aytganini ma'qullayvergach, taltayadi-da. "Mana bu joyda adashyapsan, unday emas, bunday", deganlar baloga qolgan. Ustiga ustak, Ko'sa o'ta kekchi odam. Ba'zan davralarda kimdir paytini poylab mot qilib qo'ysa, sirayam esidan chiqarmaydi. Ko'nglida saqlab yuraveradi, alamini olmaguncha qo'ymaydi. Gap talashib ranjitganlar bilan ko'pincha gaplashmay ham qo'yadi.

Xullas, Ahmad ko'saning bo'lgan bo'ldig'i shu. Omon rais aytganiday, uning loyi shunday qorilgan, o'zgartirib bo'lmaydi.

Ko'saning qishloqda yomon ko'radigan odamlari bor. Lekin eng yomon ko'rgani – hamsoyasi Tursun qoraning xotini Bo'stonoy. Shu xotin kelin bo'lib tushgandan beri yomon ko'radi. Aytishicha, yangi kelin uni ko'rib ko'rmaslikka olib, salom bermagan ekan. Kim bilsin,

balki salom bergandir, Ko'sa eshitmagandir. Lekin Ko'saning qo'shib-chatib gapirish odati ham yo'q emas.

Ko'sa bilan Tursun qoraning uyi o'rtasida devor ham yo'q. O'rtadagi chegara har yili ustiga tok novdalari bosilaverib, tuprog'i uvalanib ketgan uvat. Ikkalasining ham kattagina tokzori bor emasmi, yillik novdalar bog'lanib, uvat bo'ylab taxlab chiqiladi. Undan tandir-o'choqqa tutantiriq uchun ham olish mumkin emas, bunga ikki taraf ham birday amal qiladi. Sababi, chegara buzilmasin, bir-birovining tomorqasiga mol-holi o'tib ketib, baqir-chaqir bo'lmasin!

Bir-yarim uvatning pastqamroq joylaridan Tursun qoraning qo'y-echkilari o'tib ekinlarni payhon qilganida qo'shnilar ancha vaqtgacha arazlashib yuradi. Ko'saning bittagina sog'in sigiri bor, xolos. U qo'shni tugul, egasining tomorqasigayam mo'ralamaydi. Ko'saning tili bilan aytganda, nas sigir. Yolchitib yemish ham yemaydi, sut ham bermaydi. Dashtga haydab qo'yib kelsa, orqasidan yetib keladi. Buzog'ini qizg'anadi. Buning bari Ko'saga alam qiladi. Qaniydi, o'n besh-yigirma chog'li qo'y-ech-



kisi bo'lsa-yu, qo'shni tomorqadagi ekinlarni payhon qilsa, xuddi unikidek payhon qilganida bungayam alam qilmasdi...

Bu ham yetmaganday, Tursun qoraning tovuqlariyam Ko'saning g'ashiga tegadi. Birinchidan, bari semiz, lapanglab-lapanglab yurishiga qaraganda, katta-katta tuxum qo'ysa kerak. Xo'roziga-ku gap yo'q! Bir o'zi o'nta tovuqni bermalol eplaydi. Ba'zan Ko'saning tovuqlarigayam kuchini ko'rsatib ketadi. Bu atrofda unga teng keladigani yo'q, Ko'saning qizg'ish xo'rozini ham bir cho'qishda qochirgan.

Ikkinchidan, Ko'sa shu tovuqlar sabab tuzuk ekin-tikin qilolmayman, deb o'ylaydi.

Lekin o'zi ishyoqmasligini tan olmaydi. Bahona-yu sabab esa tayyor – suv yo'q, hamsoyaning tovuqlari dastidan dod! Vaholanki, ariqdagisi suv to yozgacha tinimsiz oqadi. Tovuqlarni har kuni "kish-kish"lab yurgani ham yo'q.

Bo'stonoyning tovuqlari onda-sonda qarovsiz qolsa, shundagina hamsoyaning tomorqasiga o'tib ketadi. Bir kuni o'z-o'zidan chipor xo'rozi yo'qolib qoldi-yu, tovuqlarini katagidan chiqarmay qo'ydi. Xo'rozni qancha izlamasin, baribir topisholmadi. It yoki mushuk yegan desa, pat-mati ham chiqmadi.

Oradan o'n kunlar o'tgach, Bo'stonoy yana tovuqlarini hovliga qo'yib yuboradigan

bo'ldi. Bir kuni kechki payt tovuqlarini haydab, katagiga kiritmoqchi bo'lib qarasa, yana bitta tovuq yo'q. Bola-chaqasi bilan qidirishga tushdi. Tokzor oralari ham, qo'ra-qo'ton ham, qo'ni-qo'shniniki ham qolmadi. Tovuq hech qayerdan chiqmadi. Chipor xo'roz kabi pati ham topilmadi...

Avvaliga buni hech kim Bo'ynoqdan ko'rmasdi. Chunki Bo'ynoqning tovuq ushlab yeyish odati yo'q edi. Har doim tovuqlar uning oldidan bemalol o'tib-qaytib yurar, Bo'ynoq qayrilib ham qaramas edi. Hammasi Ko'saning bog'iga suv olish navbati kelganida boshlandi. Bo'qqa qiyalab oqib kirgan ariqning suv yuvib, kichikroq kamar hosil bo'lgan joyidan o'sha yo'qolgan tovuqning qora patlari oqib chiqdi-yu, buni Ko'sanikida o'ynab yurgan Tursun qoraning qizi ko'rib qoldi. Qiz qurmagur darrov borib, ko'rganlarini onasiga aytdi. Bo'stonoy ham shu zahoti lapanglab yetib keldi. Qarasa, xuddi shu, o'zi tuxumdan ochirib, jo'jaligidan katta qilgan qora tovuq'ining patlari. Jon-poni chiqib ketdi. Og'ziga kelganini aytib, shang'illay boshladi.

Qo'lidagi ketmon bilan tok jo'yaklariga suv tarayotgan Ko'saning xotini Rohila nima qilishini, nima deyishini bilolmay qoldi.

– Sizgayam, xo'jayiningizgayam necha marta aytdim, shu o'lgurni bog'lab qo'ytinglar, bir kunmas bir kun bir narsani boshlaydi. Yo'q, gapimni bir tiyingayam olmadinglar. Mana, tovuqlarimni yeb boshlapti, xo'rozniyam shu go'rso'xta yegan. Endi bir harom it uchun tovuq boqolmas ekanmizda-a? Ha, men buni shunday qoldirmayman, hali ko'rasiz, bu it bo'lganiga pushaymon bo'ladi. Tovuqlarimni yegan tishlari bitta qolmay to'kilib ketadi...

Rohila "Balki tovuqlaringizni Bo'ynoq yemagandir", demoqchi bo'ldi-yu, befoйда ekanini o'ylab jim qoldi. Bo'stonoy uning gaplarini eshitadigan ahvolda emasdi. Chipor xo'rozi-yu, semizgina qora tovuq'ini yeb qo'rgan Bo'ynoq va shunday la'nati itni boqib, katta qilgan hamsoylariga bo'lgan nafrat uning ko'zlarini ko'r, quloqlarini kar qilib qo'ygandi: yarim

soatlar chamasi iyagi tinmadi. Itni qarg'ay-qarg'ay iziga qaytayotganda yo'liga ko'ndalang bo'lgan qiziga ham o'shqira ketdi. Qiz qo'rqa-pisa onasidan oldinga o'tib uyga qarab chopdi.

Baqir-chaqir tingach, Rohila ham es-hushini yig'ib uyiga keldi va dahlizda sirli satildan muzday suv olib simirayotgan eriga:

– Bugundanoq Bo'ynoqning bo'yniga zanjir soling. – dedi.

Panaroqda hamma gapni eshitib bo'lgan Ko'sa:

– Zanjir-panjir solinmaydi. – dedi qo'lidagi kosani tokchaga qo'yarkan hansirab. – Bo'ynoq birovning tovuq'ini yeydigan itmas. Bunday qiligi yo'q.

– Menam shunday o'yladim. – dedi Rohila. odatdagiday, erining gapini ma'qullab. – Lekin Bo'stonoy boshqacha o'yda.

– Tiling yo'qmi sening, ahmoq? Nega indamaysan, nega hamma gapini jim eshitib turaverasan? Hoy, gapingni sal o'ylab gapir, aniq ko'rdingmi yoki ushlab oldingmi, demaysanmi? Bu atrofdan biznikidan boshqa it yo'qmi, nima, ariqdan tovuq'ining pati oqib kelsa, Bo'ynoq aybdor bo'lishi kerakmi? Axir, itning fe'lini o'zing yaxshi bilasan, faqat oldiga qo'yilgan ovqatni yeb o'rgangan.

...Bo'ynoq hovli adog'idagi eski molxona devorlari ichidan g'ingshib-g'ingshib chiqdi-da, tandir ayvon orqasiga zo'rg'a sudralib o'tib ketdi. Ko'sa sekin itning ortidan yurdi. It tezda holdan toyib loyxandaqqa yetganida yotib qoldi. Ko'sa qo'rqa-qo'rqa itiga yaqinlashdi va soviy boshlagan oyoqlarini ushlab ko'rib darrov hammasini tushundi. It jon berayotgandi. Ko'sa azoblanayotgan itiga ich-ichidan achinib, uning ko'zlariga qaradi. G'ira-shira qorong'ilikda itning chala yumuq ko'zlaridan yosh sizib chiqar, u egasidan so'nggi bor najot kutayotgandek yotar edi. Ko'sa yig'lamoqdan beri bo'lib qadrdon itining boshini siladi va alam bilan so'kindi: "He, enangdi... qanjiq!". It ko'zlarini kattaroq ochib qaradi, egasining so'kinayotganiga o'zicha izoh izladi...

Ko'sa Bo'ynoqni uyidan quyiroqdagi jarga ko'mib qaytarkan, "uh'ladi g'azabdan ko'zlari kosasidan chiqquday bo'lib.

– Erkak bo'lganingda-ku, o'zim bilardim, nima qilishni. Ayolsan-da, ayolsan!

Ko'sa bir-ikki kun nima qilarini, o'zini qayerga qo'yarini bilmay yurdi. Turganda ham, o'tirganda ham Bo'stonoyning go'riga g'isht qaladi. Bo'ynoqqa dori bergan qo'llaring uzilib tushsin, deya qarg'adi. Bo'stonoyning chizgan chizig'idan chiqmaydigan Tursun qoraning ham sha'niga aytilmagan so'z qolmadi.

Kunlar o'taverdi. Asta-sekin Bo'ynoq bilan bog'liq tuyg'ulari unutildi. Lekin Ko'saning ko'nglida alam qoldi. Bo'ynoqni esladi deguncha bir narsa o'rtaydi. O'ylab-o'ylab, oxiri bir qarorga keldiki, shunday qilsa, ichidagi o't o'chadigandek, alam bosiladigandek edi.

U bir kuni sahar turib, Cho'nqaymishga yo'l oldi. Kun qizimasidan toqqa yetib olay, degancha eshagini niqtashdan to'xtamadi. Tushga yaqin otaqadrdoni Hamdamnikiga yetib keldi. Ko'sa Hamdamga Bo'ynoqning o'lganini aytmadi. To'g'rirog'i, aytishga uyaldi. Unga bitta qanchiq kuchukcha topib berishini iltimos qildi. Buni eshitib Hamdam ichida kulib qo'ydi. Ko'saning niyatini o'zicha tusmol qildi: "Qishlog'ida bo'ynoqchalarni ko'paytirmoqchimi?..."

Birgalashib cho'pon oshnalarinikiga boshladi. Cho'pon endi ko'zi ochilgan kuchukvachchalarni ko'rsatdi. Ko'sa xuddi Bo'ynoqdek, bo'yni oq bir kuchukvachchani tanladi, cho'ponlar unga oshirib-toshirib ta'rif berishdi. Zotini xo'b maqtashdi.

Shundan so'ng Hamdam bilan xayr-xo'sh qilib, ortiga qaytdi.

U kuchukvachchani goh eshagining xurjuniga solar, goh xurjundan chiqarib, oldiga olar ekan, yosh boladay quvonib, bir gapni takrorlardi: "Endi Bo'stonoyning sho'ri quriydi, endi unga ko'rsataman!"

Ko'sa ayni poda qaytar mahali uyiga yetib keldi. Rohila uning qo'lidagi kuchukvachchani ko'rib, avvaliga hayron bo'ldi. Ko'sa toqqa

cho'ponlar qishlog'iga borib-kelganini aytgach, tushundi. Kuchukvachchanning Bo'ynoqqa kelbat berishi o'tgan voqealarni eslatib yubordi.

Ko'saning kenja qizi Nursuluv hammadan ham xursand bo'lib ketdi. Kuchukchanning boshidan silab erkalar ekan: "Bo'ynoqqa o'xsharkan, shunday ot qo'yamizmi?"

– Yo'q, qizim, – dedi Ko'sa xo'rsinib. – Bu kuchukchaga boshqa ot qo'yishimiz kerak.

– Xo'sh, nima bo'ladi?

– Mastonoy mos tushadi, qizim. Mastonoy, deb chaqiramiz!

– Mastonoy! Bo'stonoy xolaning otiga o'xshab ketarkan-a..?

– O'xshasa o'xshar, lekin kuchukka juda yarashadi.

Bo'stonoy hamsoyasining kuchuk asraganini, Mastonoy deb ataganini ertasi kuniyoq qizidan eshitib, hang-mang bo'lib qoldi. Ayni toltushdagi manzara esa uni battar esankiratdi...

Bo'stonoy tut shoxiga osilgan suzma xaltadan chakki olib, chalob qilayotgan edi. Birdan ko'zi tokzor bilan anjir orasidagi uvat bo'ylab ketayotgan, yozda tokzorlarda, qishda qo'rayu qo'tonlarning tommlarida yashab yuradigan yovvoyi kattakon malla mushukka tushdi. Mushukning og'zida bir oq tovuq bor edi. U pastga, Ko'saning tomorqasi boshlanishidagi o'sha kamarga qarab yugurmoqda. Bo'stonoy hay-haylaganicha shu tomonga qarab zipilladi. Hadik olgan mushuk sakrab-sakrab, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Tok novdalari bosilgan uvatdan o'tayotganida og'zidagi tovuq tushib qolgandi. Bo'stonoy urinib-surinib kelib ko'rsa, qonga belangan oq tovuqning allaqachon joni uzilgandi.

Shu onda Bo'stonoyning ko'z o'ngiga birdaniga Bo'ynoq paydo bo'lib, ichidan bir narsa uzilgandek bo'ldi. Xayolidan "Bo'ynoq aybsiz ekan, nohaq uning joniga jabr qilibman", degan o'y o'tdi. U mushukning og'zida jon bergan oq tovuqni titroq qo'llari bilan kamarga irg'itib, ortiga qaytdi va sal yurib, tuprog'i uvalanib ketgan chordevorga suyanganicha o'tirib qoldi.



Otabek RAHIM

2001-yili Xorazm viloyatida tug'ilgan. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti talabasi. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi (2024).

Onamga maktub

Badia

"Men sizni yaxshi ko'raman..." Bu gapni juda ko'p aytadigan bo'ldim. Ba'zida qo'ng'iroq qilib, ba'zida esa yonma-yon yurib. Eng alamlisi, bu izhorni siz emas, bugun bor-u ertaga yo'q tannoz qizlar eshit-yapti, xolos...

Bilasizmi, sizning yuragingizdek yurak yo'q bu dunyoda. Har gal sizning o'g'lingiz ekanimdan faxrlanib ketaman. Yaxshiyamki, mening onamsiz. Yaxshiyamki, sizning o'g'lingizman!

"Men sizni yaxshi ko'raman..." Siz hech qachon meni "Otabek" deb chaqirmagansiz, "bolam" ham demaysiz. Ismim va shu so'zni bitta qilib aytib qo'ya qolasiz: "Otabek bola-jonim". Bilasizmi? Yo'q, bilmaysiz! Afsus, bilmaysiz qanaqa kuch-qudratga egaligingizni...

"Men sizni yaxshi ko'raman..." Dadamning aytishicha, ozgina betob bo'lib qolibsiz. So'nggi kunlarda bekorga tushlarimga kirmayotgan ekansiz-da. Shuni kecha qo'ng'iroqlashganimizda bir og'iz aytmadigiz ham. Balki Toshkentda o'qib yurgan bolam meni o'ylab siqilmasin, degandirsiz... Doimgidek faqat mening ahvolim bilan qiziqdingiz:

- Qorning to'qmi, Otabek bolajonim?
- Ha, qornim to'q, xavotir olmang, ona...
- Ijara pulingni to'laganmisan?
- Ha, to'ladim...
- Kontrakting esingdan chiqmasin-a?
- Esimda, ona, esimda!
- Shoir, yozyapsizmi?
- Ha, volidam, yozyapman.
- Ha, unda dadangizniyam bir joylarda yozib o'tib keting, u zimdan sizni kuzatadi, lekin sezdirmaydi...

- Dadamning o'tgan faromush hayoti uchun roman yozsam arziydi... Agar kun kelib nasrda nimadir yozsam, albatta, dadamga atalgan bo'ladi, onajon! Qanday qiyin kunlarni o'tkazdig-u boshimizdan...

- Eslamaylik, bolam!

Ha, siz bu haqida gapirishimizni, eslashimizni umuman xohlamaysiz. Oilamiz uchun nihoyatda og'ir o'tgan o'sha kunlarni eslasam, Muhammad Yusufning bir misrasi yodimga kelaveradi:

Boshga kulfat tushgan kunda sherigin
Tashlab ketmas ekan quzg'unlar hatto!

Bilaman, onajon, bilaman... O'sha kunlarni tilga olish, xotirlash juda og'ir, hammamiz uchun ham og'ir. Balki menga o'sha kunlarni yozishim uchun ham Xudo qo'limga qalam bergandir, balki o'sha qora kunlar meni shoir qilgandir...

"Men sizni yaxshi ko'raman..." Qo'ng'iroqsoch singlim yaxshimi? Uy ishlarida yordam beryaptimi?

O'ylayman: u ham o'zimdek, ukamdek juda sodda! Ha, onajon, bizni juda sodda qilib tarbiyalagansiz, bunga poytaxtda yurib ko'p bora amin bo'lyapman. Singlimning yurish-turishiga... iltimos... albatta, e'tiborli bo'ling.

"Men sizni yaxshi ko'raman..." Bu so'zni qancha qizga aytganimni bilmayman, ammo shuni aniq bilamanki, sizga aqalli bir marta yuzma-yuz turib aytmaganman. "Ko'zlaring aytadi hammasini", deyishingiz mumkin. Ha, ko'zlar aldamaydi... Ayniqsa, shoirning ko'zlari! To'g'risiyam-da, yuragimdan nima o'tayotgani, barmoqlarim qanday qaltirab yozayotgani, ko'zlarimga yosh ilingani, sog'inch qalbimga qanday og'ir toshni uloqtirayotgani bir o'zim, bir Xudoga ayon...

"Men sizni yaxshi ko'raman..." Shu gapni qayta-qayta xayolan aytyapman-u, yuragim battar orziqib ketyapti... Meni afv etishingizni xohlardim, kechiring meni, ona... Boshqa odamlarning bolalari kabi sizni baholi qudrat parvarish qilolmayotganim, faqat o'qish-o'rganish, adabiyot, so'z orqasidan yugurib yurganim, sizga vaqt ajratolmayotganim uchun kechiring...

"Men sizni yaxshi ko'raman..." Bu muhabbat hech qachon zavol bilmaydi, sizdan olisda bo'lsam ham yuragimda gurkiraydi, ildiz otadi, battar teranlashadi.

Baxtinga hamisha omon bo'ling, deb sizni sog'ingan o'g'lingiz Otabek!



Shohista ERGASHEVA

1997-yili Sirdaryo viloyati Yangiyer shahrida tug'ilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olgan. "Birinchi kitobim" loyihasi asosida "O'n sakkizim" nomli she'riy to'plami chop etilgan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi.

Mening qovurg'amdan qalam yaraldi...

Urush ayoliga

Yohu!.. Tug'ilgandan beri yashayman.
Men o'zi nimaman, men o'zi kimman?!
Hanuzki vujudim ruhimga dushman,
Magar inson bo'lsam, nimaga jimman?!

Men bayram qilaman, mushak otaman,
Ovozidan bolam uyg'onar cho'chib.
Menda mushakbozlik, senda o'qbozlik,
Yig'laysan, chalajon bolangni quchib.

Mehrga to'yimsiz, ishqqa to'yimsiz,
Bedor ko'zlarimgan uyqu oqmoqda.
Ko'zyoshing tugadi eng zarur onda
Dilbanding samoga jonsiz boqmoqda...

Kutmal.. Motam tutib yig'lashmas hech kim,
Yig'lasa ham sendek bo'lmaydi xunob.
Dunyo ko'zlaridan oqayotgan suv
Timsah ko'zyoshidek yolg'on va sarob.

E voh! Dunyodoshim, ayri dindoshim!
Ne desam, bu ko'ngling g'amdan tin olar?
Mening tinch yurtimda, obod yurtimda
Urush bo'lmasa ham o'ldi bolalar...¹

Bolang jasadidek sovidi ko'nglim,
Dunyo arzirmidi kelib ketgani?
Gunohkor dunyodan begunoh ketdi!
Tuproqni yanada xushbo'y etgani!

¹ 2023-yili dori vositalaridan zaharlanish oqibatida vafot etgan 96 nafar go'dak nazarda tutilgan.

"Sen odam emassan!" – dedi ayolga,
Unga sezdirmasdan darz ketdi ayol.
Ilk daf'a Robbisin tutib savolga,
"Kimman?", – deb Xudoga arz etdi ayol.

– Ayol kim?
– U kofir, irqini¹ qirqib,
Joniga qasd qilgan do'zaxiy g'ilmon.
– Ayol kim?
– U Qodir Xudodan qo'rqib,
Jimgina o'limin kutgan musulmon!

Zotan, kimga qiziq sening kimliging?
Shu chirkin dunyoga ravosan, ayol.
Sen odam emassan...
Odam emassan!..
Sen, Odam emassan,
Havvosan, ayol!

¹ Irq – tomir (arabcha).

Majnunimga

Fanoda sang'ib yurdim, Tangrim yor qilmaguncha,
Gunohkor bo'laverdim, gunoh kor qilmaguncha,
Yo Ollohim, so'rayman, nazarimni to'q qilgin,
Toki Majnunim meni nazarga ilmaguncha.

Qaraganga qaradim, haqorat oldi ko'zim,
Tangrim bergan darslardan mahorat oldi ko'zim.
Kelganingda yuzingga bir bor termulmoq uchun
Haq yo'lida yosh to'kib, tahorat oldi ko'zim.

Tangrim qagnusqalb berdi, ishqingda kuymoq uchun,
Qog'oz va qalam tutdi, g'iybatdan tiymoq uchun.
Yaratganning ishqidan sabab izlamang zinhor,
Robbimga sabab shartmas bandasin suymoq uchun.

Bir kun kelib poyingga yiqilguncha yashasam,
Ovozlaringda ismim, o'qilguncha yashasam.
Bir qum zarra bo'lsam-u poyingni tavof etsam,
Tovoningdan to yerga, to'kilguncha yashasam!

Ey ishq ahli, mening ham boshimni silab o'ting,
Shu uzilgan jonimni, joniga ulab o'ting.
Men ishqida ming o'lib, ming bor tirilgunimcha,
Majnunim kelmas bo'lsa, o'limim tilab o'ting!..

Anglam

Quldan ziyod qul edim men – taxt chalg'itdi,
Yolg'izga yor edim – yolg'on ahd chalg'itdi.
Uchsiz qalam va uchqur dard berdi Xudo,
Yaxshi shoir bo'lar edim – baxt chalg'itdi.

Sochlarim rangini unutsin ochun,
Chalg'idim, chalg'imag sevganim uchun.
Dini nokomildan ranjiyin nechun?
Ki, Shayx San'onni tarsoyi raxt chalg'itdi.

Aytimlar

"Yaral!" – dedi Rahmon, Olam yaraldi!
Odam yaralgan kun, alam yaraldi.
Sening qovurg'angdan yaratildim men,
Mening qovurg'amdan qalam yaraldi!

Ohki, bilmam nening kasridaman men?
E voh, jahannamning qasridaman men.
Bilmay taqiq meva yemish Odamim,
Hanuz shu gunohning ta'sirdaman men...

Tuproq aro urug' edim, do'nib bo'ldim,
Ko'zyosh bilan sug'ordilar unib bo'ldim.
Savobimni gunohimdek sevmadi Rab,
Avval gunoh qildim, so'ngra Munib bo'ldim.


Kuzak yaprog'idek g'oyat mo'rt sevgi,
Gunohim poylagan ko'zi to'rt sevgi,
Mening yuragimni yemirayotir
Ayyubning tanini yegan qurt – sevgi.

Loyqalangan suvlar, tiningiz ortiq,
Darz ketgan ko'ngillar, siningiz ortiq,
Bitmaydi deganim – sevgilar bitdi,
Bitmadimi Sizning xuningiz ortiq?

Irmoqlar dengizga oqib yig'laydi,
Chechaklar quyoshga boqib yig'laydi,
Quyosh ham o'zini yoqib, yig'laydi.
Men kimga yig'layman...
Kimga yig'layman?!

EHTIROSLAR OLOVI

ICHRA ARZI HOL




Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Qahramoni

1937-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1961-yilda hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining Filologiya fakultetini bitirgan. "Do'stlik" hamda "Mehnat shuhrati" ordenlari va "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. "Go'zallikning olmos qirralari", "Joziba", "Yonar so'z", "Yam-yashil daraxt", "She'riyat izlanish demak", "Dil erkinligi", "Hayo - xaloskor", "Mangu latofat", "Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish", "Tarjima nazariyasi", "Ayyub nidosi", "Oltin qoziq" singari kitoblari nashr etilgan. Jahon adabiyotining yirik namoyandalari Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz", "Alvido, qurol", Gi de Mopassanning "Azizim", Fyodor Dostoyevskiyning "Telba", "Jinoyat va jazo", "Qimorboz", "Iblislar", "Aka-uka Karamazovlar", "Ayrilmas er", Chingiz Aytmatovning "Qiyomat", "Chingizxonning oq buluti", Gabriel Garsia Markesning "Buzrukning kuzi", Jeyms Joysning "Uliss" kabi asarlarini o'zbek tiliga o'giran.

Farida AFRO'Zning to'rt jildlik tanlangan asarlar to'plamini o'qib

Men bu maqolani arzi hol tariqasida yozmoqchiman. Kecha – bugun qaysi va qanday kitoblar o'qiyotganimning arzi holi – arzi hol deganimda bu yerda men iqrorlarim va izhorlarimni nazarda tutaman. Shunda "men" deb o'z nomimdan, o'z shaxsim buyurganlarini bayon qilishim tabiiyroq chiqsa kerak, deb o'ylayman. Men kecha shoir va adiba Farida Afro'zning to'rt yirik kitobdan iborat asarlarini birma-bir o'qib chiqdim. Har bir kitobiga alohida-alohida nomlar berilgan: **"Meni kuting..."**, **"O'zimni sog'inib..."**, **"O'limi yo'q hayot..."** va **"Pardani ochaylik..."**. Bu har bir nomdan keyin muallif atay uch nuqta qo'yganga e'tibor berdim. Ular menga barcha jildlarni birma-bir o'qib bo'lgach, oddiy ko'p nuqtalarday bo'lib tuyilmadi. Bu uch nuqtalar orqasida muallifning ko'ngli tublarida saqlangan va juda sir tutilgan orzulari qulf urib turganday tuyildi. Bular "ko'ngil orzulari fido o'shanga" degan gay bir mashhur misrada saqlanib qolgan va har eslanganda, odamning yuragini bezovta qilib, allaqayoqlarga boshlab ketadigan "ko'ngil orzulari". Yana bu uch nuqtalarda kitoblarning har birining alohida tizim va kompozitsiyaga egaligiga nozik ishora ham kiradi, yana bu uch nuqtalarga adabiyot va inson hissiyotlarining tubsizligi va o'z rang-u bo'ylariga oluda ekanligi ham, sukun va sukunat rahmati ham aks etadi. Skeptik o'quvchim: "Obbo, shunchalar ma'no-larga boy ekanmi bu ko'p nuqtalar, ular qaysi kitoblarga ochsangiz, hammasida to'lib-toshib yotibdi-ku, lekin biz ulardan shunday ekzistensial ma'nolar uqishimiz kerakmi, yopirim-ey, bu shartmi?" – deydi. albatta. Lekin men barcha ko'p nuqtalarning o'z

xos stilistik ma'nolari borligi va ular aslo bir-birlariga o'xshamasligiga to'la qanoat hosil qilganman. Bir sirni aytib o'tay: "Ko'p nuqta" degan asar ham yozmoqchi bo'lganman. U ko'p nuqtalarning inson hayotida nihoyatda ramziy ma'nolarga to'liqligi haqida yozilishi kerak edi. Lekin bu yerda hali ijodiy amalga kirmagan ish haqida cho'zilib o'tirishning o'rni emas. Ko'pnuqtalar dunyoning aytilmay kelayotgan barcha ma'no-mazmunlarini ifoda etishiga shak-shubha yo'q... "Meni kutgil" degan dunyo she'riyatida juda mashhur she'rni bilmagan, eshitmagan va undan hayajonga tushmagan odam yo'q bo'lsa kerak. Lekin, mana, bizning zamondosh, safdosh (sal bo'lmasa, trafaret bo'lib qolgan "suyukli shoiramiz" deb yuboray debman) muallifimiz o'zining birinchi jildiga "Meni kuting..." deb nom qo'ygani va jildni xuddi mana shu nomdagi she'ridan boshlagan: *Meni kuting, Yengilib boryapman siz tomon, Tobeman, taslimman, mag'lubman. Sog'inchning lashkari beomon, Sog'inchning qo'lida mahbusman.*



Yopiray-ey! "Meni kuting..." nihoyatda oddiy va odmi qilib aytilgan so'zdan so'ng unda hatto o'quvchi kutishi mumkin bo'lgan iltijo, yolvorish, nolish, va'daning qat'iyati ham yo'q. Muallif haqiqatan juda odmi qilib "Meni kuting..." deyapti. Ammo bu jo'ngina murojaatdan keyin kelayotgan satrlar va har uchala band o'ta favqulodda, o'ta kutilmagan va o'ta hech tasavvurga sig'maydigan! "Meni kuting, Men nodon ko'nglimga bo'ysunmay, O'yladim, aqlida xatar yo'q. Va bildim, bu jangda yo'q maydon, Bildimki, sevgida zafar yo'q!"

Yopiray-ey! Bandning uchinchi misrasidagi "bildim" bilan to'rtinchi yakunlovchi satrdagi "bildimki"ning farqi bormi, yo'qmi? Hech farq yo'qqa o'xshaydi. Ammo juda katta – chek bilan cheksizlik o'rtasidagi mavjud farqdan ortiqroq farq bor. Biz keyingi jildlardan o'rin olgan muallifning barcha asarlarini e'tibor bilan o'qisak, u o'zini "bilish"ning "quli" darajasiga ko'targanini ko'ramiz. **U "bilish"ni sig'inish darajasida sevadi.** "Bilish" falsafa va falsafiy hol. Yuzaga kelganidan beri barcha falsafalar va barcha faylasuflar "bilish"ni tushuntirmoqchi bo'ladi va barcha cheksiz bahslarini unga bo'lgan qarashlarning xilma-xilligi asosiga quradi. "Bilish" haqida muhokama yuritmagan va bahs qilmagan faylasuf faylasuf emas. Shoiralar (misol uchun, Abul A'lo al-Maa'rriy) ularning dunyo tugaguncha tugamaydigan bu bahslariga istehzoli tabassum bilan qarab turadilar va "bilish" borasidagi tasavvurlari ulardan aslo kam emasligini lab burib ishora qiladilar va "bilish"da ular bilan xufyona raqobat qiladilar. Shoiramiz Farida Afro'z ham o'z asarlari barobarida shunday xufya raqobatlar ruhida fikr-bahslar yuritadi, ayniqsa, g'alati bir nom bilan jamlangan, atalgan "tasbehtar" degan she'riy turkumlarida va yana ayniqsa, tamomila erkin usulda yozilgan nasriy asarlarida. Muallif asarlarida bu holning turli daraja va yoyilmalarini, o'girmalarini go'zal va ehtiro-

sli bir tarzda har tomonlama namoyon qilib boradi. "Bilish" odamzod taraqqiyotida qachondan boshlangan, qayerda tamom bo'ladi? U hali bo'lmasdan ming, balki million yillar ilgari ham bor edi-ku. Odamlar million yillar ilgari, ayniqsa, hindlar vaqtlarni bo'laklar, ming yilliklarga bo'lib, xuddi xorazmliklar kabi ularni "ovonlar" va yoki xuddi zardo'shtiylar kabi "qarnu aqronlar" deb atagan ham edilar-ku. Bulardan bu yog'iga minglagan yillar o'tmasa, ular "aqron" va "ovonlar" bo'larmidi? Fales, Pifagor, Orfeydan boshlangan deb yurganimiz "bilish", balki bu yozuv chiqqandagi ilk yozuvli "bilish"dir. Ilohiy bitiklarda haddi kamoliga yetganmi? Kantda tugaydimi, Shopengauerdami, Homerdami, Nitschedami, qaerda "bilish" tugaydi? Axir, hamma narsaning boshi va oxiri bor-ku. Bilish – falsafaning, adabiyot va san'atning hech tugamaydigan ibtidosi va mana shu bugungi o'zbek shoirasining olovli hissiyotlarida o'quvchini lol qoldirib, davom etyapti. Farida Bo'tayeva "bilish"ga aslo befarq emas, aksincha, barcha badiiy muhokamalar, ehtiroslarini shu "bilish" asosiga quradi. Kecha Zulfiyaning bilishi, Muzayyana Alaviyaning bilishi va ko'ngil sirlariga to'la ishi bor edi va mana bugun shu soat, shu daqiqalarda u Faridaning dunyo va odamlarga munosabatida davom etyapti va yangi oltin qirralarini namoyon qilyapti. Va bizni "sevgida zafar yo'q"ligiga "maydon" yo'qlig-

«
Farida Afro'z ayrim asarlarida azaldan ma'lum gaplarni bir boshqacha, chiroyliroq qilib aytishni xo'b mashqini ham olganligi ko'zga tashlanadi.

giga ishontirib qaysidir massaget qirolichasi kabi dov bilan lol qilmoqchi. Yopirim-ey, "Bilish" ma'rifati Faridaning barcha asarlarini ma'rifatli bir nuqtaga olib chiqyapti, qachonlardan beri yonimizda shunday haqiqiy ma'rifat egasi yonib-kuyib yurganligi va biz uning yonishlaridan goh xabardor, goh bexabar yurganligimizni ma'lum nishon etyapti. Doim titrab, kuyib, ishq va mehr bilan (o'zi aytmoqchi) yozganligini har bir so'zida isbotini keltiryapti. Uning hayot kitoblari, donishmandlardan, xalq, turmush ichida yurib bilganlari unga bugun muallif sifatida cheki yo'q xazinaday xizmat qilmoqda. Uning donishmandlardan bilgani: **"Umr asli bir kundir, O'sha kun – bugundir"** (Muallifning punktuatsiyasini saqladik – I.G.)

Mana shu fikr ehtimol "bilish"ning cho'qqisidir (albatta, bilim va bilishda cho'qqi bo'lmaydi, cho'qqilar purviqor va ularga yetib borish qiyin). Jomolungma cho'qqisiga borishni orzu qilamiz, biroq borib ko'ring-chi. Ammo "bilish" bu nonday aziz va odamzotga juda yaqin narsa, bilishsiz odamzot shunday behad ilm-fan, texnikaga erisharmidi, Oyga qadam ranjida qilarmidi, Mirrixning, Yupiterning sath suratlarini olarmidi! Yana bir chekkasi odamning **purviqor bilimsizligidan** esa cho'qqilarning muzlari erib ketyapti, azal qutblarimizda muz qatlamlari ozayib boryapti, ibo o'rmini ibosizlik egallayapti, odamzot ibtidoiy yalang'och holiga omonsiz qaytyapti va eng mushkuli o'zini bunda haq va biz erkinmiz deb bilyapti. Faridaning: "Bolalikdan ketgim kelmadi, Ulg'ayishdan bezillar yurak", – degani, axir, bu bir emas, ming emas, balki bugungi milliardlarning qo'rqinchli fojiasi-ku! Shunday fojiaga insoniyat yetib kelganligini shoirasodda, lekin Oyga uchgan Hindning raketasiday omonsiz qilib ifodalab beryapti. Zamona va zamon so'zi shu-da o'zi. Faridaning fikri okeanlar tug'yonlarida "Bilish" teranliklarida misoli shoiras ham emas, balki shoiras-g'avvos. Uni okean, ya'ni hayot tubini bilishga misoli Iskan-dar payg'om kabi havasi cheksiz. Yopirim-ey!

Faridaning she'rlarida bilish darajasi balandligiga ko'ra "o'ylov" ham, **"o'ylov"** falsafasi ham nihoyatda rang-barang ifodalari va tashbehlarini topgan. Bu o'ylovlar uning she'rlaridagina emas, nasr namunalari, badiiy tarjimalarida ham juda ham ta'sirli ifodalarga boy. U xomxayollardan, befoyda nadomatlar, yozg'irishlardan o'zini tortadi, bularga she'ri va so'zini giriftor qilib qo'ymaydi. To'la inson psixikasiga xos bugungi dunyoning o'zgarishlarini ro'y-rost, dadil, tantilik bilan bayon etib etib boradi. "Bugun esa, bugun esa... bolaman, hechman..." deydi va yana bir (qaysi hisobda!) fojiali zamon sentensiyasi she'r ifodasiga aylanadi. Faridaning barcha asarlarida "bilish" va "o'ylov" dramatik, alamli mazmundorlik hamda hamohanglikka egadir. Bu ijodkorda juda qimmatli fazilatdir. Bu fazilat uning qahramoni, nasrdagi qahramonlariga va ayniqsa, Mirzakarim Norbekov, Alixon-to'ra Sog'unuy, Bahmanyor Sog'unuy singari qahramonlariga g'oyatda tabiiy xos xislat. Va bulardan tashqari ham uning barcha g'aroyib tole qutqularini yelkalab olgan qahramonlari (balki personajlardir, balki tarixiy ishtirokchilar, balki drama-komediyalardagi kabi qatnashuvchilardir) uchun ham fikrlash dramasi xos xislat bo'lib ko'rinadi (men atay xususiyat deb aytmayapman, shaxslarning xislatlarini nazarda tutyapman). Lekin "bosh qahramon" bu – shoiraning o'zi! Bosh qahramon barcha hollarda Farida Bo'tayeva, u o'ziga Afro'z deb taxallus ham olgan. "Qahramon" o'zi kim? U takrorlanmas qiyofaga ega. Unda teran xarakter shakllangan. Bu xarakterda davr, zamon ifodalangan. U universal yo'nalish kasb etgan "bilish", "o'ylov" muntazam badiiy ifodalanganiga ko'ra! U o'zini qudratli deb sezadi, u o'zini benihoya kamtar deb his qiladi. Orfey bir zamonlar olamning ibtidosi efir (havo!) va xaos (mutlaq bo'shliq!) deb ta'lim qoldirgan edi. Faridaning badiiy qahramonida mana shu efir va xaosning



birlashishi natijasida dunyoga kelgan ehtiros va hissiyot hukmfarmodir. Bu juda katta gapga o'xshaydi. Ammo to'rt jilddagi asarlarni o'qisangiz, aslo g'ayritabiiy tuyilmaydi. U o'tmishdan qolgan parchalar. Parchalarning parchalari. Atomlarning cheksiz ko'rinmas bo'laklarga bo'lingan zararlari. Shuning uchun u Navoiyga payrovlik qilib odamning aqlini shoshiradigan "mensizlik" haqida fikrlaganda, o'z "mensizligi"ni "Men" deb ataganda va shu "Men" nomidan voqealarni harakatga keltirganda, allaqanday suggestiv bir nimalar sahifalarning oppoq betiga qalqib chiqaveradi va bosh qahramonni bilish va o'ylovga tamomila g'arq-u xarob qiladi. Yopirim-ey!

Farida Afro'z ayrim asarlarida azaldan ma'lum gaplarni bir boshqacha, chiroyliroq qilib aytishni xo'b mashqini ham olganligi ko'zga tashlanadi. Ammo badiiy adabiyotda "bilish" bu oldingilarni mazmunan takrorlash emas. Lekin "bilish" nima qilsin, o'zi takrorini, Cho'lponcha aytganda, "takarrur"ni yaxshi ko'radi. Yuqorida andak tahlil qilingan she'rning qahramoni, ko'rdikki, kutish mashaqqati va intizorligi oldida ochiq taslim bo'ldi. Barcha sabot-matonatning qurol-aslahalarini tashladi. Sevgi zafar qozonish emas, taslim bo'lish, bor ixtiyorini sevgi ixtiyoriga topshirish, bu esa cheksiz

azob va lazzat va'dalari... Sizga bu yerlarda yana o'sha "mensizlik" namoyon bo'layotgandek ko'rinmayaptimi?

Ikki jildni to'la qamrab olgan she'rlarni o'qib va uqishga harakat qilib borarkansiz, Farida Afro'z qiyofasidagi qahramon o'z-o'ziga tinimsiz iztiroblar, azob-u alamlar yasab boradi, gullagan bog'larni huvillagan ovloq, xilvat bog'larga aylantiradi. Qasr-u saroylarda yashab turib xarobazorlarni qo'msaydi, mozoratlarni sog'inadi, ularda o'tgan, yodi muqaddas abo-ajdodlar yodini o'ziga ohanrabodek tortadi. O'zidan rozi bo'lmagan ruh to'xtamay yo'l bosib borayotganday, qadimiyat va qadimgilarning izlarini qidirayotganga o'xshaydi. Ekzistensial hissiyotlar quyunlariga g'arq bo'ladi. Chinqirib oqqan daryolarning girdoblariga o'zini otadi, halokatli muhitdan o'ziga najot qidiradi.

Bu faqat... shoirning ko'ngli faqat... davosiz va notavon... najot qidiradi. Yuragi zor-intizor titraydi, najot o'rniga esa boshqa narsa topadi: Dunyo safsataga to'lgan-u, biroq Senga kerak so'zni hech kim aytmaydi...

Shunda o'z holi holatiga eng loyiq va ehtimol o'ziga eng manzur so'zni tilga oladi: Allohim, ming yilki so'rayman qaqshab, Dunyo qaridimi, yo men qaridim?!

Bunday Faridada tez-tez qaytalab turguvchi holatlarni men "hol hayajonlari" deb atayman. Faridaning bari yozganlari hammasi bular – "hol hayajonlari"dir. Bu



Farida faqat o'z yuragi bilan mashg'ul, degan yana bir xulosaga olib boradi. To'g'risiyam, shoir axir yana boshqa nima bilan mashg'ul bo'lsin?! Gap shu yerga kelgan ekan, endi qahramonning sirti va siyrati haqida gapirish navbati kelganligini sezaman. Uning sirti siyratiga aslo o'xshamaydi. Sirti siyratidan darak bermaydi. Balki u el ko'zida boshqa va shoir ko'nglida tamomila boshqadir. Sirti sokin, to'lg'in daryo, siyratida momaqaldiraq, bazmi nima bilan tugashi noma'lum, xavotirga soladigan nohamvor osmondir balki. Surat va siyrat haqida garchi ancha-mun-

cha gaplar yozilgandek ko'rinsa-da, ular inson ruhiy hayotidan juda uzoq uzuq va yuluq parcha-parcha gaplardir. Zero, boyagi she'rdagi "qaqshamoq" suratda kuzatilyapti, u qahramonning ich hayajonlariga ham organik ko'chib o'tyapti: "Dunyo qaridimi, yo men qaridim?!" Bu o'ta ekspressiv gap. Boya belgilab o'tganimiz chin "hayajonli hol". Faridaning she'rlarida "sovuq" satr uchramaydi. Unga kerak so'zni boshqalar aytmasa, yoki aytmagan bo'lsa, hechqisi yo'q, bu so'zni uning o'zi aytadi. Unda bunga matonat va iqtidor yetadi. Va olamni to'ldirgan safsatalar ustidan chaqmoq sochib o'tadi. Ammo chaqmoq yolg'inlarini siyratda tutib turish naqadar qiyin! Biroq Ho'qandi latifning Xonxo'ja qishlog'ida tug'ilgan, she'rlarida eslov ko'p bo'lgan (ota-ona, tug'ishganlar, qavmi qardoshlar, yor-u birodarlar) ko'p ayriliq yozg'irishlaridan yozadigan, nadomat va armon to'fonlarini ko'p ko'taradigan qiz-

poshsha ularni o'z rasamadi bilan "mutmayin" tasvirlash yo'li va ep-tadorigini topadi.

Faridaning to'rt jild asarlarini o'qib mana endi menga ham "yuqdi", men ham "hol hayajonlari" bilan fikrlay boshladim. Yoshim taqozo-siga ko'ra men o'zimni bosiqlik va vazminlikka chaqiraman. Ammo azal ziddiyatni qarangkim, vazminlikni she'r ko'tarmaydi. Har qancha urin-gani bilan adabiyot bosiqlikni ko'tarmaydi va hazm qilolmaydi. Unga doim ehtirosalar bo'ronlari kerak. U bo'ronlarda yashagani ma'qul. Bunda aqlli amakimning peshvo o'gitlari hech narsaga yaramaydi. Yonib yoz! – tamom-vassalom! Va yana eng muhimi, qiziq qilib yoz!

Hayot ta'limi va shoir tomirning urishi

Bu bobni boshlay turib xayolimga Faridani o'qish ta'sirida bo'lsa kerak, bir misra she'r keldi: Oqar suvning bo'yida suvga zor o'sgan chechagim. Shu xolos. Men shu xuddi so'zlardan iborat misrani taqriban yigirmadan ortiq variantda ifodalash mumkinligini o'ylab o'tirdim. Faridaning she'rlarida usul borligini o'yladim. Balki uning she'rlarining ritmlarida doira usullaridan (ufor, saqil va hokazo, juda ko'p) allanarsa ohanglar mujassamini topayotganga o'xshaydi. O'zbek ayollarining bayram-u marosimlarda kichkina doira chalib qo'shiqlar, o'lanlar, termalar kuylashlari ko'z o'ngimga keladi. Men ularni

« O'zbek ayollarining bayram-u marosimlarda kichkina doira chalib qo'shiqlar, o'lanlar, termalar kuylashlari ko'z o'ngimga keladi.

tinglasam, yuragim toshib ketadi, ko'zlarimdan duvillab yosh kela boshlaydi. Faridaning she'r ohanglarini ularga o'xshataman. Urg'ulari, zarblari juda qoyilmaqom. Shu bilan birga, u yozgan "birlik", "uchlik"larning barchasining ortida jonli hayot navolari yangrayotganday tuyiladi. Hissiyotlar orqasida shu hissiyotlarni voqealarga aylantirgan behad rang-barang hayot bor. Hayajonli ta'sirlanishlar ko'p zamonlar, ovonlarni qamrab oladi. Oshiqning ko'ngli shunday latif va nozik bo'ladiki, nozikligidan ma'shuqning diydoriga chiday olmaydi. Ma'shuqning tajalliysidan fano bo'lish xavfi tug'ilar. Muso alayhisalom Haq taoloning diydorini istaganda, bu maqomda edi. Bu maqomda oshiq firoqdan ko'proq lazzat topadi... Faridaning qahramonlarida ham xuddi shunday visol-u firoq holatlarini kuzatamiz. Farida ular haqida mutlaqo ehtiyojsiz odamday yozadi. G'aniylik va faqirlik unga misli barobarday tuyiladi. Ehtiyojsiz kimsada ularga muhtojlik yo'q-da. Farida uchun axloqiy-ta'limiy qarashlar va g'oyalar muhim. Ehtiyojsiz bo'lgan odamga tama ham mutlaqo ortiqcha-da. Navoiyning qit'asi esimga tushadi: "Ey Navoiy, olam ahlida tamasiz yo'q kishi... Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay sharaf. Sen agar tarki tama qilsang, uluq ishdur bukim, Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf". ("Badoe ul-vasat", 43-qit'a). Farida juda ko'p asarlarida shu fikrni turli qirralarini ochib rivojlantira boradi. Natijada, asarlarida go'zal bir axloqiy muhit gulf urib ochiladi.

Ko'pnuqtalar orqasida...

Vaqtlar o'taveribdi, zamonlar o'zga-raveribdi, avlodlar almashaveribdi, bir nasl ketidan boshqa rejali nasllar kelibdi. Ko'zlari nurli, qalamqosh qizcha – ko'hlik, tiyrak, aqli, farosati yetuk va pishiq Faridaga aylanibdi. Tarannumi shirin bir bulbul ne zamonlardan buyon adabiyotning mangu bog'-u bo'stonlarida xushilhom qo'shiqlar kuylar

ekan-u, biz g'ofillar bexabarday yurar ekanmiz, yopiray-ey! O'lchovsiz hissiyotlar, taassurotlar og'ushida qoldim Faridaning asarlarini o'qigach. Boshdan oxir tizginsizlik. Erkin havolar, erkin naqlar, erkin navolar! Bu yaxshimi, yomonmi, ijodiy erkinlik. She'rlari erkin yozilganday, nasri ham tamomila erkin, xohlagan joyidan odam va olam qoshiga borib hikoyalarini boshlab ketaveradi. U insonlar taqdirleri haqida juda erkin hikoya qiladi. Zamonlar, rang-barang taqdirler ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Mashhur tabobat olimi Mirzakarim Norbekovning shajarasini izlaydi. Nega u o'z vatanida emas, o'zga yurtlarda shuhrat topganligining hayotiy sirlarini qadam-baqadam kuzatadi. Izlanishlarida juda ajoyib odamlar – ularning favqulodda taqdirleriga duch keladi.

Bu o'ta qorishiq voqealar sizni ham bano-goh "junun vodiylariga", ma'yus, kimsasiz mozorotlarga ergashtirib ketayotganday bo'ladi. Farida qahramonlarini juda sevib va favqulodda juda qiziqarli qilib tasvirlaydi. U taqdir egalarining o'zlarini so'ylatadi. Ular siymosida tarix, zamonlar tilga kirganday bo'ladi. Zamona sarmast, beshafqat galdirlik zamonasi, telba, rahmsiz zamona. Hammasi **azobgiral** tomonidan hikoya qilinayotgan vahm voqealar, faryod, nolalar va hammasini yozib olib birma-bir erkin tasviri va bayonini topib-topib yozayotgan Farida... Goh Mirzakarim, goh Sog'unii, goh uning nabirasi Bahmanyor tilga kiradi... Faryod, faryod! Farida! Men bularni o'qirkanman, o'zimni tobora qo'lida singan sopol bilan xarobot ichra kirib ketayotgan oshufta-hol Navoiyni, uning behad mahzun so'zlari va holatlarini tushunib yetganday bo'ldim. Oshuftahollik xayli meni tamomila qurshab oldi va bir oy davomida o'z domidan chiqarmadi. Bu ekzaltatsiyalar, tub syurrealistik bayonlar oldida o'zimni og'ir saqlab fikr yuritay desam, bu qo'limdan kelmadi. Faridaning bayon oqimi meni o'ziga ergashtirib ketdi. Buning ustiga, Faridaning bir jild jahon, Sharq adabiyotlaridan qilgan badiiy tarjimalari boshqa original

tomlarning ekzaltatsiyalari va tamomila syurrealistik oqimlariga oq daryo ko'k daryolarga qo'shilganday qo'shib ketdi. Axmatovadan, Svetaevadan, Dog'larjadan, Suhrob Sipehriydan ajib tarjimalar. U Suhrob Sipehriyni qay yurak bilan tarjima qilib chiqarganidan lol qoldim. Eron modern adabiyotlarining ohangrabo ovozlari eshitganday ta'sirlandim.

Farida to'rtinchi jildga jamlagan tarjimalar bilan birga she'rlarning asl nusxalarini berib juda yaxshi qilgan. Qiyoslash imkoni bor.

"Odatda, shoirdan hissiyot, samimiyat talab etiladi, she'rdan zavq, bilim kutiladi", deb yozgan ekan mashhur olimamiz Muzayyana Alaviya. Bularning bari Farida Afro'z jildlarida to'la namoyondir. Men juda qiziqib o'qidim va ketgan vaqtga achinmadim. Bir qiyomatlik do'stim ulug' yoshning o'ziga xos sarhisoblari to'la anglolmay yurgan paytimda mening oshufta holimni ko'rib, menga Farida Afro'z jildlarni o'qishni tavsiya qildi. Bular boyaroq aytganimday, juda qiziq kitoblar ekan. Xushhol bo'ldim. Farida Bo'tayeva nimani yozmasin, qanday mavzuni ko'tarmasin, erkin va qiziq qilib yozadi. Uyqusiragan odamning ko'zi yalt etib ochilib ketadi, zerikib qolgan odamning shavqlari qayta uyg'onadi, hushyor tortadi. To'g'risiyam, qiziq qilib yozmasa, adabiyotning ma'nosi qoladimi? Muallif o'quvchisini o'ziga hayot yo'llarida hamroz eta olsa, asl muddaosiga yetadi, mehr qozonadi. Zerikarli yozilgan kitoblarning yo'l o'rtasida yotgan toshdan aslo farqi yo'q. Hammani qoqiltiradi. Chalg'itadi. Isrofgarchiliklarni aytmaysizmi? Zerikarli kitoblar vaqtni o'g'irlaydi. Hozir chalg'itayotgan kitoblar ko'p, juda ko'p. Farida bir tomondan xo'b qiziq qilib yozsa va o'quvchi e'tiborini doimiy ushlab tursa, ikkinchi tomondan, ayniqsa, muallif obrazi ko'z o'ngimizda yorqin qiyofasi, yetuk inson, odamiyligi, axloq-odobi teranligi bilan ayricha maqomga ko'tariladi. Uning so'zlarini eshitgan sari yana eshitgiz keladi.

Yopiray-ey. Xayrli va qutlug' bo'lsin!

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Qadimiy Baqtriya tuproq'ida

Shukur akaga

Bu sahroda ming xil tashbeh
ko'milgandir men uchun,
Harflar, harflar ko'milgandir –
Qadim tillar parchasi. »»»



Bu harflarda izlari bor
 Iskandar tulporlarin,
 Tashbehlarda – dinlar muhri,
 Chingiziylar tamg'asi.
 Mana, g'orlar –
 Moziyning ko'z kosalari singari,
 O', bir buyuk madaniyat yotar
 majruh, ingranib.
 Siniq-siniq sopollarday
 parchalangan san'atim,
 Qani sening shavkating?
 Sulolalar yong'inida yondi tillar,
 lug'atlar,
 Alifbolar asrlarning
 qumlariga bo'ldi g'arq.
 Men turibman...
 Mana, g'orlar – devorlardan besado
 Oushon yozuvlari boqar,
 Shu harflardamisan, Sharq?
 "Bu yo'llar ko'p qadim yo'llar"...
 Rost aytgansiz, shoirim.

Men turibman
 botirlar qon to'kib o'tgan yo'llarda.
 Tahqirlangan suluvlarning
 chinqirig'i quvlagan
 Shaharlarning arvohlari
 izg'ib yurgan cho'llarda.
 Savollarday qotib turar
 tegramda saksovullar,
 Moziy meni bosib kelar,
 Chaldivorlar o'raydi.
 Tepalarning bag'ridan bir
 Vatan qo'zg'alib nogoh,
 Mendan nomin so'raydi.

1981

UMRIM SOATLARI

JARANGLAR TINIQ



Oygul SUYUNDIQOVA

1957-yili Samarqand viloyati Payariq tumanida tug'ilgan. Moskvadagi Gorkiy nomli Adabiyot institutida tahsil olgan. Ufqalar yonganda, "Umr kuylari", "E'tiqod", "Zumrad tomchilar", "Ko'nglim kengliklari", "Sevinch" kabi she'riy kitoblari nashr etilgan. Aleksandr Blok, Anna Axmatova, Marina Svetayeva, Nikolay Gumilyov, Ariadna Efron, O'rxon Pomuq, Leonardo da Vinci, Ivan Bunin, Sergey Yesenin, Lev Tolstoy, Gogol, Mixail Prishvin, Avetik Isakyan, Konstantin Paustovskiy, Aleksandr Kuprin singari jahon adabiyoti namoyandalarning asarlarini o'zbek tiliga o'g'irgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi.

Umr soatlari nimadir? U qachondan boshlab sening-da hayotingda, yo'llaringda, yuragingda, yozmishlaringda jaranglar boshlagan? Uni ilk bora kim tinglagan, kim tinglagani sayin tinglagisi kelgan, tinglay turib, Baxt sasini qalbiga tuygan?! Onang, onajoning mushtipar! Uning vujudiga tilga kirayotgan ilk lahza-dan tortib, bu yorug' dunyoga kelgan oningga qadar onangchalik boshqa hech kim uningchalik sevinmagan! Sen buni keyinchalik – o'zing ham onalik baxtiga musharraf bo'lganingdan so'nggina chuqur his etgansan. Endi esa o'sha olis-yaqin bolalikka biroz qaytamiz...

BOLALIK XARITASI

Men tug'ilgan uy – dunyodagi eng ulkan, eng go'zal, eng aziz va mukarram uy. Bu uy Samarqand tuprog'ining Payariq tumani markazidagi Navoiy lar bo'yidan yanada barq urib, yuksalib, ko'zimga nur, yuragimga quvvat soladi. Men tug'ilgan ota uyimga uzoq umr tilayman: bag'rini, hidlarini, havolarini, otamning bog'ini, onam o'tirgan ayvonlarni hamisha sog'inaman...

Har bir mamlakatning o'z xaritasi bor. Men bu haqda o'ylasam, ko'z oldimga otam, onam va uyimiz devorida osig'liq katta yaltiroq rangli "Dunyo xaritasi" keladi. Xarita hozir ham ko'zlarimga katta ko'rinadi. Men hamisha dengiz va tog'larni izlardim. Xayolimda moviy dengizlarga sho'ng'ib, hovuchlarimni marvarid chig'anoqlarga to'ldirib chiqaman. Chig'anoqlarni qulog'imga tutsam – dengiz g'uvillaydi. Tuyg'ular tiniqlashadi, qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlar shovullaydi, zarrin-zarrin tomchilari ko'kka otiladi. Osmon va yerning rangi qorishib ketadi. Ochiq dengiz. Kemada olis-olislariga yo'l olaman, to'rt taraf suvlik. Dengizga tutashib ketgan cheksiz ufq. Shamollar qanotidasan. Quyosh botayotganida suv ustida qalqib turgan qirmizi olmaga o'xshaydi.

Men shunday lahzalarda vaqtni bir zumga bo'lsa-da to'xtatsam deyman. Chunki quyosh dengizga cho'kib ketishini istamayman. Ko'zimni yumaman. Qo'lida quyosh – olmani ushlab turgan bolaga aylanaman. Ko'zimni ochaman – tog'larga ko'tarilaman. Chayqalib turgan dengiz bo'yida salobatli tog'lar qad kerib turadi. Cho'qqilar – chorlovday. Parqut bulutlar – uchar gilamlarim. Quyoshda erib ketmaydi, shamollar to'zg'itolmaydi. Ularga o'tirib olaman-u, dunyoni aylanib chiqaman.

Dengiz shu qadar qudratli, tog'lar viqorlik! Bolalik xaritasida bu suvratlar hamon o'chmay turibdi – yuragimga chizib qo'yganman. Ularni hech qachon o'chirmayman.

ILK SHE'RIM

Bolaligimdan kitob, daftar, qalam va ruchka, o'quv qurollarini uyda – otamning qo'lida ko'rganman. Otam kun bo'yi maktabda dars berib, uyga qaytganida, ertalab yana shular bilan maktabga ketayotganida barining hidlari dimog'imga urilib ketardi – kitobning, qalamning, daf-tarning hidlari... Otang kechasi bilan ertangi kunga – yangi darslarga tayyorlanadi, yozadi, o'qiydi, kitob varaqlaydi, derdi onam. O'sha paytlardan boshlab, murg'ak yuragimda bilimga, mutolaaga, she'r yodlashga, shu asnoda she'riyat, adabiyotga mehr qo'yganimni shu kungacha, ayni paytlarda ham teran his etganman. Bu mehr, bu tuyg'u umrimning so'ngiga qadar sobit qolishiga ishonaman.

Tuman markazida yashaganimiz uchun uyimizga yaqin, o'sha davrda ham, bugungi kunda ham tumandagi eng old maktab – Pushkin nomidagi maktabda tahsil oldim. Ayni

paytda 1-o'rta umumta'lim maktabi deb yuritiladi. Bu maktabda bir-biridan bilimdon, fidoyi va mehribon o'qituvchilarimizdan ta'lim-tarbiya oldim. Ular haqiqatdan ham o'z fanining bilimdoni edilar, o'z kasbi bilan faxrlanar, sevar edilar. Bu xislat mening muallim, shuning barobarida uzoq yillar maktablarni boshqargan rahbar otamda ham mujassam edi.

Adabiyot, tarix, jo'g'rofiya va rus tiliga katta qiziqish va muhabbat bilan qaradim. O'sha paytda ham, hozir ham tuman gazetasi binosi tuman rasmiy idoralari qatorida maktabimizga bir qadam joyda joylashgan edi. Katta tanaffuslarda agar bitta she'r yozgan bo'lsam ham, sinfdosh qizlar bilan yugurib borib, tahririyatga tashlab kelardim. Bola bo'lganman-da, qiziqqanman!

– Xuddi mana shu yillar, – degan edi suhbatlarimizning birida to'qson yoshni qoralayotgan tumanimizdagi muhtaram shoir ustozimiz Abdumurod ota Ismatov, – hozirgi "Payariq hayoti" gazetamiz qoshida ochilgan "Chashma" she'riyat to'garagi o'z ichiga yosh va umidli shoir, shoiralarni qamrab oldi. Shu to'garakkka kelayotgan, qo'shilayotgan ijodkorlar bizni ham quvontirar, oyda bir marotaba ularning ijodidan namunalarni sahifalarga to'ldirib, o'quvchilarga taqdim etardik.

Bu o'rinda, ayniqsa, eng yaqin do'stim, ham shoir, ham dorishunos, bag'rikeng va bilimdon inson rahmatli Ziyodulla Nurmatovning nomini alohida tilga olmoqchiman. Ziyodulla do'stim tumandagi katta dorixonani boshqarsa ham, vaqt topib, albatta, to'garakka kelardi, kechikmasdi, kerak bo'lsa, tumanning uzoq-yaqin qishloqlaridan keladiganlarni kutib, keyin to'garakni boshlardik. Bizda intizom va ichki madaniyat kuchli edi.



Ustozning so'zlari meni olis va jo'shqin damlarimga, o'quvchilik davrimga yetakladi. Men she'rlarimni maktab partasida o'tirib yoza boshlagan bo'lsam, onamga bag'ishlangan ilk she'rim shu gazetada 7-sinfda o'qib yurgan paytlarimda chiqqan. Chindan ham to'garakka juda ko'plab qiziquvchilar o'z mashqlari bilan kelishar, har kim hayajon bilan she'rlarini o'qir, so'ngra fikr va mulohazalar bildirilar, maqto'vni ham, kamchiliklarni ham diqqat va hurmat bilan tinglardik. Bir so'z bilan aytganda, to'garakxonasi ijod ruhi bilan nafas olardi. Shu yerda ko'plab shoira va jurnalist do'stlar orttirdim: Omonoy Rabbimova (marhuma), Jibak Ahadova, Saodat Donoboyeva, Kubarro Allayorova (marhuma), Saodat Umirova, Tamara Islomova, Marvarid Mardiyeva... Shu to'garakda ilk she'rlarim va maqolalarim o'z bahosini oldi, chop etildi. Birinchi she'rim onamga bag'ishlangan bo'lsa, birinchi maqolam otam haqida so'z edi...

ONAMNING MAKTUBLARI

Men sizni hamisha tirik deb o'ylayman, ona. Ko'z o'ngimdan ketmaydi – yetmishdan oshgan, sakson yoshga yaqinlashgan umringiz quvonch-u azoblaridan ajin tortgan nurli chehrangiz, sakson yillik umr yo'llarini yoritib turgan ko'zlaringizdagi goho baxtli, goho mungli shu'lalar... Ular shu damda qalamimdan emas, kiprigimdan to'kiladi, oppoq qog'ozlarga emas, yuragimning tubidagi dostonga aylanib boradi.

So'zlarim tugamaydi, tugatolmayman, onajon, jonim onam!... Qo'limda xatlaringiz. Siz ularni menga Moskvada Adabiyot institutida o'qib yurgan kezlarim Samarqanddan Moskvaga (1980–1985 yillar) yo'llag-



ansiz. Men ularni avaylab-ardoqlab saqladim, hamon saqlab kelmoqdaman. Buni eshitib, qanchalik quvonib: "Saqlab qo'y. Yo'qotma, meni sog'insang, o'qib turarsan", – derdingiz. Ularni siz yonimda, hayot paytingiz qo'lga olish, o'qish quvonchi boshqa ekan-u, endi siz yo'qotganimda qo'lga olish, yana o'qish, o'qiganda ham har bir so'zni bitta-bittalab o'qish armoni boshqa ekan. Buning azobiga kim yetgin, kim yetibdi, onajon!..

Maktublaringizdan qalbingiz qo'ri, ko'zingiz nuri, qo'llaringizning issiq tafti keladi. Shuncha yillar o'tsa hamki, qog'ozlar, harflar, xatjildlar sarg'aymabdi – toza va tiniq. Ularni ko'zlaringizga surtib-surtib, asta-asta, qayta-qayta, varaqma-varaqma o'qishdan charchamayman. Ularda sizni ko'raman, siz bilan suhbatlashaman. Siz bilan birga yuraman. Ular maktublaringiz menga sizning tirikligingizni aytishadi, men ularga ishonaman, onajon!

Onajon, mehringiz to'kilib turgan maktublaringiz bir umrga meniki, menga atalgan hayot tuhfasini, quvonchlari. Onaning farzandini sevishi, bu muhabbatni farzand ham har bir daqiqada his etib, sezib turishining o'zi hayot, hayotga muhabbat, baxt!

Sizning barcha yaxshiliklaringiz bugungi kunda ham, bundan keyin ham yo'limni yoritib turadi. ham yo'limni yoritib turadi. albatta. Negaki, yaxshilikdan yaxshilik tug'iladi. Onalar bu dunyoda ham farzand-u dunyoda ham farzandlariga, dunyodagi jamiki odamlarga faqat ezgulik istaydilar. Siz ham mening ezguligimsiz, onam, mehribon onajonim! Sizning maktublaringizga hali ko'p qaytaman, ko'p so'zlar aytaman.

Ruhingiz hamisha shod oxiratingiz obod bo'lsin, onajon!

OTAM HAQIDA SO'Z

Otamning oddiy va zahmatli, og'ir va sharaflil mehnati har qanday ta'rif, tahsin va minbarlardan ulug'dir.

Chunki otam singari fidoyi o'qituvchilar ezgu yo'lda ter to'kadilar. Xalq bolalarining qo'lga qalam tutishni, ilmning ilk va eng zarur, mashqatli mehnati evaziga dunyoga keluvchi jarayonni boshidan o'tkazadilar. Har bir o'quvchining bilimi va bilimiga munosib qo'yilgan har bir baho uchun ma'suldirlar. Otam bosib o'tgan qutlug' hayot yo'lga nazar tashlar ekanman, dunyodagi eng mehnatkash va halol, insonparvar xalq deganda o'qituvchilar ko'z oldimga keladi. Negaki, ular o'zlarining chekayotgan zahmatlariga, uyqusiz tunlariga tama qilmaydilar. Unvonlar, nishonlar va mukofotlarning ortidan quvmaydilar. Aksincha, mana shu sharaf va e'zoz ularni izlab topadi. Chunki ular har qanday sharoitda o'z vazifalarini vijdonan bajaradilar. Shu sababdan ularni xalq har qanday joyda topib oladi. Xalq muallimlarni nishonsiz ham, unvonsiz ham sevadi va ardoqlaydi. Chunki shu o'qituvchi uning ko'zini ochdi va yorug'lik sari boshladi. Shuning uchun ham o'qituvchilarga eng oliy mukofot – xalq mehri va hurmati nasib etgan.

Mening otam ham shunday o'qituvchilardan biridir. Otam bosib o'tgan nurli ilm va hayot yo'lga nazar tashlasam, tumanimizning katta qismida uning nomini hurmat bilan tilga olishadi. Bular – otam bilan birga ishlagan, o'sha paytdagi yosh o'qituvchilar, sobiq o'quvchilari va hatto ularning farzandlari ham... Men har bir lahzada bu odamlarning otamga nisbatan ehtirom tuyg'usini his etaman, inson uchun xalqning hurmatiga sazovor bo'lish, undan beminnat e'tibor topishdan ham yuksak baxt bo'lmasligiga ishonaman. Otam doimo halol va mehnatkash bo'lishni o'rgatib keldi.

Oilamiz haqida so'z ketsa, unda aziz onajonimning o'rni ulkandir. Chunki onajonim otamning ko'p yillik umri maktab ostonalarida o'tganida hamnafas va ko'makdosh



bo'ldi. Bir umr farzandlar tarbiyasi va oila tashvishlari, quvonchlari bilan yashadi. Otam – Barot Suyundiqov va onam – Muxtasam Suyundiqovalar qirq yildan ziyod umr dovonlaridan birgalikda oshdilar.

Biz oilada olti nafar farzandimiz. Bar-chamiz otamiz va onamiz bergan tarbiya va ta'limdan bir umrga minnatdormiz. Negaki, ular bizga mehr-muhabbatli, oqibatli, o'z oilasi va farzandlariga sadoqatli bo'lish lozimligini uqtirdilar, oilani yanada mustahkamlashda ota-onaning roli, vazifalarini anglatib keldilar, ularning hayot yo'llari biz uchun hamisha katta maktab sanaladi.

Otajon, Siz umringizning qirq yildan oshig'ini maktabga, ma'rifatga bag'ishladigiz. Imonim komilki, necha-necha avlodlar ongida siz yoqqan ilm chirog'i o'chmaydi va ular sizni doimo hurmat-ehtirom bilan ustoz degan muborak nom ila tilga oladilar. O'qituvchilik kasbi mening ham qonimda bor, bu – sizdan o'tgan, ota. Shoirtabiatlik esa balkim onamdan yuqqandir... Chunki men bolaligim, yoshligimdan to bugungacha onamning ajoyib o'tli xotiralarini, eslarida qolgan xalq qo'shiqlari va she'rlarini hayajon bilan eslayman, ulardan olam-olam zavq va ma'no uqaman.

TALABALIK - KATTA MAKTAB

Maktabni bitirgan yilim (1974) hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetining kunduzgi bo'limiga hujjatlarimni topshirganman, 1 ball yetmay, mandatdan o'tolmaganman. Bilimimga shu qadar ishonganmanki, meni Toshkentga olib kelib, yaqin do'stining oilasida imtihonlarni topshirguncha turadi, deb kutgan otam qaytgach, imtihon komissiyasiga kirganmiz, tekshirtirganmiz. Inshodan "4" olgan ekanman. Hech esimdand chiqmaydi - ikkita imlo xato chiqqan. Komissiyadagilar yo'llanma beramiz, agar Toshkent to'qimachilik kombinatiga ishga kirsa, kechki o'qishga qabul qilamiz, deyishgan. Otam "Ish o'zimizdayam topiladi", deb uyga, Payariqqa qaytganmiz.

Birinchi kasbim - matn teruvchilik bo'lgan. Otam meni o'rgansin deb tuman xalq bo'limidagi ortiqcha turgan mashinkalardan birini bir haftaga so'rab olib kelib, uyda yozishni o'rgan, degan. Men nimani yozaman, desam, onam "She'rlaringni ko'chir", degan. Otam bir to'plam arzon sariq qog'ozdan sotib olib kelgan. Bir hafta deganda yozishni o'rganib, ko'chirganlarimni tuman gazetasiga o'zim olib borib berganman, viloyat va respublika nashrlariga pochta orqali jo'natganman. Bu ish menga hozirga qadar yoqadi. Bugungi kunda ham matn ko'chirish - sevimli mashg'ulotim.

Shunday qilib, ilk ish faoliyatimni tuman Xalq ta'limi bo'limida matn ko'chiruvchi sifatida boshlaganman. Ikkinchi yil ham yana o'sha universitetga, o'sha fakultetga imtihon topshirganman. Lekin yana mandatdan o'tolmadim. Qattiq xafa bo'ldim, ehtimol, bu yil ham meni Toshkentga yana o'zi olib kelgan otam oldida ovoz chiqarolmay, ichimda yig'lagandirman...

Talabalar shaharchasidagi tamaddixonalarining birida ovqatlanib bo'lgach, otam menga "Yur, bir joyni ko'rsataman senga", degan. Bu - universitetga yaqinroqda joylashgan o'sha paytdagi Toshkent madaniyat

texnikumi ekan. U yerda ham o'qishga qabul jarayonlari ketayotgan payt. Otam: "Shu yerga kutubxonashunoslik bo'limiga o'qishga kirsa imtihon topshirishing shartmas. Universitet ballari, imtihonlari - tarix va adabiyot fanidan - yetarli, o'tadi", - degan.

Ikki yil davomida kitoblar, kutubxonalar bilan chambarchas bog'landim. O'quv dargohim a'lo darajada tugallab, she'rlarim ham respublik matbuotida tez-tez chiqa boshlagan kunlarning birida nutq madaniyati o'qituvchimiz Mavjuda opa Valiyeva: "Oygul, Yozuvchilar uyushmasiga olib boraman seni. Tadbirlarga qatnashasan, u yerda katta shoir va shoirlalar, yozuvchilar ishlaydi. She'rlaringni ko'rsatamiz", - deganlarida boshim ko'klarga yetgan. Metroning hozirgi Amir Temur maydoni bekatidan chiqqan joyda Uyushma binosiga olib borgan va O'zbekiston xalq shoiri ustoz Turob To'la huzuriga kirganmiz. Mavjuda opa meni shoira o'quvchim deb tanishtirgan. Keyinchalik ustozning she'rlarim xususidagi fikrlari "Sharq yulduzi" jurnalida she'rlarim bilan birga berilgan.

O'qituvchim Mavjuda opa meni juda yaxshi ko'rardi, adabiyotga, she'riyatga ixlosi baland edi. Bir kuni "Yana Uyushmaga boramiz. Ajoyib, kutilmagan yangilik bor", deb qoldi. Ustoz Turob To'la bilan suhbatga olib borgan edilar o'shanda. Ustoz rus tilini qay darajada bilishimni so'radilar. Men bu tilni boshqa fanlar singari o'qituvchimiz Olga Zaxarovna Makarovadan qunt bilan o'rganganman. Bu tilda ravon o'qish, xatosiz yozish, badiiy gapi-rishga harakat qilardim. Maktabni a'lo baholarga muvaffaqiyatli tugalladim. Shu o'rinda onamning bir gapi - aslida, bu tarbiya edi, - sira yodimdan chiqmaydi: "Yaxshi o'qinglar, a'lo o'qinglar. Bo'lmasa, otangiz ham o'qituvchi, ham maktab direktori bo'la turib, boshqa bolalardan yaxshi o'qishlari kerakligini qanday talab qila oladi?!" Shu bir og'iz gap menga maktabda ham, texnikumda ham, institutda ham dars bo'lgan. Onam aytganidek, men chinakam muallimning qizi edim!

O'sha paytda Uyushma tomonidan yo'llanma orqali Moskvaga, Gorkiy nomidagi Adabiyot institutiga yosh ijodkorlarning ijodlaridan namunalar o'zbek tilidan rus tiliga so'zma-so'z tarjima yoki badiiy tarjima tarzida yuborilar, o'sha yilgi (1980) tanlovda mening ham she'rlarim yaxshi baholar olib, imtihon topshirish uchun Moskvaga chaqirildim.

Universitetning jurnalistika fakulteti sirtqi bo'limiga kirish uchun (otamning so'zini ikki qilolmay) imtihonga tayyorlanib turgan kezlarim bu xushxabar meni osmonlarga chiqarib qo'ydi. Samarqandga, uyga uchdim! Otam ham, onam ham, butun oilamiz uchun bu xushxabar bayramga aylanib ketdi.

Imtihon juda yengil va oddiy o'tgan: diktant, rus adabiyotidan - Pushkinning "Men sizni sevardim" she'ri ifodali tarzda ham asliyatini, ham o'zbek tilidagi tarjimasini yoddan o'qib berganman; tarixdan - Samarqand haqida bilganlarimni aytganman. Asosiy imtihon - ijodiy tanlov edi.

Besh yillik talabalik yillarim she'rlarimga, yurt sog'inchiga, ilk kitoblarimga aylandi. Institutda katta va bilimdon, tajribali va ustoz shoir-yozuvchilardan yuksak saviyada bilim oldik. Biz - yosh ijodkorlar, shoirlalar, yozuvchilar, dramaturglar, tarjimonlarning yuragida ulkan Adabiyot degan so'z yashardi, mana shu so'zning qudrati bizni bir-birimizga, millatimizdan qat'i nazar, do'st etdi, shoir qildi, adib darajasiga yetkazdi.

Biz - kursdoshlar tez-tez mashhur va sevimli Yasnaya Polyana, Petrograd va Volga daryosi bo'ylariga sayohatga chiqardik. Moskva-rekada sayr etish maroqli edi, hayajonlantirardi. Ermita-

jni aylanish - dunyoni aylanish, anglash, his etish edi, aslida. Moskva teatrlari, muzeylar, kutubxonalardan imkon qadar bahra olib qolishga, zavqlanishga, o'rganishga intildik. Institutda ulug' so'z ustalari bilan o'tkazilgan har bir adabiy kecha, uchrashuv, suhbatlar hamon yodimda.

O'rmonlar tabiatning har bir faslida shu qadar go'zallashar ediki, bu chiroyini faqat ko'rish, his etish, shamollar, xayollar bilan birga kezish kerak edi. Bunday paytlarda qo'limizdan faqat hayrat og'ushida she'rlar yozish kelardi, xolos.

Ayniqsa, kashtanlar gullaganda Kiyev shahri-ning betakror go'zalligi, sarxush havosi barchamizni hayratga solgan. Urush ko'rgan joylar va yodgorliklarni ziyorat qilganmiz, Dnepr daryosida paroxodda suzish, to'lqinlar mavjlari, shovullashi unutilmas taasurotlar uyg'otgan. Talabalik yillari unutilmasligining muhim jihati - u yoshliging bag'rida kechadi. Yoshlik esa - umrning betakror va bebaho gulgun davri. Sen unga bolaligingdan dilbar orzular ila intilib yashaysan. Umring o'tgani sayin yoshlik sog'inchi tiniqlashib, ulkanlashib, seni yorug' xotiralar sari yetaklaydi, yuraging to'lqinlanadi, tuyg'ular yolqinlanadi. Yoshligingni har bir lahzasi ich-ichingdan ko'kdan to'kilgan-day sochiladi, tovlanadi. Sog'inch - hamisha go'zal!

TARJIMA - BESARHAD SAN'AT VA IJOD

Men tarjima olami bilan institutda o'qib yurgan birinchi kunlarim, birinchi yillarimrimdanoq tanishganman. Bugungi kunga kelib, tarjima men uchun ijod dunyosiga aylandi. Tarjima, aslida, kitob mutolaasidan tug'iladi. O'qiysan, uqiysan, ruhingda, qalbingda, qalamingda shunday olam yaraladiki, sen undan umrbod ayrila olmay-san. Bu menda shunday kechdi, hali-hanuz shunday kechmoqda.

Tahsil davrida institut kutubxonasidan Aleksandr Blok, Anna Axmatova, Marina Svetayeva, Nikolay Gumilyov kabi ko'plab kumush asr she'riyatining asl namoyandalari olamiga kirib bordim. Ilk tarjimamda Aleksandr Blok she'rlariga qo'l urganganman. Yuqorida tilga olganim - rus shoirlari qatorida Ariadna Efron (Marina Svetayevaning qizi), O'rxon Pomuq, Leonardo da Vinchi, Ivan Bunin, Sergey Yesenin, Lev Tolstoy

(bolalarga atalgan hikoyalari), Gogol mak-tublari, Mixail Prishvin, Avetik Isaakyan, Konstantin Paustovskiy, Aleksandr Kuprin singari juda ko'plab rus va jahon adabiyotidan qilgan va bugungi kunda ham davom etayotgan tar-jimalarim "Jahon adabiyoti", "Yoshlik", O'zbekis-ton adabiyoti va san'ati", "Adabiyot ziyosi", "Sharq yulduzi" kabi nashrlar, adabiy to'plamlar va "Ufqlar yonganda" (1986), "Umr kuylari" (1986), "E'tiqod" (1990), "Zumrad tomchilar" (2013), "Ko'nglim kengliklari" (2019), "Sevinch" (2021) kabi she'riy kitoblarimga kiritilgan. Ayniqsa, "O'zbekiston" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Rus adabiyoti durdonalari" seri-yasidagi 100 jildlikning o'nga yaqin kitoblarida deyarli barcha tarjimalarim (she'riy va nasriy) joy olgani men uchun sharaftir, quvonchdir.

Ehtimol, ummonning tubi bordir, yerning ham chegaralari mavjuddir, hatto osmonning ham oxiriga yetib borib bo'lar, lekin tarjima – besarhad san'at va ijod. Biz unda nafaqat boshqa mamlakat va xalq, qolaversa, ularning tabiat go'zalliklari, tili, odamlar hayoti, tarixi, buguni bilan yuzlashib, jozibasi va sehr-u sinoatlariga singib boramiz, balki, eng avvalo, o'zimizda yangidan-yangi ruhiyat kengliklarini kashf etamiz.

Dunyoda yagona tarjima xaritasi mavjud emas. Chunki har bir millat va xalq o'z imkon-i, e'tiqodi va iste'dodi darajasida tarjima bilan shug'ullanadi. Tarjima quvvatini aniqlashda tarjimon qobiliyati, darajasi, saviyasi nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Deylik, biron bir asar ikkinchi tilga asl nusxasiga nisbatan bo'shroq ag'darilgan bo'lsa, bu tilning yoki asarning qusuri emas, aksincha, tarjimonning uquvsiz-ligidan darak beradi. Shu bois har bir tarjima asarining muvaffaqiyati tarjimonning iste'dodi bilan belgilanadi.

Badiiy tarjima badiiy ijoddir. Tarjimon mavjud asarga yangi hayot bag'ishlaydi. Asliyat bilan tarjima o'rtasida farq kamroq sezilganda, ko'ringanda, agar maxsus ko'rsatib, aytib o'til-masa, tarjima ekanligi bilinmaydigan asarlar

jahon, xususan, o'zbek tarjimachiligida ko'plab uchraydi. Bu tarjimondan katta mahorat talab etadi. Tarjimon ham shoir yoki adib, lekin u o'zga tildagi muallif asari bilan ishlamoqda, to'g'rirog'i, u bilan birga yashamoqda.

Tarjimon hamisha eng yaxshi kitobxon bo'lib qolishi zarur. Shundagina asliyat ham, tarjima asari ham birday ahamiyat kasb etadi ular egizakdirlar; birini ikkinchisidan baland qo'yib bo'lmaydi.

UMR YO'LI KITOBDIR

Umr yo'li kitobdir, uning ijodkori ham, qahramoni ham, joni ham, qoni ham – o'zing. Har bir lahzang – So'z; sen bilgan har bir inson – tirik dunyo; shu insonlar bilan o'tgan har daming va suhbatlaring – saboq. Sen tug'ilib o'sgan ota uying, oilang, farzandlaring – dunyoda bandan ortiq Baxtning o'zi yo'q, izlama! Shu oilangda yasha, uni tingla va sev, nasib etsa, uning, ya'ni oilangni ardoqlariga munosib bo'l. Mana shu hikmat ikki dunyo saodatiga olib boradi.

Uzoq yillar tumanimizdagi maktablar-dan birida o'qituvchilik qilishimga ham otam sababchi bo'lgan. Men institutni bitirib kelgan yilim otam-onam roziligi bilan ularning ko'ng-lidagiday oilaga kelin bo'lib tushdim. Tosh-kentga borib yashash va ishlash rejalarim ish-lash ketdi... Hech bo'lmasa, tuman gazetasida ish-lash deb harakat qilayotganimda, otam-onam ish-lash – yaxshi, mutaxassisliging bor, ijodkorsan shoirasan. Lekin uning mashaqqatlari bor. Endi oilalisan. Tuman katta. Jurnalist bo'lganingdan keyin olis-yaqin qishloqlar, xo'jaliklarga tayyorla-odamlar bilan uchrashib, maqolalar tayyorla-shing kerak. Yo'llari seni charchatib qo'yadi, deb o'ylayapman. Qiynalasan. Transport ham hamisha o'ng'ay kelmaydi. Kech qolib ket-sang, oilang ham xavotir oladimi, deyman-da. Uylaringning yonida, bir qadam joy, maktab bor, shu yerda dars bersang ham bo'ladi... " – degandi otam. Onam ham otamni qo'llab-quv-



vatlagan. Men ikkalasiga ham har tomonni o'ylab, e'tiroz bildirolmadim. Otam to'g'ri yo'lni ko'rsatdi, deb qabul qildim va kelin bo'lib tushgan joydagi maktabda rus tili va adabiyoti, o'zbek tili va adabiyoti fanlaridan o'quvchilarga dars berdim. Ijodimni to'xtatmadim. Tuman, viloyat, respublika matbuotida muntazam qatnashib turdim, ijodkor o'qituvchilarning Sirdaryo, Farg'ona va Toshkentda bo'lib o'tgan anjumanlarida ishtirok etdim; bu orada kito-blarim Toshkentda chop etildi.

1999-yili oilamiz bilan Toshkentga ko'chib kelganimizda hayotimning mazmuni va quvonchi – uch qizim tug'ilib, voyaga yetish-gan edi. Nafaqaga chiqqunga qadar "Saodat", "Sog'lom avlod uchun", "G'uncha" jumallari, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda, nafaqa-dan so'ng esa – Qibrayda hovli-joy qilib yashab qolganimiz tufaylidir – "Qibray sadosi" gaze-tasida ko'p yillar faoliyat ko'rsatdim. Toshkent adabiy muhiti menga O'zbekiston xalq shoiri ustoz Oydin Hojiyeva bilan birga ishlash, sabo-qlarini tinglash, O'zbekiston xalq shoiri ustoz Halima Xudoyberdiyeva va Zulfiyaxonimning qizi olima Hulkar Olimjonovanning suhbatlarini olish baxtini berdi.

Bolaligimdan to hozirga qadar otamday tog'im, onamday bog'im, sadoqatli do'stlarim

– kitoblarim bilan baxtliman. Otam davrida kitoblardan tashqari uy kutubxonamizda "O'qituvchi" gazetasi va "Fan va turmush" jurnali taxlanib turardi. Bu nashrlarga otam nafaqaga chiqqanlaridan so'ng ham obuna bo'lardi. Biz ham ularni qiziqib o'qirdik. Ehti-mol, o'shanda kitobga mehrim va hurmatim yuragim tubidan joy olgan, vaqti-soati kelib, o'zimning ham shaxsiy boy va juda katta kutubxonam bo'lishini orzulagandirman...

Boisi, kitob – quyosh! U hamisha shuuri-mizni yoritadi, ko'nglimizni poklaydi, ruhiya-timizni kengaytiradi. Har bir so'z va satrlarda yurak haroratlarini sezamiz, hayotga muhab-bat, dunyoni ko'rish saodatiga musharraf bo'lamiz. Yaratilgan va kelajakda yaratiladigan texnikaviy g'aroyibot va ajoyibotlarning onasi ham, otasi ham bilim va kitobdir. U bizning sadoqatli va sevimli do'stimiz. Undan hamisha hayratlanamiz, o'rganamiz, mehriga tashnamiz. Chunki u bizga hayotning ilk ashulasi – alla kabi onamizning tillaridan umrimizga to'kil-gan. Biz uni farzandlarimiz, avlodlarimizga yetkazishdan ilhomlanib yashayotirmiz. Kitob-lar birinchi o'rgangan harfimizday ardoqli, shu harflarni o'rgatgan mukarram ustoz. U – aytib ado qilolmas ertagimizday go'zal.

Talabalik va o'qituvchilik davrimda ko'proq kitob yiqqanman, hozirgi kunda ham kutubxo-namni boyitib borish kundalik ishim, ehtiyojim. Bir so'z bilan aytganda, bolaligimdan menga kitoblar, qalam, she'riyat, ijod deb atalmish ne'mat nasib etganiga benihoya shukronalar keltiraman. Xuddi shu shukronalik – cheksiz baxtim, umrim go'zalligi.

Kitob ertangi kunimizning sahifalaridir. Ularni biz va avlodlarimiz yozayotir, yozajaklar. Bu ta'riflarning adog'i ko'rinmaydi. Shubhasiz, adabiyot sahni keng, ufqlari cheksiz, bog'lari tarovatli, tog'lari osmono'par, daryolari shid-datkor, shamollari uchqur. Shunday olam aro olam-olam kitoblar yaratilayotgan ekan, ularning o'quvchisiga aylanaylik. Kitob o'qiylik, ko'proq va hamisha o'qiylik!

*Qo'limda bobomdan tug',
Qiz boshimga mardona...*



Kuz edi, barglarga singdim sarg'arib,
Kuz edi, xazonday to'kildim chog'i.
Kuz edi, yo'llarim yo'lidan toygach,
Kuz edi shamolga ochiq quchog'im.

Kuzgi osmonlarga boy berdim seni,
Tugadim. Boshlandi qiyomat-qoyim.
Qo'llaringdan tutib qaytmoqchi edim,
Qo'llarimni sensiz qo'ydi Xudoyim!

Kuz edi, men senga singmoqchi edim.

Metroda

Aprel hislariga hamohang bo'lib,
Bo'ynimda ro'molcham raqs tushayotir.
Hislarim yomg'irdek ko'zimga to'lib,
Nigohim kimnidir, o, xushlayotir.
U kimdir,

boshidan oyog'i ishq - may.
U kimdir, ko'zimga sanchib o'tdi nish.
Hatto o'zi bilmay, o'zi ham sezmay
Ko'nglimga muhabbat solgan notanish.
Ichimda g'alayon, savash boshlandi.
Bu nima, koyishmi, urishmi, ohmi?
Bir bekat odamday yashash boshlandi.
Bir bekat odamday sevsam, gunohmi?
Bilmadim,
jim keldim,
qilolmadim ahd,
Sezmadi, ko'zlarim yoshlanganini.
Bilmadi, yonida turganini baxt,
Bilmadi, bir bekat yashaganimni...

2005-yili Farg'ona viloyatida tug'ilgan.
7-15-son nomidagi Davlat mukofoti
Farg'ona viloyati universiteti

Tog'day qanot so'radim,
Qanot bermadi qushlar.
Orzu bo'lib aldadi
Ertasi yorug' tushlar.
Men shamol bo'lmoqchiydim,
Men ohang bo'lmoqchiydim,
Labimga kulgu bosdim,
Yovmit zafarlar quchmay.

Yakun topdi bolalik,
Jimirlab ketar etim.
Men bilgan ertaklarda
Qullar ozod, hur edi.
Qachon ishonib qoldim,
Qachon, kimlar avradi?
Malika bo'lmoqchiydim,
"Urto'qmoq"lar aldadi.

Faqat osmon o'zgarmas,
Birda yomg'ir, birda qor.
"Oq terakmi, ko'k terak",
Dunyo degan savdo bor.

Shamol sochimdan tortar,
Chalg'itadi o'yimdan.
Endi qayga qochaman,
Ilon chiqqan uyimdan.

Mayda-mayda tashvishlar,
Maydalashib boraman.
Ovloqda sarkash bilan
May talashib boraman.

Qo'limda bobomdan tug',
Qiz boshimga mardona.
Siz jim yoting, botirlar,
Men savashib boraman.

Turon degan Vatanni
Men talashib boraman!

"Sabbayi sayyor"ni o'qib

(Turkum)

1.
Osmon -
Yig'isi qotgan bulut,
Oxiri ko'rinmas sel.
Va bunda haydalgan Lut¹ -
Ko'zlari boylangan el.

Bunda sham edi Yusuf,
Parvonadir Zulayho.
Ikkisi ikki xil yo'l-u,
Biri - shoh, biri - gado.

Bir tanga sig'mas ishq-u,
Iztirob, sitam, davlat.
Nega sevdning, Dilorom?
Davlat edi bu savlat.

Yoki Majnuniy ishqdir,
Va lek yetmoqqa kech ham.
Axiysi yo'q qavmning
Farruxi bo'lmas hecham.

Bunda kim qalb zargari,
Yana aytsin, kim qallob?
Har yonim yaltiroq so'z,
Har yonimda Zayd Zahhob!

Nahot men anglamadim,
Sof deb bilgandim taxtni.
Xato qilmadimi el,
Podshoga mengzab baxtin?

2.
Osmon.
Yetim qiz. Ko'z yosh.
Toshlar yorilmaganmish.
Hali o'smagan Barchin,
Tug'ilmagani Alpomish!



Hali yozilmagan she'r,
Surilmagan bir xayol.
Hali xastahol shoir,
Hali o'lmagan ayol!

Barini unutgan qiz,
Baridan un kutgan qiz.
Ko'zlarini jim yumib,
Baridan un yutgan qiz.

Ertakka ishonganman,
Ertakning murodi bor.
Senga rahmim keladi,
Hali topilmagan yor.

Bitta qurbon men emas,
Axir, yelmagan yelmiz.
Quvonchi mayda-mayda,
Ko'zyoshi butun elmiz.

Osmon.
Yig'isi qotgan bulut.

¹ Lut alayhissalom qissasiga ishora.

Ulkan qanotli qiz

Yozuvchi Mohira Eshpo'latovaga maktub



Alisher FAYZULLAYEV

1988-yili Navoiy viloyatida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika fakultetini bitirgan. "Ajdard sayyorasi" nomli kitobi nashr etilgan. Amerikalik arman yozuvchisi Uilyam Saroyanning "Daho" nomli hikoyalar to'plamini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Mohira,
anovi qanotli gapni eshitgan bo'lishing kerak: "Hamma yo'llar Rimga eltadi". Adabiyotda esa hamma yo'llar mehnatga chorlaydigan o'xshaydi. Sen dashtni bahordagi ahvolini yaxshi bilasan, hut oyoq ko'tarib, uzoqdan hamal ko'rini boshlaganda, dasht yomg'ir-u pistoqga to'ladi. Urug'dan yangi ungan maysalar dashtning keyingi tappoqti-yu oftobini xayoliga keltirmay g'ujg'on ko'tarilib kelaveradi. O'sha avlod bizmiz – sen, men, atrofdagilar, katta-kichkina, baland-past, oriq-semiz, shoir-yozuvchi. Biz hali o'sha maysalardan nariga o'tmadik, ildizlarimiz nimjon – yozayotganlarimiz, da'vayimiz ham. Agar o'zimizni bu issiq-sovuqda toblamasak, mehnatda pishmaslik – quriymiz.

Ha, mayli, bu gaplarni ortiqcha dema – boshidanoq shundan gapirganim uchun g'ashing kelmasin. Bu – ko'proq o'zimga aytgan so'zim, faqat o'rtaga seni qo'shdim, o'zimning ham tishimga toshdek tegmasin, deb.

Katena – ildizga qaytishga urinish. Avlodlar o'z ajdodlari yelkasiga chiqib osmon toqiga qo'l uzatadilar (sen ham, umuman, hammamiz shundan yoza boshladik), shu bois har bir ijodkor o'z ildiziga nazar solishi – yaxshi jarayon. Bundan Katena-ga o'xshagan esse-maktublar yaraladi. Ehtimol, aslida, bu ham kamdir, romanlar yozishing kerakdir.

Kitob nom olgan alohida hikoya: "Qirq birinchi kun". U o'zida evrilish unsurini jo etgan. Nozima degan qizning umurtqasidan, mana, qirq kunki, qanot o'sib chiqyapti. Bu Markesning "Ulkan qanotli mo'ysafid" hikoyasini eslatib yuboradi, ammo Markesda mo'ysafidning qanoti avvaldan bor edi – u yomg'irli tunda bolasi betob kambag'alning odamning qulab tushadi, sening Nozimang esa "kasal". U o'z odamning yangi evolyutsiyasi – qanotli varianti.

Vogea Nozimaning ulkan ilmiy-tibbiy markazning yettinchi qavatidagi keng oynavand xonasida katta

ko'zguga tikilib o'tirganidan boshlanadi. U yelkasida kundan-kun kattaroq bo'lib o'sayotgan qanotlariga qaraydi. Qanotlar xuddi farishtaniki kabi oppoq. Ammo qiz qanotlarni qabul qila olmaydi, bu uning uchun Xudoning ne'mati emas, aksincha, sinovi, jazosi. Bu qanotlar uni mahluqqa, o'rganish zarur bo'lgan laboratoriya kalamushiga aylantirgan. Keyinroq uning hamshirasi, ota-onasi munosabatidan ham xuddi shu fikr yaqqolroq ko'rsatiladi. U jamiyatdan chetlatilgan, nafaqat chetlatilgan, balki ixotalangan maxluqcha rolini oxirigacha o'ynashni istamaydi. Allaqachon bu holatdan zerikkan, avvalo, u uyidagilarni sog'ingan va ularni ko'rish bu holatni o'zgartiradi, deb o'ylaydi. Ammo oxir-oqibat, u bu borada ham umidini uzishga majbur bo'ladi. U hammadan qochib, yolg'iz qolgachgina qanotlariga qisman ko'nikadi. Qanotlar uning oyog'ini yerdan uzadilar-u, ammo uzoqlarga olib ketmay, bir nuqtada muallaq tutadilar.

U yelkasida kundan-kun kattaroq bo'lib o'sayotgan qanotlariga qaraydi.



Hikoya o'z qanotlarini qabul qilolmayotgan qiz haqida emas. Alohidalik – bu egoning bir qismi, hamma o'zini alohida sanaydi bu dunyoda. Bu yerda gap atrof-muhit odamga qanday ta'sir qilishi haqida. Sen bir qizchaga qanot yopishtirib, uning atrofida qanday munosabat qilishlarini ko'rsatmoqchisan: axir, qahramoning orqasidan hamma oyog'i kuygan tovuqqa o'xshab yuguryapti. Ota-onasi; qancha professorlar; yigit; qo'ni-qo'shnilar; mehribon hamshira. Ular uchun bu g'ayritabiiylik ortida "ortig'i-yu kami" bor va o'z manfaatlari yo'lida harakat qilishdan boshqa choralari yo'q. Alaloqibat, qizning muallaq qolishini ham shu bilan asoslasi bo'ladi, ya'ni u o'ziga nisbatan bunaqa munosabat bilan uchi ketolmas edi. Bu mehrsizlik, ikkiyuzlamachilik hech qaysi odamni tepaga ko'tarmaydi, aksincha, yerga, shu odamlar

va shu jamiyat ichiga mixlab qo'yadi.

Hikoyang zo'r. Shunaqa erkin va to'lib yozganing seziladi. Uslubingda shahar nasri nuqsi bor, odatan, sendan qishloqqa xos nimadir kutaman, negadir shunaqa. Lekin aksi bo'laveradi.

Vogearlar tizimi, qahramonlar xarakteri, dialoglar yaxshi qurilgan, o'sib boryapsan. O'z tiling bor, ammo ba'zida o'sha tilni esingdan chiqarib qo'yasan. Ayrim joylarda pafos bilan yozishni boshlaysan, bilaman, quvnoq ohangda yozishni yoqtirasan va bu senga yarashadi ham, ammo pafos emas. Ba'zida esa qup-quruq. Xuddi rasmiy tilda gapirayotgandek, hujjat to'ldirayotgandek tuyiladi. Lekin sal o'tmay hammasi yana iziga tushadi.

Rosti, sen uchun xursand bo'ldim. Hazilakam gap emas, jo'yagina kitobing chiqdi. Bundan keyin katta nasrga harakat qil. Omadingni bersin!

Hammaslaging Alisher



**Mohira
ESHPO'LATOVA**

1995-yili Navoiy viloyatida tug'ilgan. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti. "Olov raqsi" (2023), "Qirg' birinchi kun" (2024) nomli hikoyalar to'plami nashr etilgan. Zomin seminari ishtirokchisi (2022), "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti sohibasi (2024).

Qaytish

Hikoya

Yarim tun...

Ramiz uyg'ondi – yomon tushidan xalos bo'ldi. Vaqt qay mahal bo'lganini anglolmadi.

U yoqdan bu yoqqa zuv-zuv qatnayotgan mashinalarning sarg'ish-qizg'ish chiroqlari yettinchi qavat rovonidan turib ko'chaga tikilgan. Ramizning ko'zlarini jimirlatar, talmovsiragan holida qorong'i tun, shahar binolari, ko'cha chiroqlari, hammasi chaplanib yaxlit bir rangtasvir uslubidagi kartinadek ko'rinar edi. U "rasm"ga qararkan, qandaydir bir kuch qora o'p'qon tomon tortib ketayotgandek, boshi pastga og'a boshladi. Miyasiga yana o'sha fikr kelib urildi: "Shu yerdan o'zimni tashlasam, hammasidan qutulamanmi? Tugaydimi shunda bu azoblar?"

Ramiz yana aloq-chaloq tush ko'rib uyg'ongan edi. Aniqrog'i, o'zini uyg'onishga majburlagandi. U suv-suv bo'lib terlab ketgan, kiyimi tanasiga chippa yopishib, peshonasi va burni ustidan terlar irmoq hosil qilib oqib tushardi. Bezovta yuragi gupillar, havo yetmayotganday chuqur-chuqur nafas olar edi...

Baxtiga, u har kuni tush ko'rmaydi, ammo doim, uzluksiz bitta holatni yashaydi. Makonsizlik, kulrang bo'shliq, tinmasdan olg'a intilib yugurish. Tamom. Faqat shu. Yugurganda ham jonholatda tez, tanasini oldga tashlab chopar edi. Oldinda nimadir bor, unga yetib olish hissi butun vujudini egallab, harakatga undardi. Ramizning xayolini "Nima bo'lgan taqdirdayam, yetib olish kerak, qo'yib yubormaslik kerak", degan o'y band etardi. Bu fikr bosimining va tez yugurishning oxiri yo'q edi. Tushda charchaganini, terlab ketganini his etmasdi. Faqat shularni tasavvur qilardi. Bu o'ylar hatto borliqdan ajralib, chuqur uyquga ketganida ham tark etmasdi. Uyg'ongachgina oxiri ko'rinmaydigan marafon yugurishning og'ir charchog'ini his etar, tongni tushkun kayfiyatda boshlar edi. Ayni paytda u ham tanasida, ham ruhida chuqur toliqishni sezardi. Odamlar ertalab uyqudan yashashga yangi kuch olib uyg'onsa, uning holi shu edi. Bu holga yana qancha chiday olishini ham bilmasdi.

U ikki kafti bilan boshini qattiq siqdi. Boshi og'riqning zo'ridan qo'llari orasidan otilib chiqib ketadigandek edi go'yo. Yana biroz shu kayfiyatda rovonda tursa, o'zini bir nima qilib qo'yishdan qo'rqdi. Tanish raqamga qo'ng'iroq qilib gaplashdi, qisqa suhbatdan so'ng uydan chiqib ketdi.

– Bir eskichaga ko'rsatib o'qitvoramizmi seni? – dedi Ramizning yelkasiga qo'l tashlab do'sti.

– Hazil ko'taradigan kayfiyatdamasman, – deb uning qo'lini zarda bilan itarib tashladi Ramiz.

– Jiddiy aytyapman.

– Shu bilan yomon tushlarimdan qutulamanmi?

– Xudo biladi.

– Naf qilmasa-chi?

– O'shanda o'ylab ko'ramiz qolganini...

Ramiz uning ko'zlariga qattiq tikildi. Nimanidir, istagani – taskinnimi, xayrixohliknimi yo shunchaki mehnimi ko'rgach, bo'shashib qoldi. O'z-o'ziga "Bu yerda nima qilyapman?" degan savolni berdi. "Nimani eshitishni istayman o'zi, nega yarim kecha to'ppa-to'g'ri uning yoniga keldim? Nega? Shunchaki yolg'iz qolishdan qo'rqqanim uchun keldim. Ba'zan yoningda kimdir bo'lishini xohlaysan, o'zingni yo'qotgan dunyoga tun cho'ksa, o'zing bilan yolg'iz qolishdan qo'rqinchlisi yo'q. U esa jon kuydirib gapiryapti, maslahatim u uchun muhim, inobatga oladi, deb o'ylayapti. Aslida, hammasi menga baribir ekanini qayerdan ham bilsin?!" Ramizning do'sti oldida vijdoni qiynaldi.

– Ke, buni o'tkazib yuboramiz. Yana boshqa taklifing bormi? – dedi o'zini jiddiy tinglayotganday ko'rsatib.

– O'ylamaslik. Tushunmayman, nimani o'ylab, buncha parishonxotir, yer chizib yurasan. Xayolingni band qilgan, o'ylab siqilganlaring tushingga kiriyapti.



Rasmlarni Bekzod Yo'ldoshev chizdi.

O'ylamaslikka harakat qil. O'zi nima qiynaydi seni? Hamma narsang bo'lsa, birovdan kaming yo'q. Oilang tinch, yana bilmadim, xotining bilan biror muammong bordir, desam, avvaldan, uylanishingdan oldin ham bu "kasaling" bor edi. Hech tuzalmading-tuzalmading-da.

– Ha, onasini emsin, sen aytganday, hamma narsam bor! Baxtsiz bo'lishga haqqim yo'q! O'zimni shunday his etishim noshukurlik! Ammo nima qilay, hayotimdan zavq va lazzatni topolmasam? Hammasi vaqtincha, go'yo og'riqsizlantiruvchi doridek. Ta'siri o'tib ketgach, yana tushkunlik, bezovtalik, tunda nihoyasiz yugurish boshlanadi. Ishonasanmi, uxlashdan qo'rqib qolganman. O'lguday charchaguncha ishlayman. Jismoniy charchoq qotib uxlashga yordam beradi, degan umidda! Ha, ba'zan bu ish beradi, taxtadek qotaman. Lekin qachongacha shunday davom etishi mumkin? Men ham boshqalarga o'xshab yashashdan qo'rqmaslikni istayman. Tinch yotib, tinch turib, xotirjam kun kechirishni istayman... – Ramiz oxirgi gaplarining har bir so'zini chertib-chertib, qizishib gapirdi.

– Psixolog bilan gaplashib ko'rasanmi? Hozirgi yomon qovunni urug'iday bolalab ketganlaridan emas, haqiqiy professionalidan topamiz senga. Xo'sh, nima deysan?

Ramiz do'sti bilan xayrlashganda tong ota boshlagan edi. Avtomobillar siyrak yo'l chetidan hozirgina bo'lgan suhbatni tahlil qilib ketayotgandi. Anhor ustidagi ko'prikdan o'tayotib, tonggi salqin havoda sayr qilish fikri tug'ildi. Atrof shovqinsiz, kimsasiz, faqat ko'priklar ustuniga katta kuch bilan kelib suvning urilishidan hosil bo'lgan shovullashgina eshitiladi. Anhor yoqalab ketgani sari shavur ham eshitilmay qo'ydi. Yo'lda suvga qarmoq tashlab o'tirgan odamga duch keldi.

– Ilinyaptimi? – deb so'radi u baliqchi yoniga kelib.

– O'zi hozir tashladim qarmoqni, – deb beparvo, biroz ensa qotirib javob berdi baliqchi.

– Baliq bormikan o'zi bu anhorda?

– E, nega bo'lmaskan, shunaqa zo'rlari borki! Qunduzlar, ilonlar ham yashaydi.

– Yaqin-atrofdan turasiz, shekilli?

– Shu yerlarda. Bahor, yozda shu atrofda Sovuq tushsa, "dom"larning yerto'lasiga ko'chaman.

– Nima, muqim yashaydigan uyingiz yo'qmi hali?

– Yo'q, aniqrog'i, endi yo'q.

– Nega? Nima bo'ldi o'zi?

– Sizga nima? Yo'lingizdan qolmasangiz-chi!

– To'g'ri, menga nima? Shunchaki, gap yo'g'ida gap-da buyam... Qiziq, ko'rinishingizdan ko'chada yashaydiganlarga o'xshamaysiz. Ular badbo'y, kir-chir, piyonistalardan dunyodan umidini uzgan bo'lishadi.

Baliqchi samimiy kulib Ramizga qarab qo'ydi. Shunda bu odamning qavat-qavat ajinlari, qalin qoshlari ostidan ko'zlari aql bilan yonib turgani ko'rindi.

– Odamzod farovonlikning qaysidir nuqtasidan turib, har doim kunim shunday o'tadi, deb o'ylaydi. Men ham shularning biriman-da, nima qilay? Hozirgi turmushim bitta vaqtlar yetti uxlab tushimga kirmagan. Ammo nolimayman. Bitta odamga kerak hamma narsam bor: uxlashga joy, yeyishga ovqat, nafas olishga toza havo, erk, xotirjamlik! Vaqt o'tgach, manaman deganlarining ham nomi yo'q bo'lib ketadiganlarmiz. Nimasiga kuyasan dunyoning to'g'rimi?

U yelkalari silkinib-silkinib kuldi. Shunda og'zida qolgan sanoqli sarg'ish tishlari ko'rindi. Ramiz jirkandi. Suhbatdan keyin undan uzoqlasharkan, ortidan hushtak ovozi eshitildi. Baliqchi qarmoqqa ilingan, kattaligi bilakdek keladigan baliqni baland ko'tarib:

– Ko'ryapsizmi, bu yerda baliq bor! – dedi. Baliq baquvvat panjadan chiqishga urinib, jonholatda tipirchilar, baliqchi esa butun

dunyoning egasiga aylanib qolgandek xursand, chin dildan quvonayotgan edi. Ortiq Ramizga baliqchining ahvoli ham, tishsiz og'zini katta ochib kulishi ham ayanchli ko'rinmasdi.

Markaziy ko'chalardan birida yo'lchiroq ishlamayotgandi. Uning qizil chirog'i piyodalar uchun yoniq holda qotib qolgan, betoqat bo'layotgan odamlarning ustidan kulayotgandek taassurot uyg'otar edi. Mashinalar odamlarga o'tib olish uchun yo'l bermay, o'n daqiqadan beri ko'chaning narigi tarafga o'tolmayotgan Ramiz asabiylasha boshladi. Qarama-qarshi tarafdin odamlar yo'lga qaray-qaray ehtiyotkorlik bilan kela boshlaganini ko'rgach, beixtiyor o'zi ham taraddudlandi. Shu payt kutilmaganda biroz oldinda turgan ayolning qo'lidan besh-olti yoshlardagi o'g'il bola yulqinib chiqib oldinga yugurib ketdi. Ayol chinqirib yubordi. Chap tarafdin katta tezlikda mashinalar yaqinlashib kelar, bolakay esa mutlaqo hech nimaga qaramay sakrab-sakrab yugurib ketayotgan edi. Ramiz oniy lahzada yaqinlashib kelayotgan xavfni sezdi va bolaning ortidan otildi. U mashinalar, odamlar, hatto o'zini ham batamom unutgandi. Ramiz oldinda yugurib ketayotgan bolaning ko'rardi. Hamma narsa xuddi azaliy takrorlanuvchi tushidagidek edi, ammo muhim bitta farqi bor edi, bu – obyektning aniqligi. Bolaning ortidan yugurgan qisqa vaqt uzoq yillar davom etgandek tuyildi unga. Yetib borgach, uni shartta ko'tarib olib, mahkam bag'riga bosdi. Shu payt ularning shundoqqina yonidan mashina signal chalgancha tezlikda o'tib ketdi. Bola nima bo'layotganini anglamay, begona odamning bag'ridan chiqish uchun tipirchilar, nimalardir deb g'ingshir edi. Ramiz uni quchoqlagancha tushida yashayotganday edi. Boyagi ayol ham uning ortidan yetib kelib qayta-qayta rahmat aytdi. Ko'rinishidan qo'rqib ketgani yaqqol sezilib turar, bolani Ramizning qo'lidan o'z

bag'riga tortib olishga urinar edi. Ramiz esa karaxt ahvolda uning so'zlarini eshitmasdi. Ayol bir amallab undan bolani olgach, Ramiz bo'shab qolgan qaltiroq qo'llariga qarab tush va hush o'rtasida haydovchilarning signali va so'kishlariga nishon bo'lib turib qoldi.

"Uka, hech nimani his etmay yotish qanday ekan? Na issiqni bilasan, na sovuqni. Ustingni qora tuproq yopganmi yo yumshoq ko'rpa, farqi yo'q. Demak, mana shunday- mana shunday qilib go'ringni qo'llarim bilan silab erkalasam ham sezmayсан, to'g'rimi? Sochlaringni silab xuddi xo'rozning tojidek tikka-tikka qilib qo'yganlarim esimga tushdi. Ko'rinishing juda kulgili edi. Hozir ham o'zimni kulgidan to'xtatolmayman, sen menga qo'shib o'zingning ustingdan qotib, miriqib kularding..."

Qo'y, indama, shunday kulib-kulib yig'lab olay. Yig'lab-yig'lab ichimni bo'shatay. Akang shunchalik to'lib ketganki, ukam, ichiga havo ham kirmayapti. Bugun birovga sira aytmagan gaplarimni senga to'kib solmoqchiman. Zora, shu bilan yengil tortsam. Eshitasan-a? Sen tug'ilganda kichkina bola bo'lganman, lekin bari esimda. Bahor edi. Yomg'irlar mavsumi boshlangan, hech tinay demas edi. Ayam tug'uruqdan chiqar kuni dadamga, men ham boraman, deb turib olganman. Dadam esa: "Endi katta bola bo'lding, akalar ukasini kutib uyda o'tiradi", – degandi. Sizlarni ko'chaga chiqib kutib turganman. Ko'chaning muyulishidan dadamning moshinasi ko'rinishi bilan uyga kirib hammani ogohlantirganman: "Ukam kelyapti, he-e-ey, chiqinglar, ukam kelyapti!" Ayamning qo'lida oppoq matolarga o'ralgan seni ko'rib "Menga bering!" deb ko'tarmoqchi bo'lganman. Tabiiyki, joniqqan akangga ishonmay seni ko'tarishga berishmagan. Keyinchalik mitti odamchani ko'rib qo'l tekizishgayam qo'rqqanman. Aniq eslayman, sen oppoq, jikkakkina, soch-u

qoshsiz eding, uzun-uzun kipriklaring esa yaqqol ko'zga tashlanib turardi.

Lablaring bo'rtib turar, nuqul tamshanarding, uzoq uxlarding. Barmoqlaring jajji edi, odamning shunchalik kichkina bo'lishi mumkinligi tasavvurimga sig'masdi. Go'yo ushlasam, ziyon yetadigandek tuyilardi. Sen juda chiroyli bola bo'lgansan. Sochlaring tillarang, o'zing oppoqqina, og'zingdan suving oqib yurar edi. Tinmasding, bir soniya bir joyda tek turmasding. Men sening orqangdan yugurib charchadim. O'sha kuniyam... Ha, o'sha kun! Nega mendan qochganding o'zi? Nega quvdim seni? O'yinmidi yo nimanidir bo'lisholmadikmi? Esimda yo'q. Hammasi juda tez sodir bo'lgan, dastlab angolmay qolganman. Yodimda qolgani, mendan qochib o'qdek otilib darvozadan chiqding, osmondan tushgandek paydo bo'lgan oq moshina, signal, tormozning chiyillashi, itning hurgani, qon va darvozadan chiqishga ulgurmay qolgan men! Tamom.

Avvaliga nima bo'lganini ko'rishga ulgurmagan bo'lsam, keyin oqibatiga qarolmadim. Ko'zlarimni kaftlarimga yashirdim. Qoning bilan bo'yalgan asfalt, bir chetda yotgan pajmurda tanangga qarolmasdim. Bir lahzada uyda qiyomat boshlandi. Dahshat! O'sha yerda meni hech kim ko'rmadi, so'ramadi, ayblamadi, ammo men ham bor edim! Bor edim! O'shandan boshlangan ekan ko'z yumib yashash, qochish, go'yo tuyaqush boshini qumga tiqib omonlik istagandek. Janozada ham qabring boshiga kelolmadim. So'nggi makoningga dadam qo'ygan ekan. Men kelolmadim, ukam, kechir! Qarolmasdim qabringga. Irodam yetmasdi. O'shanda yosh bola edim, to'g'ri, lekin undan keyin ulg'aygach ham haqiqatga tik qarash, tan olishdan qochib yashabman. Ortga qarashdan juda-juda qo'rqib yashabman, ukam. U yerda serkiprik chiroyli ko'zlaringni ma'sumlik bilan tikib: "Meni nima qilib qo'ydingiz, aka?" – degandek qarab turgan sen bor eding,

ukam! Sen! Akangning mana shu ko'ksiga ursa, bo'm-bo'sh idishdan chiqadigan tovush chiqadi, gup-gup-gup... Men aybdorman. Seni o'limgacha quvib bordim. Shu xotira yuki bilan yashash akangga qanchalik og'ir ekanini bilsayding, ukam. O'zimning aybdorligimni bilib yashashda davom etish uchun qancha kuch sarflayotganimni bilsayding. Axir, men bunday bo'lishini istamagandim-ku...

Gohi sen qanday yigit bo'lishing mumkinligi haqida o'ylayman. Sen tirik bo'lganingda, qanday yaxshi bo'lardi-ya! Ota-onamiz yolg'iz bolam deya bor umidini menga bog'lamagan, o'zim ham bu mas'uliyat bosimidan qiynalib yashamagan bo'larmidim? Tom ma'noda ozod yasharmidim, bilmadim. Balki, bir kam dunyoda bitta muammoni o'zim uchun yaratib olib, u bilan andarmon umr o'tkazardim. Bilmadim, har holda, hamma narsaga chora bor. O'limdan boshqal. Seni sog'indim, eshityapsanmi? Judayam. Bolaligimni, o'sha tashvishsiz yugurib yurgan hovlimizni, tiniq, toza ruhli Ramizni sog'inganman. Odam uchun bu dunyoda o'limdan keyin hamma narsa tugaydi. Menda esa sendan keyin tugagandek tuyiladi".

Uyga kutilmaganda kirib kelgan Ramizni eshik ostonasida ko'rgan onasi hayratda qoldi. O'g'lini g'alati, yuzida hech bir ifodasiz, ko'zlari shishib ketgan holda ko'rib hayratiga qo'rquv qo'shildi va nimadir tikib o'tirgan o'rnidan turolmadi.

– Iii, ulim, o'zingmisan?

Ramiz jilmayishga urindi: "O'zim". U to'g'ri kelib onasining tizzasiga bosh qo'yib, qo'llarini boricha ochib quchoqladi.

– Nima bo'ldi senga? Biron joying og'riyaptimi?

Ramiz past, allaqanday mungli ovozdada:

– Yo'q, aya. Hammasi joyida... Endi yaxshiman. Sizga bir narsani aytib berishim kerak... – dedi.

BELLASHUV

"Alpomish" dostonidan: Qultoy va Bodom bekach aytishuvi



O'zbekiston xalq baxshisi
Abdunazar POYONOVdan
folklorshunos
O'ktam HAKIMOV
2010-yili
10-oktyabrda
yozib olgan.

ham, uli Ultontoz mamlakatga bek bo'lgach, "Bodom bekach", "Bodom bekach" deb hamma hurmat qiladigan bo'lgan edi. Ana shunda olchanglab bekach borayotgan Alpomishni ko'rib (Alpomish Qultoy bo'lib borayotgan edi): "Hov Qultoy, qani, sen qayerdan kelyapsan", – dedi. "Ultontoz poshshoning oldidan kelyapman, Oybachinni xotinlikka ko'ndiraman deb boryapman", – dedi. "Ey Xudoy, uyg'uy Qultoy, gapingga ishonmiyman", – dedi. "Nimaga ishonmiysan?" – dedi Qultoy. "Shu yoshingga dovuy meni ko'ndiya olmagani, uni qanday ko'ndiyasan", – dedi hiringlab bekach.

– Ko'ndiraman ham, zo'rligimni bildiraman ham, bul ishlarni, hali ko'rasan, men tindiraman ham, – dedi Qultoy.

Bu gaplarni eshitib g'ayrati qo'zigan bekach: "Mayli, avval men bilan o'lan aytib biy bellash, gapingga ishonay", – dedi. Qultoyning ham kishti kelib: "Hay-a, aytishsam aytishaverman", – dedi. "Qani, o'lanni bosh-la bo'masa, Qultoy", – dedi bekach. "Yo'q-yo'q, sen boshlaysan, sening obro'ying baland – xotin bo'lsang ham, Ultontozning enasisan, men senga javob aytaman", – deganidan keyin, ana shunda ikkovi o'lan aytishadigan bo'ldi. Jo'g'ari to'mandan qizlar-jigitlar kelishib tomosho qilaverdi. O'lanni Bodom bekach boshlayotir, Qultoy javob berishga shoylanayotir.

Qultoy qiyofasi-dagi Alpomish Ultontozning saroyidan chiqib shunday borayotib edi, Ultontozning enasi Bodom bekach oldidan chiqib qoldi. Vaqti zamonida Bodom cho'rilik qilib, tuya boqib jurganida galaning orqasida uxlab qolib, tilini hakka cho'qib ketgan edi. Shundan beri soqov bo'lib qolgan edi. Qarasa, shu Ultontozning enasi – Bodom soqov kelayotgan ekan. Odamlar avval Bodom soqov desa

Bodom bekach:

Soyi-soyi saykalay
 Qo'yni boshlay, yoy-yoy,
 Ultontozday sultonga-ya
 Tanga tashlay, yoy-yoy.
 Quloq solgin, Qultoy chol-a,
 O'lan boshlay, yoy-yoy,
 Qiziq-qiziq aytinglay,
 Qiz-kelinlay, yoy-yoy.
 Shul o'lanning oxiri
 Qizig'-a bo'lsin, yoy-yoy.

Qultoy:

Sori-sori sarkalar
 Qo'yni boshlar, yor-yor,
 Suluv-suluv kelinlar
 Zulpak tashar, yor-yor.
 Alpomishdan qolgan molni Ultontozing
 Kimga xorshlar, yor-yor.
 Qiziq-qiziq ayt manglar,



Qiz-kelinlar, yor-yor,
 Shu o'lanning oxiri
 Buzig'-a bo'lsin, yor-yor.

Bodom bekach:

Qizlig'imda, Qultoy qul,
 Toshay edim, yoy-yoy.
 Toshganimda tog'laydanay
 Oshay edim, yoy-yoy.
 Senday-senday qullay ko'p.
 Qo'ng'iyat elda, yoy-yoy.
 Sendaylayni men loydan
 Josay edim, yoy-yoy.
 Qiziq-qiziq oytinglay,
 Qiz-kelinlay, yoy-yoy.
 Shu o'lanning oxiri,
 Qizig'-a bo'lsin, yoy-yoy.

Qultoy:

Qizlig'ingda, yangajon,
 Toshar eding, yor-yor,
 Toshganningda tovlardan
 Oshar eding, yor-yor,
 Mendaylarni sen loydan
 Josar eding, yor-yor.
 Odag'ima kelganda
 Shoshar eding, yor-yor.
 Qiziq-qiziq ayt manglar,
 Qiz-kelinlar, yor-yor,
 Shul o'lanning oxiri
 Buzug'-a bo'lsin, yor-yor.

Bodom bekach:

Odag'ima, Qultoy qul, odog'ima,
 Tushib qolding buguna chotag'ima, yoy-yoy,
 Senday-senday qullay ko'p
 Qo'ng'iyot elda, yoy-yoy.
 Sendaylayni olmayman
 Patagimga, yoy-yoy.
 Qiziq-qiziq aytinglay,
 Qiz-kelinlay, yoy yoy.

Shu o'lanning oxiri
 Qizig'-a bo'lsin, yoy-yoy.

Qultoy:

Odag'ingga, yangajon, odag'ingga, yor-yor,
 Bugun meni oldingga chotag'ingga, yor-yor.
 Olmasanga olmagin patangingga, yor-yor,
 Xo'rozimni qomayina xatangingga, yor-yor.
 Yarim kecha kirayina jotog'ingga, yor-yor.
 Qiziq-qiziq ayt manglar, qiz-kelinlar, yor-yor.
 Shu o'lanning oxiri buzug'-a bo'lsin, yor-yor.


Bodom bekach:

Jolg'iz ulim bek bo'ldi juytima-juytima,
 Qayamayman, Qultoy qul, betinga-betinga.
 Senday-senday qullay ko'p qo'ng'iyat elda, yoy-yoy.
 Sendaylayni olmayman itimaya, itima.
 Qiziq-qiziq aytinglay, qiz-kelinlay, yoy-yoy.
 Shu o'lanning oxiri qizig'-a bo'lsin, yoy-yoy.

Qultoy:


Ondiringdan, yangajon, ondiringdan,
 Patir jovib non jiyin tondiringdan,
 Ola ko'ppak, deding-a sen meni-ya, yor-yor,
 Ola ko'ppak tortsin-a chondiringdan, yor-yor.
 Qiziq-qiziq ayt manglar, qiz-kelinlar, yor-yor.
 Shu o'lanning oxiri buzug'-a bo'lsin, yor-yor.

Ana shunda aytishuvdan so'ng Bodom bekach
 chiday olmay qoldi. "Xudoy uyguy Qultoy, nima
 deyapsan?" – deb Qultoyning jog'asidan ola ketdi.
 Shunda Qultoy ham shoshib qoldi. Soqol-muriti
 yasama edi, julinib ketishidan qo'rqib ketib, hay-
 hay senga nima bo'ldi, senga nima bo'ldi, buni endi
 bir to'y desayam, buni endi bellashuv, desayam
 tag'in qo'ymadi.



Shunda jigit-qizlar oracha qilib: "Hay,
 to'yda urishmanglar, uyat bo'ladi", – deb
 ikkovini ikki joqqa tortib-tortib oyirib
 jubordi. Shunda Qultoy ham o'z yo'lga
 ketaverdi. Bodom bekach ham iziga qay-
 tib: "Xudoy uyguy Qultoy, buloq suvingni
 tindiyasam, aytganimni qildiymasam,
 Ultontoz bek ulimga aytib shu bir sening
 qizil tilingni juldiymasam, avvali puting-
 dan doyga ildiyasam", – deb qarg'ab-qa-
 rg'ab ketaverdi.

Ana bundan o'tib Alpomish misli Qul-
 toy bo'lib Barchinoyning o'toviga bordi.





Mehrixon ORTIQOVA

2006-yili Toshkent shahrida tug'ilgan.
Ayni paytda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi.

Biror sohada o'z ishiga jur'at bilan kirishgan yoshlarni ko'rgan mahal beixtiyor kishining zavqi keladi. Shunday paytlari shijoatda ruhiyatga zavq va shavq beradigan allatovur o'ziga xos kuch-quvvatni his etarkanmiz, ruhiyatimiz quvvat olgan tuyg'u ta'siridan vujudimiz rohat tuyishini ham bilamiz. Hech shubhasiz, tana va ruh bir-birini quvvatlantirishi yoki aksincha bo'lishi turgan gap. Yaqinda shunga o'xshash voqea guvohi bo'ldim. Bir salmoqli romanning qo'lyozma variantini o'qiganimda, yoshiga xos bo'lmagan qalamkashning shijoatidan zavqim keldi. Ayniqsa, yosh ijodkorning metafizikadan yaxshigina xabardorligi va buni badiiyatda ham aks ettirishga harakat qilishi quvonarli hol. Bu qalamkash – toliba qiz Mehrixon Ortiqova allaqachon roman bitib ulgurgan, shu sabab men ifoda etmish holat uchun "yoshiga xos bo'lmagan" degan jumla ishlatishimga to'g'ri keldi. Darvoqe, "iqtidor, talant" degan salohiyatning asl quvvati jur'atda namoyon bo'lsa kerak, deb o'ylab ham qoldim. Shunday jur'atli qalamkashning kelajakda milliy adabiyotimizda bo'lakcha asarlar bitishiga ishongan holda omad tilayman.

Xolmuhammad KARIMIY,
yozuvchi

Ilon mojarosi

Hikoya

Yoz kunlaridan biri. O'zimga ovunchoq qidirish hovlida bekor tentirayman. Qo'shnimizing itini birpas quvlagan bo'lib, kallasiga kesak otgach, ancha ko'nglim yoziladi. Buyam bir ermak. Shu zaylda it-mushuk mojarosi bilan ovora bo'lib turgandim, buvim chaqirib qoldilar:

– Bu yoqqa qara-chi, anavi ilonmi?

Ilon! Miyamda mushak portlagandek bo'ldi. Na hotki, menga yangi "do'st" topilsa? Ilonmi, kaltakesakmi, nima farqi bor?! Yugurib borsam, buvim yon qo'shnimizing kattakon g'ishtin devoriga qarab turibdi. Devordan bir nechta eski quvur qolqig'i zanglari chiqib qolgan. Quvurlar ichida esa zag'izg'on deysizmi musichami, ishqilib, qushlar in qurib, tuxum bosib o'tirishadi. O'sha yo'lakdan qadamim uzilmaydi. Nega deysizmi? Barcha tilsiz o'rtoqlarim o'sha yoqda-da! Qo'shnining iti-ku, meni ko'rsa, o'takasi yorilgancha dumini qisib qochadi. Suyak beraman, desam, ishorarman! Shundan keyin qushlardan boshqa o'rtog'im qolmaydi. Bu safar ham o'sha tarafga yugurib borsam, eng baland quvurlardan birida uzun dum osilib turibdi! Qushlar galasi olamni boshlariga ko'tarishgan! Dumga

har yoqdan hamla qilishadi. Ammo dum jimgina osilib turaveradi, sabri toshdan bo'lsa kerak, qimirlamaydi.

– Buvi, bu nimaning dumi? – deya so'rayman, ko'zlarimni katta-katta ochib.

– Ilonning! Boshi qush uyasi ichida! Tuxumlarini yutayotgan bo'lsa kerak. Yugur, Dehqonboy akangni chaqir.

Dehqonboy aka mahalla boshidagi uylarning birida ustachilik qiluvchi nihoyatda xushchaqchaq bir odam. Qo'lidan kelmaydigan ishning o'zi yo'q. Uzoqdagi farzandlarini sog'inadi, chog'i, biz bolalar bilan juda inoq. Iltimoslarimizni hech rad etmaydi. Bu gal ham shunday bo'ldi, xizmat joyidan bir narvon ko'tarib chiqib, ilon tutish uchun men bilan uyimizga yugurdi. Qo'lga mato bo'lagini o'radi-da, narvonga chiqib uzun yashil dumni chapdastlik bilan pastga tortdi. Buvim qo'rqqanlaridan ortiga qochib ketdi. Qushlar to'dasi hamon chug'urdaydi, "pir-pir" etib u yoqdan bu yoqqa

uchib-qo'nishadi. Kutilmaganda shunday hodisa yuz berdiki, nima bo'lganini ilg'ab ololmadim. Bilganim shuki, narvon ustida Dehqonboy aka bir quloq uzunlikdagi yam-yashil ilonni kallasidan siqqancha ushlab turardi.

– Chop, ombordan banka opchiq, solib beraman, – dedi u jilmaygancha, xuddi "Chop, kosa opchiq, murabbo solib beraman", degandek qilib.

Men bir zumda uning aytganini bajo keltirdim. Ilon terisi ajoyib bo'larkan. Ammo nam va sirpanchiq. Yashilvoyning (keyinchalik ilonga shunday laqab qo'yanman) qornimi, dumimi, xullas, butun uzun tanasining bir qismi bo'rtib turardi.

– Dehqonboy aka, bu nima? Ilonvoy ham mushuk bola tug'moqchimi? – deya ajablandim.

– Yo'q, ho'v anavi chumchuqlarni ko'ryapsanmi? Buning qornidagi o'shalarning polaponi. Iloning birovning bolasini yeb qo'yan. Bolasi uchun qushlar g'azabdan chug'urdaydi.

Hali ko'rasan, ona chumchuq kelib hayvonchangdan xunini olmasaydi! Bolasidan osongina voz kechib qo'ymaydi. Ke, bankangga solib beray, men ham ketishim kerak.

Dehqonboy aka Yashilvoyni yangi uyiga joylagach, qopqoqdan havo kirishi uchun teshiklar ochib qo'ydi. Ammo ilon jonivor hadeganda bu qafasga ko'na qolgani yo'q. Ko'p tipirchiladi. Qopqoq teshiklaridan ikki yoqqa kesik tilini chiqarib, ko'zlarini olaytirgancha tahdid solgan bo'ldi. So'ng tipirchilab-tipirchilab charchagach, banka tagiga kulcha bo'lib yotib oldi. Aslida, o'zim ham shuni kutib turgandim. Yugurib borib dugonam Mohini chaqirib chiqdim. Ikkalamiz chopqillagancha uyga kirdik. Men dugonamni ilon qamalagan burchakka boshladim. Yashilvoyimning xuddi o'zi shumtakalik qilgan devor tagiga qo'yib



ketgandim. U yerdagi mojaroni ko'rib o'takam yorilayozdi. Ilonni qushlar to'dasi qurshab olgan. Bankaning atrofi qanotli askarlarga to'la. Sirkka kelgan bolalar to'dasini eslatadi xuddi. Qushlarning oddiy tomoshabinlardan farqi shunda ediki, ular tinmay chug'urlashar, bir polapon xunini qamoqdagi "jinoyatchi"dan olishga urinishar edi. Ilgari qushlarning g'azablanganini ko'rmagan ekanman, o'ziyam yomon bo'larkan. Naq olamni buzaman deydi. O'n-o'n besh chog'li chumchuqning qahrli "chag-chag"lashi hatto mening yuragimni quloq-miyamga qo'shib yulib olganday bo'ldi. Ayniqsa, bitta yirikrog'i kundoshi bilan narsa talashayotgan xotinlar kabi bo'ynini o'n qarich cho'zib "shang'illagani" yetmagandek, mening yoqimtoy iloncham bankasi ustiga o'dag'aylab sakrab qo'yadi. Yashilvoy esa unga javoban og'zini katta ochib po'pisa qiladi. Qush bechora darhol ortga chekinadi-yu, yana bo'ynini oldinga cho'zib jo'jaro'rozdek hurpayib oladi.

– Pisht, pisht, – dedim men.

Mohi yugurib kelib supurgi bilan bir zumda qushlarni uchirib yubordi. Haligi chumchuq ham, biz kelgach, o'zining kichkina ekanini ang'ladi, chog'i, quvurdagi iniga jo'nab qoldi. Mohi ikkimiz zavq-shavqqa to'lib-toshib ilonvoyni obdan tomosha qildik. Qushlardan qo'rqib, boya yutib yuborgan polaponini butunligicha yana ichidan chiqarib yuboribdi. Bechora jonivor murdaga qarashga bezillaganday qip-qizil go'sht bo'lib yotgan chumchuq bolasi o'ligiga yaqinlashmayapti. Ammo bizga bu juda qiziq. Hatto ilondan ham qiziqroq. Lop etib miyamga "Shum bola"dagi Qoravoyning Omon va Eshon bilan o'lik yuvishgani keladi. Qiqirlab-qiqirlab kulaman. Mohi birdan yelkamga shapatlab qoldi. Shirin o'ylarimdan cho'chib ketdim.

– Menda zo'r fikr bor, – dedi u, yuziga jiddiy tus berib.

– Qanaqa?

– Aytganimni qilsang, mo'maygina pul ishlab olamiz.

– Nimaga? Menga pul kerakmas, – deydi ajablanib.

– Senga kerak bo'lmasa, menga berasan har kuni ikkitadan muzqaymoq olish uchun.

Shunday qilib, Mohi menga darvozamiz tagida jim o'tirish buyrug'ini berdi-da, o'zi qayoqqadir yugurib ketdi. Men bo'lsam, odati cha, zerikib, xayolga berildim. Chorak soat o'tar-o'tmas, orqa mahallaga muyulish tomondan baland dupurlagan ovoz eshitildi. Cho'chib o'nimdan turib shovqinga quloq tutdim. Yo'q, bu hayvon podasi emas, mahallamiz churva-qalarining gursillab yugurishi ekan. Nima bala yana qayerdadir ishkal chiqdimi? Yo'q, qo'lim peshonamga soya qilib qaragam, ular to'g'ri nikiga qarab yugurib kelishyapti. Buni qarag'hammasining qo'lida qandaydir varaqchalar! zumda ustabuzarmonlarning kattagina to'da darvozamiz oldida saf tortishdi.

– Tomosha qachon boshlanadi? – deb o'dag'ayladi bir qoracha bola.

– Nima? – degancha tushunmadim men.

– Chiptada shunaqa yozilgan-ku.

U menga qo'lidagi qog'ozni uzatdi. O'qidi Mohining yozuvi.

Mahallamizga sirk keldi. Hamma bolalar dan qo'shningiz, falonchiyevlarning uyiga chiqishingizni so'raymiz.

ps: Ammo pulsiz kelganlar davradan shafqatsizlarcha haydaladi! Narxi kishi boshiga shunchadan. Agar yig'ib qo'yganingiz bo'lsa, ko'proq olib kelavering.

Bu qadar bezbetlarcha yozilgan chiptani birinchi ko'rishim. Hayratdan og'zim lang ochilib, ko'zlarim piyoladay bo'lib ketdi. Shu payt men uchun Mohining maktabda ishlagan miyasi mahallada kashfiyot qilib tashlanganday edi. Negaki, dugonamning dadasining bozorda o'z biznesi borligini, savdo-sotiqqa usta ekanini yaxshi bilardim. Lekin bunchalik bo'lib ketishini bilmagandim. Daf'atan Mohi darvozaxonadan ustiga sochiq yopilgan banka

bilan chelak ko'tarib chiqib qoldi. Men unga qovog'imni uyib qaradim. Dugonam sochiqqa o'rog'liq narsani qo'limga tutqazdi-da, chelakni ko'tarib davradagi bolalarning har biridan pul yig'ib chiqishga kirishdi. Yostiqlik tagida qaytimlardan yig'ib kelinayotgan pullar birin-sirin chelak ichiga tushdi. Shunchalikki, Mohi churvaqalarning ichki cho'ntaklarida yashiringan tangalami ham yig'ishtirib oldi.

– Ana endi, – deya ma'lum qildi dugonam mamnuniyat bilan, – tomoshamizni boshlaymiz!

U qo'limga tutqazib qo'ygan bankani sochiqdan ajratdi. Shisha ichida mening ilonvoyim kulcha bo'lib yotardi. Bechoraginam... Shunchalik rahmim kelib ketdiki unga. Hatto qo'shnining iti bilan urishtirish ham yodimdan chiqib ketdi. Xuddi qamoqqa solingan tutqunga o'xshardi. Mahallamizning pakana landavurlari donga o'zini urgan kabutardek guv etib bankadagi ilonga tashlandilar. Ammo pishqlik qonidan o'tgan Mohi angishvonadek jussasi bilan shuncha bolaga bir o'zi bas kellar, ushlab ko'rish kabi iltimoslarni rad etgancha bankani mahkam changallab olgan edi. Mishiqlik esa betinim chuvillashishardi.

– Opa, bankaning qopqog'ini ochaylik...

– Opa, buni xo'rozim bilan urishtiraylik, nima qilarkin?

– Mohi opa, iloningizni menga soting...

– Opa, keling, og'ziga olovli cho'p tiqib ko'ramiz.

– Dumini kesib ko'rsak-chi? Biz kuchugimni shunaqa qilganmiz.

– Yo'q, ilonni o'ldirish kerak. Bobom aytganlar. Ustidan kerosin quyib yoqib yuborsak-chi!

Ana endi astoydil jahlim chiqdi. Pakana oliftalarni bitta-bittalab haydashga kirishdim! Kim bo'lishibdiki, mening ilonvoyim ustidan bu yo'sin qabih hukmlar chiqarsalar? Men mushimni tugdim, tomoshabinlar boshqa bir guruh bo'ldilar. Ikkala tarafning ham jazavasi qo'zidi.

Men hammani uyimizdan nari qilishga kirishsam, ular pul to'laganlarini ro'kach qilib ilonni talab eta boshlashdi. Ana tomosha-yu, mana tomosha! O'rtada dahanaki jang boshlandi. Mahallaning bir to'da quyonyurak churvaqalariga qarshi bitta o'zim va mittigina, qiltiriq dugonam chiqdik. Odatda, o'rtada dovuchcha talashib, yong'oq talashib urush bo'lardi. Bu urush esa ilon talashib bo'ldi! Ikki taraf orqa-oldimizga qaramay urisha ketdik. Mohi kaftlari band bo'lgani sabab kimdir ilonvoyga qo'l cho'zsa, bor ovozi bilan dod soladi:

– Tagma, churvaqa! Qo'ling singur, maymunmisan?!

Oxiri bu ishkal shunchalikka yetdiki, ilon unutilib, bolalar kimni to'g'ri kelsa ura ketishdi. Endi taraf-taraf yo'q. Ko'ziga kim yomon ko'rinsa, o'shani tepaveradi! Mazza! Qiy-chuvni eshitgan boshqa bolalar yig'ila boshladi. Avval ular shunchaki kuzatib kimni qattiqroq tepishga do'stlarini rag'batlantirib turishdi.

– Shohi, orqangga qara! Ha, tep, tep betiga!

– Sarvar, barakalla, bos! Oyog'idan chal, oyog'idan!

Shu payt nimadir bo'ldi-yu, orqadan "chars" etgan tovush eshitildi. To'polon, zavq-shavqqa to'lgan mahalla ko'chasi bir zumda suv quygandek jimjitlikka ko'mildi. Men ham ichimdan zil ketib o'girildim. Qarasam, ilonimning bankasi sinib, shishalar ichidan sekin kallasini ko'tarib chiqib kelmoqda! Shunda o'lik, sovuq sukunatni vahimali qichqiriqlar ag'dar-to'ntar qilib tashladi. Bolalar birvarakayiga qichqirib, tumtaraqay bo'ldilar. Hatto Mohi ham yuragini hovuchlagancha uyi tomon yugurdi. Ammo ketar chog'i pullarni chelak-pelagi bilan quchoqlab olishni ham unutmadi. Yashilvoy esa tez sirpangancha ko'zdan g'oyib bo'ldi. Men endigina topgan yangi do'stimdan ayrildim. Jamiki sarguzashtlarim esa bir zumda yozning dim havosiga singib unsiz yo'qoldi...



Marjona MAMATOVA,
O'zbekiston davlat Jahon tillari
universiteti talabasi

Jilvalanar yetti rang...

Yurt tarixi

Adabiyot, dargohing qutlug',
Navoiyning bayoti ulug',
Sakkoiyning dostonlaridan
Yuragimga qadalgan bir tug',
Yuksalaman o'qigan sarim,
Ey, tarixi ulug' Vatanim!

Temur bobom shiorlarini,
Mirzo Bobur ash'orlarini,
Xorazmiyning alyorlarini
Eshitganda titraydi tanim,
Ey, tarixi ulug' Vatanim!

Alplar bog'lab belbog'ini,
Ko'tarib yurt bayrog'ini,
Yashnatganda gulbog'ini,
Bor bo'l, mening g'ururim, sha'nim
Ey, tarixi ulug' Vatanim!

O'z yurtini qo'msagan, oh chekkan u firoqda,
Yurak-bag'ri qon bo'lib, o'z yurtidan yiroqda,
Har yoqda do'st-u dushman, qilib Haqqa tavakkal,
Har qadamda chap berdi qismat qo'ygan tuzoqqa

Bir tilim handalagi yurtining armon bo'ldi,
Sog'inib Andijonni ko'z yoshi marjon bo'ldi.
Aziz jonin tasadduq aylab jigarbandiga,
Oyoqqa turg'izdi-yu, o'zi bedarmon bo'ldi.

Bugun Hind tuprog'iga ko'rk bermoqda Toj Mahal
Jilvalanar yetti rang, haligacha sir bo'lib.
Boburiylar qudrati olam uzra jar solar,
Tahsinlar aytar bugun butun dunyo bir bo'lib.



Mahfuza BEGALIYEVA

1996-yili tug'ilgan. O'zbekiston davlat jahon tillar
universitetining Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishini
tamomlagan.
Yosh ijodkorlarning an'anaviy Zomin seminari
ishtirokchisi (2019).

Tun.
Kunduzlar nuradi tunning ustiga,
Quyosh yulduzlarga ketdi bo'linib,
Qay zamon dog' tushdi oyning husniga.

Mug'anniy qo'lida soz qotib qolgan,
Azador holda ham yig'lolmadi tun,
Bo'g'zida alamli so'z qotib qolgan.

Oqizib ketadi domiga girdob,
Xayollar quyunday kelar bostirib,
Mum tishlagan ko'yi turar iztirob.

Tabiri teskari tushlar uyg'onsin,
Tirilsin tomoqqa tiqilgan so'zlar,
Aksi bo'g'zing bilan barobar yonsin!

Siniq nurlarini yiqqancha mag'rur,
Kechaning bag'riga o't yoqar nogoh,
Kunduzni orqalab kelgan oppoq nur-tong.

Tutqichlari tillo darvoza, kechir,
mening manzilim o'zga,
hali uzoq baxtni izlaram.

Sendan ayro tushsa matlabim,
hech yo'q shu safarim oldidan,
menga oq yo'l tilamaysanmi?!

Nega ko'rinmaysiz,
Nega ko'rmaysiz?
Yonib tugayapman xona burchida.
Intiq kutgan sari yolg'on tuyilar
Kirib kelishingiz oyoq uchida.

Nega ko'rinmaysiz?
Nega ko'rmaysiz
Siz uchun yoqilgan umid shamini?
Alif qomatimni xarjlab siz uchun,
Miltillab yoritdim hijron shabini.

Nega ko'rinmaysiz,
Nega ko'rmaysiz?
Sim-siyoh tun aro yonyapman yolg'iz.
G'amangiz termulib tugatdim o'zim,
Ochiq ko'zlarimni yopdi yalmog'iz.

Endi kelsangiz ham,
Kelmasangiz ham...
Meni topolmaysiz xona ichidan.
G'amangiz boqasiz tugagan shamga
Va chiqib ketasiz oyoq uchida.



Naqarot

Hikoya

Umar SAYFIDDIN
(1884–1920)

Atoqli turk adibi.
"Tarix azaliy takroridir",
"Haram", "Yefruz Bey",
"Qahramonlar", "Bomba",
"Uzun poshnalar", "Halol-
lik", "Yolg'iz bahodir",
"Iskanja", "Ishq to'lgini",
"Oq Lola", "Sirli amaliyot",
"Forsa", "Badal", "Elchi",
"Pushti durli yoqa" kabi
asarlari mashhur.

Begali QOSIMOV
tarjimasi

Yoshligini Makedoniyada¹ o'tkazgan
eski bir zobitning xotira daftaridan

21-yanvar, 1319 (1904), Babina².

O'n kundirki, aylanib yuribmiz. Kuzdan sarg'aygan xarob kulidan boshqa bir narsa yo'q. G'olibo, qish kelgani uchun hamma narsa g'oyib bo'lgan. Nihoyat, qo'mondon qurol qidirishga buyruq berdi. Ikki-uch qishloqdan nasihat va tazyiq-la yuz elliktacha qurol topdik. Bular markazga yuborildi. Men o'z bo'linmam bilan qoldim. Balki bu taraflarda isyonchilar³ bordir. Juda sovuq. Chodirda jon saqlash imkoniyati yo'q. Askarlarga kengroq yerni tayin etdim. O'zim esa qishloqning yagona savdogari, ya'ni baqqoli, attori, mayxonachisi, xullas, hamma narsasi bo'lgan bulg'or do'konida yonidagi buzilgan uyga joylashdim. Bu qadar iflos! Ey Xudoyim, buncha irkit bo'lmasa!

Yotadigan xonamning birgina derazasi bor. Pechka o'chog'i, shifti xuddi ko'mirdan qilingandek qop-qora... Eshigiga qo'l tekkizishga hazar qilasiz. Chiroq yo'q. Sassiqlik, yog'li bir qurum bosgan tunuka qandil sariq va so'niqlik nur taratadi. Vujudim, zehnim horg'in... Tushunday xunuk chinqiradiki... Xuddi ostimda birovni bo'g'ayotgandek, bo'g'izlayotgandek bo'ladi. Qo'rquvdan ko'zlarimni yumib olaman. Xayolimda hamma yoqqa sachragan qon tomchilari yuzimga tegib ketadigandek. Peshonamning chap burchagidan qulog'im tomon anglab bo'lmas bir harorat yayilib boradi. Bir sas... Ha, bir ayol tovushi! Yozuvlarimni yig'ishtirib qulog'imni ding qilaman. Uncha uzoqda emas. Lekin havo qanday xush, qanchalar osuda, farahbaxsh...

¹ Makedoniya – Bolqon yarimorolidagi o'lka. O'sha vaqtlar Turkiya qo'l ostida bo'lgan.
² Babina – Makedoniyadagi qishloq.
³ Isyonchilar – turklarning hukmronligiga qarshi kurashayotgan makedoniyaliklar ko'zda tutiladi.


Yanvar, 1319 (1904).

Erta tongda turdim. Havo muzdek. Shinelimni kiydim. Pastdan hali olov keltirib, o'choqqa o't qalanmagan. Yordamchim "tayyor bo'lish" xabarini keltirdi. U chiqquncha isinmoq uchun tor xonaning ichida borib kela boshladim. O'choqdan derazaga, derazadan o'choqqa borib kelaman. Boshim to'ntarilgan cho'yan hovonchadek og'ir, qop-qorong'i, bo'm-bo'sh. Olti oy yashaganim – sevimli Istanbul jonimni, Feneryo'lidagi oydinlikni, toza, ozoda, rohatbaxsh ko'shkimizni o'ylardim-u, lekin ko'z oldimga keltirolmasdim.

Ajabo, batalyon markaziga pochta keldimikin? Necha hafta bo'ldi, onamdan xat olmayman. Bu yerning sutidan sarimsoq hidi keladi. Nonushtaga hammasidan qoqlangan nonni xush ko'raman. ...Tashqarida shovqin ko'tarildi. Qaradim. Pastak bir devor bilan ajratilgan qo'shni bog'chada eshik ochilib, uning ustuniga suyab qo'yilgan taxtalar qulab tushdi. Shu qishloqlik ekaniga ko'zlarimning ishonishi mumkin bo'lmagan bir qiz. Gavdalikkina, qo'ng'irsoch, chiroyli, quvvatli bir qiz. Ustunning chap tomonidagi maydonchadan qarab turibdi... Meni ko'rdi. Qochmadi. Hatto tikilib-tikilib qaradi. Olti oydan buyon bunday go'zalga birinchi marta duch kelib turibman. Lekin naqadar tiniq, jonli, toza, sof bir go'zallik. To'yib-to'yib boqmoqdaman. Va shu xotiralarni yozyapman.

Fevral, 1319 (1904).

"Hayot uyqu bo'lsa, ishq uning ro'yosidur!" Mana – eng buyuk haqiqat. Esim ketdi, g'amim ham ketdi. Jonlandim. Ishtaham ochildi. Kezmoq, tomosha qilmoq istayman. Bugun chiqib qishloqdagi turkcha bilgan bulg'orlar



bilan gaplashaman. Inshaalloh, meni bu yerdan olib ketmasalar kerak. Markazga yozdim. "Meni qo'zg'atmang!" – dedim. Endi bekor vaqtlarimni – zotan, tamom bekorman – deraza yonida o'tkazaman. G'olib, devorlardagi yozuvlarga bir necha satr ilova qilaman. Lekin bu na bir shikoyat, na bir oh bo'ladi! Totli, toza, osuda bir xotira... Maydonchadagi go'zal, bashang, kelishgan qiz bilan uzoqdan bir sevishish! Uning ismini ham bilmayman. Do'kon egasidan ham, xizmatkoridan ham so'ramadim. So'rashdan nima foyda? Uni bilmasam, faqat yozuvlarimgina meni unga bog'lab qo'ydi. Harbiya maktabining ikkinchi sinfida "Jazo qonuni"ni o'qitgan bir o'qituvchimiz bo'lardi.

– Fazilatli bo'lmoq insonning qo'lida emas. Lekin istasa, nomusli bo'la oladi, bu ixtiyoriy narsadir, – derdi.

Uning fikricha, kim yashirin qilgan ishini ko'pchilik bilib qolgan hisoblab, jazo qonunnomasining moddalarini xotiriga olsa, nomussiz bo'lishdan qutuladi. Lekin fazilat ichdan keladigan bir narsa. Bunga zo'rlik bilan erishmoqqa urinish riyokorlik bo'lar edi. Bir kishida fazilat yo bor, yo yo'q. Orzu bilan, iroda bilan unga erishib bo'lmaydi. Men ushbu deraza oldida, do'konchining isqirt qo'y po'stagi ustida chordana qurgancha, ruhimni tahlil etarkanman, hech fazilat egasi bo'lganimni iztirob bilan his etdim. Chunki... Ha, qanday yomon fikrlar kelmaydi xayolimga! Bu qizni majburan olib qochmoq! U bilan birga qochmoq! Amriqoga... qayta dunyoga kelgandek, boshqa manzara va boshqa hayotni xayol qilardim! Ortiq na onam, na otam, na uyim, na vatanim qoladi! Demak, men bir daydiman! Butun orzum qochmoq, bandilikdan qutulmoq, vatanni, oilani abadiy tark etmoq. Notanish olislarda birgina muhabbat bilan yashamoq! Lekin ustozimning tavsiyasiga amal qilib, ishtiyoqlarning orzudan amalga aylanishini jazo qonuni moddalari bilan solishtirib chiqsam, o'zimdan uyalib ketaman.

Tashvishga ko'milib yotgan zavolli davlatning boshiga bir bulg'or qizini olib qochib, yangi mushkulot ortmoq! Ish beradigan, vatanga xizmat qiladigan chog'imda qo'shinni tark etmoq, jangdan, to'qnashuvdan, harbdan qochmoq! Tabiiy bir o'qqa uchib qulamoq yoxud bir pastkash kabi kasalxonalarda surinmoq, tahqirga uchramaslik uchun mamlakatimga ham qaytmaslik. Sevikli onam ko'z yoshlariga g'arq bo'lib, mening xayolim bilan o'ladi. Otam yaqinlari, do'stlari oldida mening xiyonatimdan yuzi shuvut. Hech kimning betiga qarolmaydi. Bularni o'ylarkanman, ko'zimni maydonchadan olaman. Qop-qora o'choq ichida chirsillab yonayotgan olov xayolimni o'z og'ushiga tortadi.

Ha, nomusli bo'lmoq insonning o'z qo'lida! Mana men ham na qizni olib qochaman, na uning ismini bilishga harakat qilaman. Hatto yuziga boqmayman! Lekin bularning hammasini o'ylab o'tirmay, muhokamasiz qilolsam edi. Nega menda axloqning asosi bo'lgan fazilat yo'q? Nechun doimo urmoq, majaqlamoq, parchalamoq, qochmoq, qarshi bormoq, o'ldirmoq, isyon etmoq istagiga moyillik bilan yashayman? Ilk tarbiyam ta'sirimi? Chunki bolaligim tartibsiz kechdi. Salkam yo'lto'sarlar bo'lgan bir to'da odamlar ichida o'sib ulg'aydim. Istanbul, oh, bu qadar sevganim go'zal Istanbul, maktablar, boy kibor aqrolarning nazokatlari borlig'imga g'oyat katta kuch va quvvat baxsh etgan! Arkoni harb tabaqasiga qo'shilib ketishimning sababi ham qattiqqo'lligim... Bir do'stimni o'lasini qilib urganman. Aybdorligim ma'lum bo'lib qoldi. Qamoqda yotib chiqdim. Axloqim tamom bo'ldi. Butun umidlarim bo'shga chiqdi. Lekin mana bu go'zal xonim unga qaramaganimga, orqamni o'girib olganimga jahl qilyapti. Meni deraza oldida ko'rishi bilan ovozi boricha qo'shiq aytib qichqiradi:

Nash, nash,
Charigrat nash.
Raz-dva-tri...

Fevral, 1319 (1904).

Men... qaroqchi ushlaydigan, qaroqchi-larga doir xabarlar to'plashga mas'ul yosh zobit nimalarni o'ylab, nimalar bilan shug'ullanib, nimalarni yozib yuribman. Ha, maydonchadagi qiz bilan ishni gullatib yubordik. Men ortiq sovuqqa, izg'iringa parvo qilmadim. Derazaning oynasini ochib qo'ydim. Qiz yayrab ketdi... Menga g'alati-g'alati qarab kula boshladi. Qo'li bilan men ma'nosini tushunmagan ishoratlar qilardi...

Fevral, 1319 (1904).

Aytgan qo'shig'i naqadar fuzun, qanchalar g'alayonli! Shubhasiz, bir ishq qo'shig'i! Men birgina naqarotining so'zlarini o'rgana oldim:

Nash, nash,
Charigrat nash...

Moviy otash ko'zlarini menga tikkancha bu naqarotni takrorlar ekan, qo'lidagi ilmaklarini to'qiyotgan paypog'i ichiga soldi-da, ingichka barmoqlari bilan, go'yo ko'rinmas bir qalbni siqmoqchi bo'lib, shaylanib turgan yarim yumilgan kuchli ayol barmoqlarini qo'shiq ohangiga moslab maydon panjarasiga urardi:

Nash, nash,
Charigrat nash...

"Nash"lar shunchalar ehtirosli, shunchalar jonli, shunchalar oshiqona, shunchalar qizg'in ediki... Ular go'yo ruhdan ham teranroq bir yerdan kelar edi. Go'yo koinot qa'rida aks sado topgandek. Kim bilsin, bu "Nash" nima degani? Menga tikilib takrorlashiga qaraganda, bir xitob bo'lishi kerak. "Seni juda sevaman, sen uchun jonimni beraman!" – degani bo'lsa kerak. Yo bo'lmasa, shularga yaqin bir narsa! Necha marta bo'linmamdagi bulg'orcha biladigan ishtillik Husni o'nboshini chaqirib so'rash aqlimga keldi. Lekin bu o'nboshi – shaytoni la'inining o'zginasi... Unga ishqiy qo'shiqni tarjima qildirsam, tamom, haddidan oshadi. U

yog'i nima bo'ladi? Bu hayajonli qo'shiqning men yodlamagan boshqa bandlaridan, qulog'imga uncha begona bo'lmagan, "Bolg'on, Shipka, Maritsa" so'zlari eshitildi. Har holda rus yoki italyan musiqasidan olingan bir narsa bo'lmasa kerak. Qo'shiqni xayolimda taxminan shunday tarjima qilaman:

Seni juda sevaman,
Seni juda sevaman.
Bolg'onlardan, Shipkadan
Oshib keldim yoningga.
Ko'r, Maritsa bo'lolmas
To'siq mening yo'limga.
Seni juda sevaman,
Seni juda sevaman.

Bulg'orchani rostdan biladigandek, so'zlarini birma-bir turkchaga tarjima qilganim kabi ichimda bir ishonch bor. U bulg'orcha:

Nash, nash,
Charigrat nash...

deya chaqirmoqqa boshlarkan, men ham taxminan qilgan tarjimamni uning ohangiga moslab, g'o'ng'illayman. Bu qanday totli, qanday ehtirosli oshiqlik bo'ldi. Uzoqdan uzoqqa...

8-mart, 1319 (1904).

Bugun Pirbelichega qaytmoq uchun batalyon qo'mondonligidan buyruq oldim. Kelgan pochta ma'lumotlaridan bildimki, monastirga ketyapmiz. Alvado, ey, hanuz ismini bilmaganim, lekin ruhini anglaganim go'zal qiz! Bir oy bu qadar tez o'tdi. Hech bo'limganda uzoqdan, mayli, u xayoliy bir ishq bo'lsin, sezmaganlar naqadar badbaxtdirlar! Hayot achchiq bir dori... Ishq unga aralashtirilgan bir shakar! Bu dorini shakarsiz ichmoqchi bo'lganlarning holiga voy! Ikki oydirki, najotsiz to'lg'onaman. Olis kelajak orzulari dimog'imni to'ldiradi, rohatimni oladi. O'n besh metrlik bir masofadan durbinim bilan

eng nozik nuqtalarigacha kuzatganim bu jonli haykal ruhimda qiyomatlar yasadi. Kunlarning soatlarning qanday o'tganini sezmagani edim. Endi bu yerga kecha kelgandekman. Bir oy davomida uch martagina tashqari chiqdim. Bu ham askarlarga oziq-ovqat olish uchun. Qaysi xonada bo'lmay, kasalimga bahona topardim. Yordamchimga oqshom tanbeh berib:

– Kechasi yotganda derazangizni yaxshilab berkiting. Shamollab qolasiz. Bir marta derazani ochgandim, mana endi tumov-puchqoqdan bo'shamayapman!

Yolg'on gapirmoqda edim. Bir oy davomida kunduzlari derazani hech bir berkitmadim. Xona ichida shinelimni kiyib o'tirdim.

Ertaga tushlik oldidan yo'lga chiqamiz. Yordamchimga tayyorgarlik ko'rishni buyurdim. Bu oxirgi kecha... Mendan oldin kelib-ketganlarning devordagi yozuvlariga men ham bir narsalar ilova qilarkan. Ammo nimani? Buni hali bilmayman.

"Nash, nash,
Charigrat nash..."

Bu satrlarni qog'ozga tushirarkanman, u go'zal ma'sum muhabbatimizning mushtarak nag'asini takror etardi. Ajabo, mening ertaga ketishimni, uni abadiyan ko'rmaydigan bo'lib ketishimni bilsa... Bir oydir, bu ishq faryodini, bu tog'larning pokiza shamollari singari kuchli va muazzam faryodini barobar tingladik. ...Erta ketish oldidan unga bir yodgor qoldirmoq istayman. Jomadanimda ochilmagan kichkina bir shisha atir bor. Shuni berib yuboraman. Lekin kim orqali? Uy egasi mayxonachi nihoyatda mutaassib! Balki xizmatkorini ko'ndirarkan. Yo'lga chiqishdan o'n daqiqa oldin berib yuboraman. Qishloqdan chiqqanimda, yo bo'lmasa, chiqqanimdan so'ng hadyani oladi. Na qaytarib yubora



oladi, na tashakkur... Devorga lotin harflari bilan bir oydan buyon birgalikda aytayotgan qo'shig'imizning naqarotini yozdim. Bir kuni men kabi bu yozuvlarni o'qiydiganlar ichida biror bulg'orcha biladigani bo'lsa, bu yerda ishq mojarosi yotganini anglar. Zotan, boshqa nima yozmay, ruhimning sarguzashtini ushbu to'rt so'zday ifoda etolmas:

"Nash, nash,
Charigrat nash..."

11-mart, 1319 (1904), Pirbeliche.

Babinadan erta tongda otlandik. Askarlarni yo'qlama qildim. Ovqatlarini yedirdim. Soat to'rtida hammani yo'lga chiqardim.

– Sekin-sekin boravering. Men orqangizdan yetib olaman, – dedim.

Minadigan va ko'rpa-to'shagim, jomadonim yuklangan ot bilan mayxona ro'parasiga keldim. Xizmatchi bilan otlarga qaraydigan qurolli bir kishidan bo'lak hech kim qolmagan. Mayxonachi bilan hisob-kitobni qildim. Derazaga keldim. Maydonchada qiz yo'q edi.

– Nash, nash,
Charigrat nash... –

deb hushtak chala boshladim, ko'rinmadi. Bu naqarotni o'n martacha takrorlagandirman. Mayxonachining yugurdagi ichkari kirdi.

Pastdan xo'jayin yuboribdi, yordam berish uchun... Jomadonim bilan ko'rpa-to'shagimni yelkasiga ortdim.

– Yana kel! – dedim.

Atirni olib qo'ygandim. Bola kelishi bilan qo'lidan tutdim. Derazaning chetiga boshladim. Kelib-ketgan askarlar bilan oldiberdi qilaverib, turkchani biroz tushunadigan bo'lib qolgan edi. Maydonchali uyni ko'rsatdim, shunday deb so'radim:

– Shu yerda bir qiz bor, bilasanmi? Bola cho'zinchoq, yog' bosgan sochli boshini tebratdi.

– Rada, – deb kuldi.

– Radami?

– Ha.

– Barakalla, mana senga bitta choraktalik! Bilasan, men ketyapman. Unga ko'pdan-ko'p salom ayt. Manavi shishani berib qo'y.

– Xo'p-xo'p...

– Lekin, to'g'risini ayt. Keyin bermaganingni bilsam, seni chatoq qilaman.

– Yo'q, beraman.

– Yaxshi, albatta ber.

Meni xotirjam qilmoq uchun oriq qo'llari bilan bir xoch chiqardi.

– Albatta beraman, – deya boshini yana bir silkitib qo'ydi-da, chiqib ketdi.

Egilib etiklarimga poshnalik taqardim. Tasodifan xayrlashuv rasmini ado qilmoq fikri bilan kekxa mayxonachi ichkari kirdi. Bir oydan buyon xonamga birinchi marta kirishi. Men tik turgan edim, o'choqning chetiga betakalluf cho'kdi. Mendan juda mamnun edi. U bilan muomalamiz o'zi qiziq edi. Shunchaki gapni ulash uchun so'radim:

– Soat nechchi?

– Beshdan o'tyapti.

– Yuklar ortildimi? Men tayyorman.

– Lekin havo yomon.

– Nima qilamiz, buyruq shu, xo'jayin.

Rada bilan vidolashish uchun ortiq qololmasdim. Butunlay ketadigan kunim bunday yo'qolib qolishi g'alati edi.

Takror so'radim:

– Taqsir, bugun biror bayram bormi?

– Yo'q.

Ajabo, qayoqqa ketgan bo'lsa? Quloqlarimda qo'shig'ining naqaroti sado beradi. Xayolan tarjima etganim bu o'ynoqi ism nashidasining so'zlarini ketayotgan paytim shu qariyaga tarjima ettirmoq fikri birdan miyamga urildi. Mayxona xo'jayini bir vaqtlar shaharda turgani uchun turkchani bilar edi. Ushbu

qo'shiqning bulg'orchasi bilan turkchasini daftarimga bir xotira sifatida yozib olmoqchi bo'ldim.

– "Nash, nash, Charigrat nash..." nima degani, xo'jayin?

Cholning nafas olishi tezlashdi. Kichik, so'niq ko'zlari porladi. Kirlanib ketgan bir taxta parchasiga o'xshagan kir qo'lini bir narsaga e'tiroz bildirayotgandek havoga ko'tardi:

– Xudo saqlasin, – dedi, – bizning qishlog'imizda hech kim bunday demaydi. Biz buni qabul etmaymiz.

Tushunmadim. Takror so'radim:

– Nega?

– Biz qabul qilmaymiz. Bu yerning barcha aholisi insofli kishilar.

Yana anglamadim. Yirik bir muhabbat nashidasi deb o'ylaganim bu latif qo'shiqning, ajabo, uyat, ayb, nomusga zid keluvchi yomon bir so'zlari bormidi?

Derazaning tashqarisini ko'rsatib:

– Shu qo'shnining qizi qanday, xo'jayin? – dedim.

– Qaysi biri?

– Rada.

– Uni bilmayman, lekin otasi yaxshi odammas. Cherkovda pop edi. Bir kuni harbiyga ketib qoldi. Velmeftcheda o'ldi...

Xayolimda:

Seni sevaman...

Seni sevaman...

deb tarjima qilganim "Nash, nash, Charigrat nash..."ning ma'nosi, shunchalik uyatli edimi, bu odam nomusga zid hisoblayaptimi?

– Uyat so'z bo'lsayam, ayting, azizim, zarari yo'q, xo'pmi? – dedim holi-joniga qo'ymay.

Qiziqishim ortib borar edi. Qariya o'ng'aysizlanar, turkcha so'z topolmay qiynalardi.

– Ha, ayting, "Nash, nash" nima degani?

– Anaqa... afandim...

– Nima u?..

– “Bizniki bo'lajak, bizniki bo'lajak!” degani.

– Nima bizniki bo'lajak?

– Anavi...

– Nima narsa, azizim, ayt..., – deya qiziqdim.

Qariya qizarib-bo'zarib ketdi. Terlaganday bo'lib, peshonasini kaftining orqasi bilan artdi. Yerga qaragancha tutila-tutila:

– Cha... Charigrat! – dedi.

– Charigrat nima?

– Istanbul.

– !..

Shunday yomon bo'ldimki, hech narsa deyolmay qoldim. Is bosgan shiftga qaragancha shinelimning tugmalarini o'tkaza boshladim. Jahlim chiqib, oqarib ketganimni, muzlab borayotganimni ko'rgan qariya ham o'lim hukmini eshitayotgan gunohkordek qo'rqa-pisa o'rnidan turdi. Nima deyishimni ham, nima qilishimni ham bilmasdim.

*Bizniki bo'lajak, bizniki bo'lajak,
Istanbul bizniki bo'lajak...*

Yuragim yirtilib ketgudek zirqiraydi. Tizzalarim og'riydi. Bilaklarim ustida go'yo chumolilar yuradi. Lablarim, yanoqlarim titray boshladi. Mayxonachi qo'rqqanidan yuzimga qarolmaydi. Chayqalgancha eshik tomon yurdim. Qorong'i zinadan tusharkanman, ruhimga, vijdonimga kutilmaganda kelib tekkan bir qamchining kishini nobud etuvchi shartillagan ovozini endi aniq-tiniq eshitayotgandek edim:

*Nash, nash,
Charigrat nash...*

Ha, hech shubhasiz, u men ahmoq, o'zidan boshqa narsani o'ylamaydigan, tushunmaydigan go'rso'xta yosh zobitning hadyasini olgan edi. U maydonchadan birgina menga emas, butun millatimga qaratilgan jasur, metin, azmkor kufri bilan tashakkur bildirardi.

Do'kondan zo'rg'a chiqdim. Mayxonachining gaplari qulog'imga kirmasdi. Havo juda buzuq edi. To'ngdiruvchi, muzday kesuvchi bir shamol esardi. Boshim qizib, vujudim yonardi. Shinel va kitelimning tugmalarini yechib yubordim. Bosh kiyimimni orqaga tashladim. Tik yo'llardan, tor jarlardan, sokin o'rmonlardan yurdim. Yuklarim ortda qolib ketdi. Bo'linmaga yetishdim. Ulardan ham o'tib ketdim. Oh, bu tanho, bu qush uchmas o'rmonlar ichida koshki biror parti-naftratimdan, vijdon azobidan vujudim erib borar edi.



Muqovada:

*Zulfiya nomidagi Davlat
mukofoti sohibasi Nilufar
Ergasheva.*

Bosishga 29.03.2025-yilda
ruxsat berildi.

Qog'oz bichimi: 84x108 ¹/₁₆

Nashriyot hisob tabog'i: 8

Obuna indeksi – **822.**

ISSN 0207-9135.

Jurnal 2007-yil 4-mayda

Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar agentligi

tomonidan № 0253 raqami

bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan

qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi

va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflar fikri tahririyat

nuqtayi nazaridan farq qilishi

mumkin.

Jurnaldan ko'chirib

bosilganda, "Yoshlik"dan

olindi, deb izohlanishi shart.

"Samo nashr" nashriyoti
matbaa korxonasida chop
etildi.

Buyurtma № 49. Adadi: 1025.

100029, Toshkent shahri.


Sirg'ali tumani 21-uy.

28-xonadon.

Tasdiqnoma №1106435

(2022.03.03)

85
yilligi



Fotograf: Abdug'ani JUMA

O'zbekiston xalq yozuvchisi

Shukur Xolmirzayev



Dilshod Eshmatov. "Muhabbat"